MENING MUVAFFAQIYAT YO‘LIM 2023

I

MENING

MUVAFFAQIYAT YO‘LIM

BIOGRAFIK ENSIKLOPEDIYASI

2023-I

MENING MUVAFFAQIYAT YO‘LIM

BIOGRAFIK ENSIKLOPEDIYASI

2023-YIL TO‘PLAMI

1-QISMI

Toshkent 2023



Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz!

Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz!

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

UDK: 37.0
KBK: 74.00
U-94

“Mening muvaffaqiyat yo‘lim” biografik ensiklopediyasi 2023-yil to‘plami 1-qismi. – T.: Science and Innovation. 2023. 156b.

Ushbu kitobda yurtimizda olib borilayotgan islohatlarni amalga oshirishda o‘z kuch g‘ayrati bilan mehnat qilayotgan tashabbuskor insonlarning muvaffaqiyatga erishish yo‘llari yoritib berilgan. Ilm-fan, ta’lim, san’at, tibbiyot, sport, ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan muvaffaqiyatli insonlar biografiyasi jamlandi.

Kitob keng kitobxonlar o‘qishiga mo‘ljallangan.

© “Science and Innovation” MCHJ ISBN 978-9943-9640-1-3



ABBAZOV ILXOM ZAPIROVICH

Texnika falari bo‘yicha falsafa doktori, Jizzax politexnika institutining “Sanoat texnologiyalari” fakulteti dekani, dotsent

- 2018-yil O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlantirish vazirligi BEST IP – 2018 “Eng yaxshi ixtirochi” nominasiyasi g‘olibi;
- 2019-yil BEST IP – 2019 Eng yaxshi intellektual mulk obyektlari uchun tanlovining “Eng yaxshi foydali model” nominasiyasi bo‘yicha II darajali diplom sohibi;
- Ko‘plab xalqaro va Respublika grantlari rahbari va ijrochisi.

Abbazov Ilxom Zapirovich 1986-yil 11-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati, Ishtixon tumanida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. 1993-2000- yillari 33-umumta’lim maktabi, 2000-2002- yillarda 1-son ixtisoslashtirilgan litsey, 2002-2005-yillari Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi akademik litseyda tahsil olgan. 2005-2009-yillari Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida “To‘qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriyat bosqichi va 2009-2011-yillari “Paxtaga dastlabki ishlov berish” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura bosqichi, 2017-2018-yillari tayanch doktoranturada tahsil olgan.

2008-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining iqtidorli talabalari uchun ta’sis etilgan vazirlik stipendiyasi tanlovi g‘olibi. 2010-yil Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining ichki Akademik X.A.Raxmatulin stependiyasi sohibi. 2015-yil Yoshlarning innovasion g‘oyalari Respublika ko‘rik-tanlovida ishtirok etgan. 2016-yil Toshket to‘qimachilik va yengil sanoat institutida Respublika fan olimpiyadalarining institut bosqichida iqtidorli talabalarni munosib tayyorlagan. 2016-yil Yoshlarning innovasion g‘oyalari Respublika ko‘rik-tanlovida ishtirok etgan. 2018-yil O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlantirish vazirligi BEST IP – 2018 “Eng yaxshi ixtirochi” nominasiyasi g‘olibi. 2019-yil BEST IP – 2019 Eng yaxshi intellektual mulk obyektlari uchun tanlovining “Eng yaxshi foydali model'” nominasiyasi bo‘yicha II darajali diplom sohibi. 2021-yil “Bir million o‘zbek dasturchilari” onlayn platformasini muvaffaqiyatli ishtirok etgan.

2005-2008-yillar Respublika tashxis markazining monitoring bo‘limi operatori, 2009-2011-yillar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Mehnat muhofazasi” kafedrasi laboranti, 2011-2011-yillar Toshkent

viloyati Yangiyo‘l tumani “Yangiyo‘l” paxta tozalash korxonasi chilangari, 2011-2014-yillar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Mehnat muhofazasi va ekologiya” kafedrasi assistenti, 2014-2016-yillar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedrasi assistenti, 2018-2019-yillar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedrasi assistenti, 2019-2020-yillar Jizzax politexnika institutining “Yengil sanoat texnologiyasi” kafedrasi v.b. dosent, 2020-2021-yillar Jizzax politexnika institutining “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish” kafedrasi mudiri. 2021-yildan hozirgi kungacha Jizzax politexnika instituti “Sanoat texnologiyalari” fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



Abbazov Ilxom Zapirovich paxtaga dastlabki ishlov berish mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va ilmiy-tadqiqot jabhalarida faoliyat yuritib kelmoqda.

U 2018-yil “Paxtani qayta ishlash jarayonidan chiqayotgan havoni tozalashning samarali texnologiyasini yaratish” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Uning ilmiy-tadqiqot faoliyati serqirra bo‘lib, Xalqaro va Respublika jurnal va konferensiya to‘plamlarida 100 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgandir. I.Abbazov Xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarning faol ishtirokchisidir. Bundan tashqari Respublika va xalqaro loyihalarda ishtirokchi bo‘lib, 2015-2016-yillarda “Разработка высоко эффективных текстивных филтров” xalqaro grant loyihasida ijrochi M/O‘ZB-KHR – 16/2015 “O‘zbekiston – Xitoy 2015” loyihasi hajmidagi Xalqaro granti tomonidan 217 million so‘m moliyalashtirilgan;



2015-2016-yillarda “Paxta xom ashyosini quritishni samarali texnologiyasini ishlab chiqarishga tadbiq etish” mavzusidagi № IOT-2015-2-20. innovatsion loyihasida ijrochi. 2015-yil uchun moliyalashtirish hajmi 50 million so‘m. 2016-yil uchun moliyalashtirish hajmi 50 million so‘mni tashkil qiladi;

2016-2017-yillarda “Paxtani havodan ajratish jarayonida uning tabiiy xususiyatlarini saqlash qurilmalarini joriy qilish” mavzusidagi №I-2016-2-10 innovasion loyihasida ijrochi. 2016-yil uchun moliyalashtirish hajmi 65 million so‘m. 2017-yil uchun moliyalashtirish hajmi 73,515 million so‘mni tashkil qiladi.

2017-2018-yillarda “Paxtani qayta ishlash jarayonidan chiqayotgan chang havoni tozalashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish” mavzusidagi №VA-OT-A3-002 amaliy loyihasida asosiy ijrochi. 2017-yil uchun moliyalashtirish hajmi 45 million

so‘m. 2018- yil uchun moliyalashtirish hajmi 45 million so‘mni tashkil qiladi.

2022-2023-yillarga mo‘ljallangan Yerasmus+ dasturining 618930-EPP-1-2020-1-EL-EPPKA2-CBHE-JP YeL (O‘zbekiston va Qozog‘iston OTMlarida charm va charm buyumlarini masalalarini kuchaytirish / Reinforcing capacities of HEIs for leather producs in Uzbekistan) loyihasida Jizzax politexnika institutida asosiy ijrochi. 2022-yil uchun moliyalashtirish hajmi 72 ming YeUR, 2023-yil uchun ming YeUR moliyalashtirilgan.

Loyihalarda rahbar sifatida.

2018-2019 yillarda “Havo, mineral zarracha va tolali chiqindilardan tashkil topgan aralashmalarni chang ushlash majmuasidagi harakat qonunlarini tadqiq qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqish” yosh olimlar fundamental loyihasi rahbari №YoOT-Ftex-2018-54. Loyihaning moliyalashtirish hajmi 2018-yil uchun 62 million so‘m. 2019-yil uchun 62 million so‘mni tashkil qiladi.



Abbazov Ilxom Zapirovich rejali o‘quv yuklamasidan tashqari ilmiy-pedagogik faoliyati davomida quyidagi ishlarni ham amalga oshirib kelmoqda. U tomonidan 5321200 – Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi ta'lim yo‘nalishi hamda 5320900 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim oluvchi talabalar uchun jami 10 dan ortiq “Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jihozlar”, “Tolali materiallarni quritish va namlash”, “Tadqiqot uslub va vositalari”, “Konstruksion materiallar texnologiyasi”, “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash”, “Mashinalarni loyihalash asoslari” hamda “Korxonalarni loyihalash” fanlaridan o‘quv uslubiy majmualar va o‘quv qo‘llanma chop etgan va bu yuqoridagi fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni olib borish, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish hamda kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatma va qo‘llanmalar vazifasini bajarib kelmoqda.

Abbazov Ilxom Zapirovich o‘quv ishlari bilan birgalikda institutda olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar va tadbirlarda faol ishtirok etadi. Jumladan u tomonidan 2019-yilda institutning 5321200 – Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi hamda 5320900 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi ta’lim yo‘nalishlarida ta’lim oluvchi talabalarning ishlab chiqarishning rahbarlari va mutaxassislari bilan davra suhbatini tashkil etdi.

Jamoada o‘tkazilgan anketaviy sosiologik so‘rovlar ma’lumotlariga ko‘ra Abbazov Ilxom Zapirovichga o‘qitishning ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini zamon bilan hamnafas targ‘ib qilib, milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillari bilan hamohang holda talabalarga saboq berib keladigan ustoz sifatida tavsif berilgan.

I.Z.Abbazov kafedrada iqtidorli talabalar bilan samarali ishlab kelmoqda. Kafedradagi iqtidorli talabalarni tanlab, ularni ilm, fan va ilmiy-tadqiqotlarga jalb etib, har yili institutda o‘tkazilayotgan an’anaviy ilmiy konferensiyalarda ular bilan birgalikda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

So‘nggi uch yil davomida: 5321200 – “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta)” ta’lim yo‘nalishida hamda 5320900 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan 15 dan ortiq bakalavriyat talabalarning bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilgan. Bundan tashqari Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining 5A321201 – “Paxtani dastlabki ishlash va urug‘ tayyorlash texnologiyasi” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olgan magistrlarga maslahatchi bo‘lib kelgan.



2015-yil Xidirov Axror Abdujabborov “Paxtani qayta ishlash jarayonida changli havoni tozalashning tadqiqoti” mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasiga maslahatchi;

2016-yil Raximov Akbar Xolmurodovich “Paxtani qayta ishlash jarayonida chang havoni tozalashning samarali tizimini yaratish” mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasiga maslahatchi;

2018-yil Ulug‘murodov Xamroz “Paxtani qayta ishlash jarayonidagi chang havoni tozalashda samarali resurs tejamkor texnologiyani yaratish” mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasiga maslahatchi.

Jizzax politexnika instituti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.115.01 raqamli ilmiy kengash kotibi va shu kengash qoshida tashkil qilingan seminar a’zosi hisoblanadi.

Dissertasiyasi himoyasidan keyingi o‘tgan davr mobaynida uslubiy qo‘llanmalar, ishlab chiqarishga qo‘llash bo‘yicha 8 ta dalolatnomalar, ilmiy jurnallarda 100 ta ilmiy maqolalar, shu jumladan xalqaro “Web of Science Core Collection” va “Scopus” ma’lumotlar bazasida indekslangan jurnallarda 14 ta, xorij nashrlarida – 15 ta, OAK junrallarida 31 ta maqolalar chop etgan. Respublika va xalqaro konferensiya ilmiy to‘plamlarda chop etilgan maqolalar 53 ta. Innovatsion g‘oyalar, loyihalar va ishlanmalarning fundamental tadqiqotlar asosidagi amaliy dasturlar doirasida bajariladigan 2 ta davlat granti rahbari va 4 ta davlat grantida hisobotlarida mas’ul ishtirokchisi.



ABDUKADIROVA RA’NO YULCHIBAYEVNA

Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 129-maktab direktori, Xalq Deputatlari Uchtepa tuman Kengashi Deputati

- O’zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi a’zosi;
- “O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi” ko’krak nishoni sohibasi;
- Faoliyati davomida Faxriy Yorliqlar hamda tashakkurnomalar bilan taqdirlangan;
- Ta’lim-tarbiya sohasidagi ilmiy ishlari nufuzli xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Abdukadirova Ra’no Yulchibayevna, 1983-yil 20-aprelda Toshkent shahrida, xizmatchi oilasida tug’ilgan.

1989-yili Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 129-maktabga o’qishga qabul qilingan. Mazkur maktabni 1998-yilda a’lo baholarga bitirib, “A’lo darajali tayanch ma’lumot to’g’risida”gi imtiyozli shahodatnoma” olgan.

1998-yildan 2001-yilgacha esa Toshkent pedagogika 2-kollejida o’qigan. Mazkur kollejda ham barcha fanlarni a’lo baholarga o’zlashtirib, “Imtiyozli diplom” olishga muyassar bo’lgan.



So’ngra o’qishni davom ettirish maqsadida hujjatlarini Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetiga topshirdi va kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o’tib, mazkur universitetning 1-kursiga o’qishga qabul qilindi. 2001-yildan 2006-yilgacha maktabgacha va oilaviy ta’lim yo’nalishida tahsil olib, maktabgacha va oilaviy ta’lim mutaxassisligiga ega bo’ldi.

Talabalik yillaridanoq Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida mehnat faoliyatini olib borgan.

2003-yildan boshlab shu kunga qadar 129-maktabda dastlab boshlang’ich sinf o’qituvchisi, 2016-2018 yillarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari, 2018 yil iyun oyidan esa maktab direktori lavozimida ishlab kelmoqda.

Maktabda yuqori tashkilotlardan kelayotgan topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda.

Direktorlik faoliyati mobaynida ta’lim muassasi mukammal ta’mirlashdan chiqarildi, maktabda ta’lim sifatini oshirish uchun barcha sharoitlar yaratildi.



Maktabda tahsil olayotgan o’quvchilarning indivudial hohish-istaklari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda matematika hamda ingliz tili fanlari bo’yicha variativ o’quv jarayoni tashkil etilgan.

Maktab o’quvchilari “Eng yaxshi kitobxon” kabi tanlovlarda muntazam ishtirok etib sovrinli o’rinlarni egallab kelishmoqda.



R. Abduqodirova maktab pedagogik kengashiga rahbarlik qilib, o’quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etib kelmoqda. U rahbarlik qilayotgan 129-maktabda ta’lim sifatiga katta e’tibor berilmoqda, o’quvchilar uchun fan to’garaklari tashkil etilgan.

Pedagog - o’qituvchilarning malakalarini oshirishga katta e’tibor qaratilgan bo’lib, toifa hamda sertifikatga ega bo’lganlar foizi ortib bormoqda. Natijada R.Abudukadirova direktorlik faoliyatini boshlagan 2018 yilda maktab bitiruvchilarining 7% i oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirishgan bo’lsa, bugungi kunga kelib bu ko’rsatkich 50 % dan ortmoqda.



R.Abdukadirovaning bevosita tashabbusi bilan 2018 yilda Mehnat Qahramoni, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan o’qituvchi, “Alifbo” darsligining muallifi Oqilxon Sharafutdinov tavalludining 120 yilligiga arafasida maktabda muzey tashkil etilib, ochilish marosimi o’tkazilgan. Muzeyda buyuk pedagog tomonidan yozilgan alifboning qo’lyozma nusxasi va boshqa ko’plab ashyolar saqlanmoqda.



2021 yilda O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi hamda 129-maktab tashkil topganligining 40 yilligiga bag’ishlangan “Yangi O’zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” mavzusida katta tadbir o’tkazilgan. Tadbirda faxriy muallimlar, sobiq o’quvchilar ushtirok etishdi.

R. Abdukadirova yosh avlodni tarbiyalashda erishilgan yutuqlari uchun Uchtepa tuman hokimligining Fahriy yorlig’i, O’zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining Tashakkurnomasi,

Beshqayrag’och MFY Tashakkurnomasi bilan taqdirlangan.

2021 yilda “O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi” ko’krak nishoni sohibi bo’lgan.



O’zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi a’zosi.





2019-yilda Xalq Deputatlari Uchtepa tuman Kengashi Deputatligiga saylangan. Deputatlik faoliyati mobaynida hududdagi ta’lim muassasalari, sog’liqni saqlash tizimidagi qator muammolarni o’rgangan holda ularni bartaraf etib tuman aholisining turmush-tarzi yuksalishiga o’z hissani qo’shib kelmoqda.

Oilali. Uch farzandning onasi.



ABDULLAYEVA NILUFARXON MAXAMADJANOVNA

Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Umumiy pedagogika” kafedrasi dotsenti

- O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi Boshqaruv kengashi a’zosi, Xalq deputatlari Namangan viloyat kengashi deputati, Namangan viloyati olima ayollar uyushmasi a’zosi sifatida samarali mehnat qilgan;
- Uning rahbarligida 10 ga yaqin Respublika va mintaqa miqiyosida ilmiy-texnik konferensiyalar yuqori saviyada o‘tkazilgan;
- Namangan davlat universiteti “Eng yaxshi dekan” naminatsiyasi diplomi sohibi hamda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Abdullayeva Nilufarxon Maxamadjanovna 1977-yil 14-mayda Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. 1994-yilda Uchqo‘rg‘on tumanidagi 36-sonli o‘rta maktabni Oltin medal bilan muvaffaqiyatli o‘qib bitirgan. 1999-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (kunduzgi) o‘zbek tili va adabiyoti qo‘shimcha turk tili va adabiyoti o‘qituvchisi mutaxassisligini tamomlagan. 2000-2001-yillarda Andijon davlat universiteti “O‘zbek adabiyoti” kafedrasi zamonaviy ilmiy adabiyotlar bo‘yicha aspiranturada tahsil olgan. Abdullayeva N.M. 1999-yildan 2000-yilga qadar “Namangan davlat universiteti kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi” uslubchisi, 2001-yildan 2022-yilga qadar Namangan davlat universitetining “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, katta o‘qituvchisi, 2019-2020-yillarda Namangan davlat universitetining “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri, 2020-2021-yillarda Namangan davlat universiteti Qo‘shma ta’lim dasturlari fakulteti dekani lavozimlarida mehnat faoliyatini olib borgan. 2021-yildan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Umumiy pedagogika” kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat olib bormoqda.



Abdullayeva N.M. 2020-yilda Namangan davlat universiteti qoshidagi pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini

olish uchun dissertatsiyalar himoyasi bo‘yicha Namangan davlat universiteti, huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 raqamli Ixtisoslashgan ilmiy kengashda “Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qildi.



Abdullayeva N.M. jamiyatimiz taraqqiyot yo‘lini rivojlantirishda o‘z ish faoliyati davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlar va yurtimizda kechayotgan ijtimoiy–siyosiy jarayonlar, Vatanimiz ma’naviy-madaniy hayotidagi yangilanishlar va voqealarida faolligi, yosh avlodni har tomonlama yetuk, sog‘lom etib tarbiyalash, ularga ixtisoslik fanlari bo‘yicha chuqur bilimlarni berish, ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy axborot vositalarini qo‘llash, ustoz-shogird tizimi asosida olib borayotgan ijodiy faoliyati va ilmiy tadqiqot ishlari orqali pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishda o‘z hissasi bilan ishtirok etib kelmoqda.

Abdullayeva N.M. o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida xalqaro, respublika miqyosida umume’tirof etilgan jurnallar va ilmiy konferensiyalar to‘plamlarida 150 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar e’lon qilingan, shu jumladan, 20 dan ortiq o‘quv adabiyotlar, 1 ta monografiya, 2 ta patent guvohnomasi muallifi.



Abdullayeva N.M. jamiyatning faol a’zosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi Boshqaruv kengashi a’zosi, Xalq deputatlari Namangan viloyat kengashi deputati, Namangan viloyati olima ayollar uyushmasi a’zosi sifatida samarali mehnat qilgan.

Abdullayeva N.M. tashabbusi bilan uning boshchiligida yosh olimlar, magistrant va bakalavriat yo‘nalishi talabalari, akademik litsey va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchi yoshlari o‘rtasida o‘zaro ilmiy-ijodiy hamkorlik muhiti,



kelgusida ilmiy mintaqada ilmiy salohiyatli kadrlar “Oltin fondi” ni shakllantirish, o‘zaro fikr-mulohaza va tajriba almashishlari uchun

sharoit yaratish va ularni fan-texnika taraqqiyoti yo‘lida birlashtirish maqsadida “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga tadbiq etish muammolari”, “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalalari” va “Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili”, “O‘zbekistonda uchinchi renessans uyg‘onish davri boshlanayotganida yoshlarning o‘rni” mavzularida 10 ga yaqin respublika va mintaqa



miqiyosida ilmiy-texnik konferensiyalar yuqori saviyada o‘tkazilgan va konferensiya materiallari to‘plamlari hamda Namangan viloyati olimlari va iqtidorli yoshlari tomonidan yaratilgan Innovatsion ishlanmalar katalogi chop etilgan.



Namangan viloyatida mavjud ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish, uni rivojlantirish, ilmiy hajmdor mahsulotlar va xizmatlarning yangi turlarini kengaytirish maqsadida o‘nlab davlat granti asosida yosh olimlar amaliy fundamental, innovatsiya yo‘nalishida davlat granti asosidagi loyihalarni amalga oshirilishida ko‘maklashilgan va loyihalarda ishtirok etgan.



Abdullayeva N.M. o‘nlab magistratura mutaxassisligi, bakalavriatura ta’lim yo‘nalishining bitiruvchi talabalariga ilmiy rahbarlik qilgan, hozirda uning ilmiy rahbarligida ilmiy tadqiqotchilar “Innovatsion pedagogika”, “Ta’lim menejmenti” ixtisosliklari bo‘yicha doktorlik dissertatsiya ishlari ustida ilmiy izlanishlar olib borib, ilmiy tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilmoqdalar. Uning faoliyati davomida nomli davlat stipendiyalar tanlovlari, respublika tanlovi hamda musobaqalarida g‘olib yoshlar yetishib chiqqan.



Hozirgi kunda Abdullayeva N.M. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalarining ilmiy salohiyatini ko‘tarish, iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning ilmiy ijodiy ishlariga ko‘maklashish, ustoz-shogird tizimini yo‘lga qo‘yish orqali talabalarning iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish, o‘quv jarayoni sifatini oshirish va professor-o‘qituvchilar tarkibini malakasini oshirish, o‘quv adabiyotlar yaratish, ilmiy tadqiqot izlanishlariga jalb etish va xorijiy tillarni bilish darajasini ko‘tarish,

kafedraning xalqaro hamkorlik, ta’lim va amaliyot integratsiyasini rivojlantirish barkamol avlodni tarbiyalash borasida salmoqli hissa qo‘shib, faol mehnat qilib kelmoqda.



mehnat faoliyatini mamlakatimiz ta’lim, ilm-fan sohasining rivojiga, yoshlarning malakali kadr bo‘lib yetishishiga va xalqiga xizmat qilishga bag‘ishlab kelmoqda.



Abdullayeva Nilufar ishbilarmon, tashkilotchi, o‘z mustaqil fikriga ega, tashabbuskor, izlanuvchi, olima rahbar sifatida tanilgan bo‘lib, o‘zining 30 yilga yaqin serqirra



ABDULLAYEVA NARGIZA NASILLAYEVNA

Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi

- N.Abdullaeva talaba-yoshlar uchun malakali pedagog, mehribon ona, fidoyi va jonkuyar inson sifatida hamkasblari va mahalla ahli o‘rtasida hurmat qozongan.
- 2000-yil TDPU ning filologiya va tarix fakultetlarida faoliyat yuritgan.
- Hozirgi kunda “Nodirabegim-forsiy ijodi” nomli dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

Nargiza Abdullayeva Nasillayevna 1978-yilda Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Ma’lumoti tugallangan oliy. Magistr darajasiga ega. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti bakalavriatini 2000-yilda, magistraturasini 2002-yilda tugatgan. Rus tilini mukammal biladi.



Ish faoliyatini quyidagi tashkilotlarda olib borgan:

2000-2001-yillarda Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 144-o‘rta maktabi ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi;

2001-2007-yillari Toshkent shahar Shayxontoxur tumani Transport Kasb-hunar kollejining ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi;



2007-2010-yillarda Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 144-maktabi ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi;

2016-2019-yillarda Toshkent viloyati Olmaliq Kon-metallurgiya kasb-hunar kolleji ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi;

2019-2020-yillarda Toshkent viloyati Olmaliq shahar 21-maktabi o‘zbek tili o‘qituvchisi.

2020-yildan Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot va o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.



Mehnat staji -22 yil. Mazkur lavozimda 2000-yildan buyon ishlamoqda.

Abdullaeva Nargiza 1996-yil Nizomiy nomidagi TDPU ning filologiya fakultetiga o‘qishga kirgan. 2000-yilda a’lo baholarga bitirib, 2000-yil shu universitetining magistraturasiga qabul qilingan, 2002-yilda magisraturani bitirgan.

Ish faoliyatini 2000-yildan boshlagan. Dastlab 2000-yil TDPUning filalogiya va tarix fakultetlarida faoliyat yuritgan.



Shu bilan birga Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 144-maktabda, Toshkent shahar Shayxontohur tumanida, Transport kasb-hunar kollejida, keyinchalik esa Toshkent viloyati Olmaliq shahar Kon-metallurgiya kasb-hunar kollejida, Olmaliq shahar 21-umumta’lim maktabida o‘qituvchilik vazifasida ishlab kelgan. Hozirgi kunda Olmaliq shahar kasb-hunar maktabida ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelmoqda.

Abdullaeva Nargiza Nasillaevna o‘zining ish faoliyatida o‘z yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar bilan juda samimiy, doimo shogirdlar davrasida o‘z hurmat va e’tiboriga ega. Tashkiliy ishlarda ham hamisha faol ishtirok etadi, tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, o‘quvchilarni qiziqtirib tadbirlar uyushtirishda qiynalmasdan o‘quvchilarni jalb qila olish qobiliyatiga ega. Har qanday o‘quvchilarni ham o‘z atrofiga yig‘a oladi.



Ularni jalb qilib turli xildagi tanlovlar o‘tkazishda tashabbus ko‘rsatadi.

Dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, innovasiyalar yaratib, zamon talabiga asoslangan holda o‘quvchilarni fikrini jalb qilib, qiziqtirishga harakat qiladi. O‘z ustida ko‘proq ishlashga, izlanishga harakat qiladi.

N.Abdullaeva o‘zining o‘tkir salohiyati, ilm sohasidagi izlanishlari bilan hurmatga sazovor bo‘lib kelmoqda va shu bilan birga, o‘z

fanining rivojlanishiga boy ilmiy tajribasi bilan yanada qiziqishlari bilan o‘zining ulkan hissasini qo‘shib kelmoqda. U ko‘p yillik tajribaga ega ilg‘or pedagog sifatida hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda yosh avlodni barkamol voyaga yetkazish borasida samarali mehnat qilib kelmoqda.



N.Abdullaeva ta’lim bergan o‘quvchilar o‘tkazilgan fan olimpiadalarida, zakovat, tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallagan.



U o‘zining mohir pedagogligini, tashkilotchiligini, ilm-fanga jonkuyarligini va mehribon tarbiyachi ekanligini ish faoliyati davomida ko‘rsatdi.



N.Abdullaeva talaba-yoshlar uchun malakali pedagog, mehribon ona, fidoyi va jonkuyar inson sifatida hamkasblari va mahalla ahli o‘rtasida hurmat qozongan. Hozirgi kunda “Nodirabegim-forsiy ijodi” nomli dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.



ABDUVALIYEVA DILSORA NODIRJON QIZI

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Nizomiy nomidagi TDPU Matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti

- Mirzo Ulug‘bek stipendiyasi sohibasi;
- “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” g‘olibi;
- Ko‘plab xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari tashkilotchisi va ishtirokchisi.

Abduvaliyeva Dilsora 1993-yil 15-sentyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1999-2008-yillarda Yunusobod tumanidagi 260-umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qigan. Maktabni bitirib, 2008-2011-yillar Yunusobod tumanidagi TIMI qoshidagi akademik litseyning aniq fanlar yo‘nalishida o‘qigan. 2011-2015-yillar davomida Nizomiy nomidagi TDPU “Fizika-matematika” fakulteti “Matematika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishini tamomlagan. 2015-2017-yillar davomida Nizomiy nomidagi TDPU magistratura yo‘nalishida tahsil olgan. Dilsoraning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish metodikasi” mavzusidagi metodik qo‘llanmasi 2013-yil nashrdan chiqqan.



2014-yil nashr qilingan “Akademik litseylarda matematikani o‘qitishda muammoli ta’lim” mavzusidagi metodik qo‘llanmasida muammo, muammoli ta’lim, matematikani o‘qitishda muammoli ta’lim, algebra va matematik analiz asoslari, geometriya fanlarida uchraydigan muammoli mashqlar haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. 2014-yilda Ulug‘bek stipendiyasi sohibi bo‘lgan.

2018-yilda Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranturasiga o‘qishga qabul qilingan va 2020-yilda muddatidan oldin “Akademik litseylarda rivojlantiruvchi ta’lim asosida matematika o‘qitishni takomillashtirish” mavzusida PhD doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.



D.Abduvaliyeva tomonidan OAK tasarrufidagi Xalqaro miqyosidagi jurnallarda bir qator maqolalar chop ettirilgan. Jumladan, 2018-yil Germaniyadagi “Eastern European Scientific journal” da “Method of Developing Training Mathematics in Academic Lyceums” nomli,



2019-yil Buyuk Britaniyada “European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences” da The methodology of developing education in Mathematics nomli maqolalari bilan ishtirok etgan. Shuningdek, Respublikamizdagi “Uzluksiz ta’lim”, “Xalq ta’limi” “Pedagogika”, Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ilmiy axborotlari” jurnallarida bir qator maqolalari chop ettirilgan. Universitetda o‘tkazilayotgan barcha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

D.Abduvaliyeva respublika va xalqaro miqyosida o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy, ilmiy-metodik anjumanlarda o‘z maqolalari va tezislari bilan faol ishtirok etib kelyapti. Jumladan, 2018-yil Londonda o‘tkazilgan Monografiya “Science and practice: a new level of integration in the modern world” xalqaro konferensiya to‘plamida “The methodology of developmental teaching of Mathematics in academic lyceums” nomli maqolasi bilan faol ishtirok etgan.



2018-yilda “Uzluksiz ta’lim tizimida modulli o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada “Akademik litseylarda modulli ta’limni amalga oshirishning didaktik shart-sharoitlari” nomli maqolasi, 2018-yilda “Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida sifat va samaradorlikni oshirish muammo va yechimlari” respublika ilmiy-

amaliy anjumanida “Informatika fanining dolzarb muammolari” respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plamida “Matematikadan rivojlantiruvchi ta’lim tizimida bilishga oid qiziqishlarni shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish” nomli maqolasi bilan ishtirok etgan.



2018-yilda Navoiy shahrida o‘tkazilgan “Aniq fanlarni kasbga yo‘naltirib o‘qitish muammolari va yechimlari” respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasida “Akademik litseylarda an’anaviy ta’lim jarayonida matematik modellashtirishning ahamiyati” nomli maqolasi, 2019-yilda Nizomiy nomidagi TDPU o‘tkazilgan “Axborot ta’lim makonini takomillashtirishda axborot resurslari va texnologiyalari integratsiyasi” respublika



ilmiy-amaliy anjumanda “O‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishga axborot-rivojlantiruvchi yondashuv” nomli maqolasi, “Pedagogika va psixologiya taraqqiyotiga xizmat qiluvchi zamonaviy innovatsion texnologiyalar” nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyada “Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish asosida ta’lim sifatini va raqobatbardoshligini ta’minlashga doir ilg‘or yondashuvlar” nomli maqolasi bilan qatnashgan.

2019-yilda Pragada o‘tkazilgan konferentsiyada “Методы обучения в развивающим обучения на уроках математики” maqolasi chop ettirilgan.



Abduvalieva Dilsora “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” III Respublika tanlovida ishtirok etgan va g‘olib bo‘lgan.



Abduvalieva Dilsora Nodirjon qizining 40 tadan ortiq ilmiy ishlari Respublika va xorijiy jurnallarda nashr etilgan. U tomondan 1 ta darslik chop etilgan. Abduvaliyeva Dilsora Nodirjon qizi 2021-yil Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg shaharlarida, 2022-yil Samara shahrida stajirovka va malaka oshirib, sertifikatlar bilan

qaytgan. D.N.Abduvaliyeva universitet, kafedra va yuqori tashkilotlar tomonidan yuklatilgan vazifalarga mas’uliyat va javobgarlikni his qilgan holda yondashadi, ularni tashabbuskorlik va ijodiy yondashuv asosida bajaradi.



D.N.Abduvaliyeva har bir ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni yuqori ilmiy-uslubiy saviyada o‘tadi. Talabalar uning mashg‘ulotlarida katta qiziqish va faollik bilan ishtirok etadi. Shogirdlariga nisbatan xushmuomala bo‘lish bilan birga u talabalarning o‘zlashtirishi va tarbiyasiga talabchanlik bilan yondashadi. U doimo o‘z ustida ishlab, o‘zining kasbiy mahoratini oshirishga alohida e’tibor qaratadi. O‘quv yili davomida o‘quv yuklamasidagi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni yuqori saviyada, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, interfaol metodlarni qo‘llagan holda olib boradi.



ADILOV ZARIFJON HIMMATOVICH

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent arxitektura qurilish universiteti (DSc) doktoranti

- 2021-yil “Maxpirat nomidagi O‘rta Osiyo” xalqlari tarixi instituti Turon fanlar akademiyasi prezidiumining akademigi;
- Ko‘plab iqtidorli shogirdlarning ustozi;
- 5 ta o‘quv uslubiy qo‘llanma, 1 ta monografiya, 14 ta patent va 20 dan ortiq mualliflik guvohnomalariga ega hamda 100 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifidir.

Adilov Zarifjon Nimmatovich 1975-yil Samarqand viloyatida tug‘ilgan. Yoshligidan ilmga bo‘lgan muhabbati tufayli dastlab, Samarqand qishloq xo‘jalik institutida tahsil olgach, ilmiy izlanishlarni davom ettirish maqsadida, 2000-2004-yillar taqdir yo‘llari Toshkent shahriga yetakladi va o‘z ish faoliyatlarini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi o‘simlik moddalari kimyosi instituti kichik ilmiy xodimi lavozimida ish boshladi. 2005-2007-yillarda O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutining aspiranturasida tahsil oldi. 2010-yil “Insektisid faollikka ega bo‘lgan xlorat tutuvchi defoliantlar olishning kimyosi va texnologiyasi” mavzusida tayyorlangan dissertasiyasini himoya qilgan.

2016-yildan boshlab Toshkent arxitektura qurilish institutida “Interer va landshaft dizayni” kefedrasida dotsent bo‘lib, talabalarga o‘zlarining bilimlarini berishni boshladilar. 2019-yilga borib kafedra professori. 2021-yil “Maxpirat nomidagi O‘rta Osiyo” xalqlari tarixi instituti Turon fanlar akademiyasi prezidiumining akademigi. 2022-yillar Toshkent arxitektura qurilish universiteti Rayonlashtirish, Shaharsozlik, Qishloq turar joylarini rejalashtirish, Landshaft arxitekturasi, bino va ishootlar arxitekturasi yo‘nalishida DSc doktoranti.

O‘z hayotlarini yosh kadrlarga bilim berish, yurtimizning ta’lim sohasiga o‘z hissasini qo‘shish va rivojlantirishga baxshida qilib kelmoqdalar. Pedogagik faoliyati jabhasida fidokorona xizmatlari ila talabalar va universitet pedagoglari o‘rtasida hurmatga sazovor bo‘lganlar.

2019-yil 1-iyuldan boshlab qurilish jarayonining barcha ishtirokchilari (buyurtmachi, loyihalovchi, pudratchi) uchun BIM texnologiyalarini qo‘llashga bosqichma-bosqich o‘tishni nazarda tutuvchi tartibni tasdiqlangan. Ushbu farmon ijrosini ta’minlashda institut tomonidan bir guruh professor-o‘qituvchilar qatori Qozog‘iston Respublikasida BIM texnologiyalari bo‘yicha o‘quv kuslarini tugatib sertifikat olgan.

Rahbarligida magistr va bakalavr talabalari nufuzli tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqdalar:

- O.U.Abdurazzoqov 3-darajali diplom. Landshaft va intererdizayni Online Fan Olimpiadasi 2020;
- E.A.Rizaev 2-darajali diplom. Eng yaxshi landshaft dizayni.Yangi asr iste’dodlari 2018 respublika ko‘rik tanlovi;
- M.Meliyev 1-darajali diplom. Eng yaxshi landshaft va intererdizayni uchun. Yangi asr iste’dodlari 2019 respublika ko‘rik tanlovi;
- D.M.Tajibaeva 3-darajali diplom. Eng yaxshi landshaft va intererdizayni uchun. Yangi asr iste’dodlari 2019 respublika ko‘rik tanlovi;
- N.Shodiev 2-darajali diplom. Architectural Design. IX International Festival of Architectural, Civil Engineering and Design Schools of Eurasia.

Bugungi kunda arxitektura qurilish universitetining “Архитектура, қурилиш ва дизайн илмий-амалий журнали” mas’ul kotibi xamda “O‘zbekiston shaharlari lanshaft muhitini dizaynini kompleks tashkil etish tamoyillarini takomillashtirish” mavzusidagi arxitektura fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish maqsadida bir qator izlanishlar olib bormoqdalar. Arxitektura sohasini rivojlantirishga salmoqli hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabr kunidagi PF-6119-sonli Farmonining 7-bandida belgilangan: 2022-yil 1-iyulgacha shahar muhiti elementlarining maqsadi, an’anaviy arxitektura va madaniyati, shuningdek, joyning tabiiy iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy “dizayn-kod”ning ishlab chiqilishi va joriy etilishi orqali O‘zbekiston shaharlari hududlarini o‘ziga jalb etuvchi estetik ko‘rinishga ega bo‘lgan arxitektura muhiti dizaynini yaratish, kichik me’moriy qurilmalar tizimini har bir hududning an’anaviy arxitektura, madaniyati va madaniy meros elementlar asosida ishlab chiqish nazarda tutilgan.



Olim sifatida zalvorli arxitektura fani solnomasida ularning uzluksiz ta’limga oid ilmiy-arxitekturaviy pedogagik yondashuvlari xalq ta’limi modernizatsiyalash va rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyasi yuksak e’tirofga sazovor.



Ustozning chop etilgan o‘quv uslubiy ishlari soni 5 tani tashkil qiladi. 1 ta monografiya, sanoat namunasiga 14 ta patent. Mualliflik guvohnomalari soni 20 dan ortiq. Ilmiy jurnallarda 100 dan ortiq ilmiy maqolalari shulardan 3 tasi Q3 Scopus va 20 dan ortiq yuqori IF jurnallarida chop etilgan. Bir qator izlanishlardan cheklanmay qolmay pedagogik amaliyotda foydalanib kelayotgan bir qator ishlari nashrdan chiqgan. O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirishga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan. U doimo o‘z ustida ishlab, o‘zining kasbiy mahoratini oshirishga alohida e’tibor qaratadi. Hozirgi kunda ko‘plab shogirdlarning

sevimli ustozi. Ularga o‘z ilmiy va kasbiy mahoratini o‘rgatib kelmoqda.

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti “Архитектура, қурилиш ва дизайн илмий-амалий журнали” mas’ul kotibi.

Oilali, ikkita farzandning otasi.



AJABOV ABDURAZZOQ QAYUMOVICH

Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Tabiiy fanlar” kafedrasi mudiri, Qarshi davlat universiteti “Nazariy va eksperimental fizika” kafedrasi dotsenti (o‘rindoshlik asosida), Fizika-matematika fanlari nomzodi

- Faoliyati davomida 100 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. Shu jumladan: O‘quv qo’llanma, uslubiy qo’llanmalar, fanlarga oid o‘quv-uslubiy majmualar, uslubiy ko‘rsatmalar muallifi hisoblanadi.

Ajabov Abdurazzoq Qayumovich 1966-yil 1–dekabrda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, ma’lumoti oliy, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi.

1973-1983-yillarda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi 53-o‘rta ta’lim maktabida o‘qigan.

1983-yili Samarqand Davlat Universiteti fizika fakultetining 1-kursiga o’qishga qabul qilingan.

1984-1986 yillarda harbiy xizmatda bo’lgan.

1986 yili 2-kursdan o’qishni davom ettirgan.

1988 yili Toshkent Davlat Universitetiga o’tib o’qishini davom ettirgan.

1990 yili Toshkent Davlat Universitetining fizika fakultetini “Yadro fizikasi va kosmik nurlar” ixtisosligi bo’yicha tamomlagan va yo’llanma bilan Qashqadaryo viloyatidagi Kitob Xalqaro Kenglik Stansiyasiga ishga yo’naltirilgan.

1990-1992 yillar davomida Kitob Xalqaro Kenglik Stansiyasida kuzatuvchi muhandis lavozimida faoliyat yuritgan. Faoliyati davomida Xalqaro kenglik o’zgarishiga oid tadqiqotlar bilan shug’ullangan.

1992-1995 yillar davomida Samarqand Davlat Universitetida aspiranturada tahsil olgan.

1995-2001 yillar davomida SamDU Yadro fizikasi laboratoriyasi ilmiy xodimi, 2002-2004 yillar davomida SamDU Yadro-fizikasi laboratoriyasida katta ilmiy xodim bo’lib ishlagan.

2004-2013 yillar mabaynida SamDU qoshidagi “Astronomiya o‘quv-ilmiy markazi” rahbari; (SamDU Fizika fakulteti Astronomiya kafedrasi dotsenti (o‘rindoshlik asosida)) lavozimlarida faoliyat yuritgan.





Rasmlarda: SamDU qoshidagi “Astronomiya o‘quv-ilmiy markazi”ning “GRUBB-PARSONS” teleskopi va kuzatuv jarayonlaridan lavhalar, shuningdek 2007 yilda ushbu o’quv observatoriyasida: kashf etilgan 6,5 soatlik aylanish davriga ega bo’lgan yangi qo’shaloq yulduz (xalqaro katalogga kiritildi) tasviri aks ettirilgan.



2013-2016 yillar davomida SamDU Fizika fakulteti “Astronomiya” kafedrasi mudiri lavozimida ishlagan.









SamDU “Astronomiya” kafedrasida magistrlik dissertatsiyalari himoyasidan lavhalar.

2016-2019 yillar davomida SamDU “Astronomiya o‘quv-ilmiy markazi” rahbari;

SamDU Fizika fakulteti Astronomiya kafedrasi dotsenti (o‘rindoshlik asosida)) lavozimlarida faoliyat yuritgan.



O’zbekiston Respublikasi Oliy o’quv yurtlari astronom talabalarining M.Ulug’bek tavalludiga bag’ishlangan an’anaviy “Seminar-trening”gi ishtirokchilari. Samarqand shahri.

2019-2021 yillar davomida Qarshi Davlat Universiteti Fizika kafedrasi dotsenti, 2021-2022 yillar davomida Qarshi Davlat Universiteti “Nazariy va eksperimental fizika” kafedrasi mudiri lavozimida ishlagan.





Qarshi Davlat Universiteti “Nazariy va eksperimental fizika” kafedrasida “Ilmiy seminar” jarayoni va “Talabalar turar joyi”da o’tkazilgan tadbirlardan lavha.

2022 yil sentyabr oyidan to hozirgacha: Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti “Tabiiy fanlar” kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



Faoliyati davomida 100 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. Shu jumladan: O’quv qo’llanma, uslubiy qo’llanmalar, fanlarga oid o’quv-uslubiy majmualar, uslubiy ko’rsatmalar muallifi hisoblanadi.



AMANOVA NODIRA DAVLYATOVNA

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Termiz davlat universiteti doktoranti, dotsent

- 70 dan ortiq ilmiy ishlar chop ettirgan bo‘lib, shulardan: 10 tasi Rossiya, 8 ta Respublika ilmiy jurnallarida, 52 tasi esa Respublikamiz ilmiy jurnallari va xalqaro konferensiyalar materiallarida chop etilgan;
- 2021-yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan matematika, kimyo, biologiya, geologiya fanlari yo‘nalishi bo‘yicha stependiya tanlovida ishtirok etib tanlov g‘olibi bo‘lgan.

Umumiy mehnat staji 25 yil. Texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.

2020-yilda ustozlari professor X.X.Turaev hamda professor X.S.Beknazarov rahbarligida Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengashda 02.00.13-noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi, 02.00.14-organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosliklari bo‘yicha “Mahalliy xomashyolar asosida modifikasiyalangan oltingugurt olish texnologiyasini ishlab chiqish va uni oltingugurtli beton olishda qo‘llash” mavzusida doktorlik dissertasiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.



Nodira Davlyatovna so‘nggi besh yil ichida jami 70 ta ilmiy ishlar chop ettirgan bo‘lib, shulardan: 10 tasi Rossiya, 8 ta Respublika ilmiy jurnallarida, 52 tasi esa Respublikamiz ilmiy jurnallari va xalqaro konferensiyalar materiallarida chop etilgan.

N.D.Amanova universitetning kimyo laboratoriyalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash va malakali kadrlar tayyorlashda o‘zining iqtidorli va talabchan olim ekanligini yaqqol namoyon qilgan. Mustaqil Respublikamiz xalq xo‘jaligi uchun zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlashda u doimo oldingi saflarda bormoqda. Uning bevosita rahbarligida M. Ulug‘bek nomidagi Davlat stipendiati va “Yurt kelajagi” Respublika yoshlar tanlovi g‘oliblari yetishib chiqqan.

N.D.Amanovaning ish faoliyati davomida kimyo ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilariga bitiruv malakaviy ishlariga

ilmiy rahbarlik qilmoqda.



N.D.Amanova fakultetning barcha ma’naviy-ma’rifiy ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda.



U 2021-yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan matematika, kimyo, biologiya, geologiya fanlari yo‘nalishi bo‘yicha stependiali tanloviga ishtirok etib tanlov g‘olibi bo‘lgan. I.M.Gubkin nomli Rossiya davlat neft va gaz universitetiga 18.10-18.12.2021.gacha 2 oy malaka oshirib keldi. Iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini hamda aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish maqsadida respublikamizda bir qancha ishlar olib borilmoqda. Innovasion vazirligi tomonidan viloyatimizning Oltinsoy tumanini innovasion rivojlantirish borasidagi chora tadbirlarga “Neft-gaz sanoati korxonalari chiqindi oltingugurti asosida modifikasiyalangan oltingugurtli beton mahsulotlarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy loyihasi bilan ishtirok etgan. U ushbu ilmiy loyiha rahbaridir.

Dosent Amanova Nodira Davlyatovnaning 2022-yil 9-15-oktyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Moskva shahridagi N.S.Kurnakov nomidagi Rossiya fanlar akademiyasiga qarashli Umumiy va noorganik kimyo institutida “Tadqiqot natijalarini statistik hisoblash” dasturi bo‘yicha malaka oshirish

N.D.Amanova fidoiy, kamtarin inson, jonkuyar olima, Vatanimizning kelajagi bo‘lgan yoshlarimizni jahon talablariga mos yetuk kadrlar qilib tayyorlashda, ularning Vatanimizga sodiq va fidoyi farzandlar bo‘lib etishishida doimo o‘z kuchi va qudratini, bilimini, qolaversa huzur-halovatini ayamaydigan, yurtimiz shon-shuhratini, fan va ta’limini yuksaklarga ko‘tarishda, xalqimiz baxt-saodati va manfaatlari yo‘lida fidokorona mehnat qilish uchun kuch va g‘ayratga, bilim va malakaga ega bo‘lgan olijanob insondir.

U universitet jamoasi orasida hurmat qozongan, Respublikamiz va MDH davlatlari kimyogar olimlari o‘rtasida katta obro‘ga ega bo‘lgan olimadir.



ANARKULOVA GULNOZA MIRZAXMATOVNA

Pedagogika fanlari nomzodi, Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

- O‘rta maxsus kasb–hunar ta’limi a’lochisi ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan;
- 100 dan ortiq ilmiy va xalqaro konferensiyalarda ishtirok etgan;
- Darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan.

Anarkulova Gulnoza Mirzaxmatovna 1966-yili 2-iyulda Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahrida tug‘ilgan. 1973-1983-yillarda Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahar 15-maktabda tahsil olib, u yerni oltin medal bilan tugatgan.

1983-1988-yillarda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash injenerlar institutining “Kasb ta’limi” yo‘nalishida tahsil olib, u yerni ham qizil diplom bilan tugatgan.

Mehnat faoliyatini 1988-yilda Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanidagi 14- hunar texnika bilim yurtida maxsus fan o‘qituvchisi sifatida boshlagan. 1989-yilda O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutiga kunduzgi aspiranturaga o‘qishga kirdi. Aspiranturada qishloq xo‘jaligi bilim yurtlarida kasblarga tayyorlash muammosi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishi olib bordi. 1992-yilda aspiranturani tamomlab O‘rta Osiyoda “Ishlab chiqarish pedagogikasi” ilmiy tadqiqot institutiga ilmiy xodim bo‘lib ish faoliyatini boshladi.



Ilmiy tadqiqot institutidagi faoliyati davomida respublika o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida ta’lim jarayonini tashkil etish o‘quv me’yoriy hujjatlari davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va

dasturlar yaratish ustida ishladi.



2003-yilda “Научно-методические основи подготовки младших спесиалистов для селского хозяйства” (на примере подготовки фермеров-растениеводов) 13.00.08.-Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha. nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.



2004-yildan 2010-yilgacha O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida ilmiy kotib, “Amaliy kasbiy ta’lim” kafedrasi mudiri lavozimlarida faoliyat olib bordi. 2004-yili 30.11.-5.12. davrida O‘zbekiston Respublikasi nomidan Germaniya davlatida tashkil etilgan “O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida ayollar” mavzusida tashkil etilgan Islom dialogi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi.

2006-yilda Oliy Attestatsiya komissiyasining “Dotsent” lik diplomini oldi. 2008-yilda o‘rta maxsus kasb–hunar ta’limi a’lochisi ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. 2010-yildan Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutida “Pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi” kafedrasida dotsent lavozimida faoliyatini davom etdi. 2016-yildan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida “Kasb ta’limi metodikasi” kafedrasida kafedra mudiri lavozimida faoliyat olib bordi.



2019-yil sentyabr oyidan universitetda 2 ta kafedra birlashganligi tufayli kafedra nomi “Texnologik ta’lim” deb o‘zgartirildi ,kafedra dotsenti lavozimiga o‘tdi. 2021-yildan Professional ta’lim metodikasi kafedrasi tashkil etilda shu vaqtdan e’tiboran kafedra dotsenti lavozimida faoliyat olib bormoqda.

O‘z ilmiy pedagogik faoliyati davomida 60 dan ortiq talabalarning diplom ishlariga rahbarlik qildi. 10 nafar magistrlarga ilmiy rahbarlik qildi va hozir ham rahbarlik qilmoqda. Bir necha doktorantlarga maslahatchi bo‘ldi.. 60 dan ortiq ilmiy maqolalar respublika va xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop ettirgan, 100 dan ortiq respublika va xalqaro konferensiyalarda maqolar va tezislar bilan qatnashgan.



Butun ilmiy faoliyati davomida 4 marta respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalar tashkil etgan. Nizomiy

nomidagi TDPU dani faoliyati davomida 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamining mas’ul muharri bo‘lgan. 1 ta darslik, 10 dan ortiq o‘quv qo‘llanmalar muallifi bo‘lgan. 1 ta skopus jurnalida 5 ta yuqori impakt faktorli xorijiy jurnalda, maqolalari chop etilgan.



ARIPOVA NASIBA ATXAMOVNA

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti

- 5 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta uslubiy qo‘llanma, 2 ta uslubiy ko‘rsatmalar, 150 ga yaqin ilmiy maqolalar muallifi;
- Hozirgi kunda mustaqil izlanuvchi (PhD) N.A.Aripova “Kredit-modul tizimida talabalarni mustaqil ta’lim olish faoliyatiga tayyorlash” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi ustida ishlab kelmoqda;
- “Pedagogika”, “Kasbiy psixologiya”, “Valeologiya”, “Kasbiy ta’lim metodikasi” fanlaridan o‘quv-uslubiy majmualar yaratgan.

Aripova Nasiba Atxamovna, 1976 yil 30 dekabrda tug‘ilgan, o‘zbek. 1998 yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiyasi” fakultetini (kunduzgi) bitirgan, tarbiyachi-metodist, pedagogika va psixologiya o‘qituvchisi, qo‘shimcha chet tili o‘qituvchisi mutaxassisligini egalladi. 1998-2001yy.- Toshkent arxitektura qurilish instituti «Falsafa va sotsialogiya» kafedrasi assistenti lavozimida mehnat faoliyatini boshlagan. 2001-2008 yy.- Toshkent arxitektura qurilish instituti “Falsafiy va ijtimoiy – siyosiy fanlar» kafedrasi katta o‘qituvchisi, o‘rindoshlik asosida “Muhandislik qurilishi infrastrukturasi” fakul’teti ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan muovini lavozimida ishlagan. 2009-2015 yy. – Toshkent arxitektura qurilish instituti «Kasbiy pedagogika» kafedrasi katta o‘qituvchisi, o‘rindoshlik asosida “Bino va inshootlar qurilishi“ fakul’teti ma’naviy ma’rifiy ishlar bo’yicha dekan muovini lavozimida ishlagan. 2015-2018yy.- Toshkent arxitektura qurilish instituti “Qurilish texnologiyasi va tashkiliyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi, 2018-2020 yy.- Toshkent arxitektura qurilish instituti “Jismoniy tarbiya va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, institut “Murabbiylar kengashi” raisi, jamoatchilik asosida BIQF xotin-qizlar kengashi raisi lavozimida faoliyat yuritgan. 2020 yil 1- dekabrdan - Toshkent arxitektura qurilish instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi lavozimiga o‘tkazilgani. Umumiy ish staji: 25 yil, shundan ilmiy pedagogik ish staji 25 yil bo‘lib, shu jumladan mazkur liy ta’lim muassasasidagi pedagogik ish staji 25 yil, hozirda Toshkent arxitektura qurilish universitetida “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

N.A.Aripova universitetda pedagogik faoliyatida talabalarga “Kasbiy psixologiya”,

“Boshqaruv psixologiyasi”,“Pedagogika. Psixologiya”, “Kasbiy ta’lim metodikasi”, “Tarbiyaviy ish metodikasi”, “Jismoniy tarbiya (Valeologiya)” fanlaridan mashg‘ulotlar o‘tib kelmoqda. U mashg‘ulotlarda zamonaviy pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan, multimediya ta’lim resurslaridan unumli foydalanadi. N.Aripova ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni yuqori ilmiy metodik saviyada olib boradi, jumladan, o‘zi o‘tadigan mashg‘ulotlarda pedagogik texnologiyalar va interfaol uslublardan:“Zinama-zina”,”Charxpalak”, “Bumerang”, “Rezyume”, “Labirint”, ”FSMU”, ”KBI (kuzatish ,baxslashish, ishontirish), “Skarabey”, “Yelpig‘ich”, “Keysstadi”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Blits-so‘rov”, “Munosabat”, “AJIL”, “SCORE” kabi turli xil interfaol o‘qitish usullaridan keng foydalanadi. U mashg‘ulotlarni kerakli tarzda jihozlangan auditoriyalarda multimediya ta’lim resurslaridan keng va unumli foydalangan holda elektron prezentatsiyalar shaklida olib bormoqda.



N.A.Aripova har yillik namunaviy, ishchi fan dasturlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etib kelmoqda. N.A.Aripova tomonidan “Pedagogika”, “Kasbiy psixologiya”, “Valeologiya”, “Kasbiy ta’lim metodikasi” fanlaridan o‘quv-uslubiy majmualar yaratilgan. Talabalar bilimini test va reyting sinovlari asosida o‘qitish va baholashni o‘quv jarayonida qo‘llashda faol qatnashadi va ayni paytda kafedra dotsenti sifatida faoliyat olib borib, o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy ishlarni takomillashtirishga yordam berib kelmoqda.



Universitetda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, Respublikani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ma’ruzalar, taqdimotlar qilib keladi.



U Toshkent arxitektura-qurilish instituti “Bino va inshootlar qurilishi”, “Qurilishni boshqarish”, “Muhandislik qurilishi infrastrukturasi” fakul’tetlarida ko‘p yillar davomida ma’naviy - ma’rifiy, ahloqiy ishlar bo‘yicha dekan muovini, fakul’tet murabbiylar kengashi raisi, fakul’tet xotin-qizlar kengashi raisi, institut Murabbiylar kengashi raisi lavozimida faoliyat yuritgan.



Universitet dotsenti sifatida fakul’tet va kafedraning ma’naviy–ma’rifiy tadbirlarida, o‘quv-tarbiyaviy ishlariga bevosita rahbarlik qilib, faol qatnashib kelmoqda. U Respublika miqyosida o‘tkazilgan targ‘ibot – tashviqot ishlarida, respublika OAV larida chiqishlari

bilan, shuningdek, universitet va fakul’tetda o‘tkazilgan tadbirlarda muntazam ishtirok etmoqda. Fakul’tetda o‘tkazib boriladigan “Mustaqillik darslari”da Mustaqillik yillarida qo‘lga kiritilgan yutuqlar hamda taraqqiyot istiqbollari, bunyod etilgan inshootlar, barqaror tinchlik va iqtisodiy o‘sishning chet el xalqaro tashkilotlari tomonidan e’tirof etilishi bilan talabalarni tanishtirib boradi.



Shuningdek, “Bino va inshootlar qurilishi” fakul’teti Ilmiy Kengashida tasdiqlangan “Guruh murabbiylarining ma’naviy va ma’rifiy ishlari rejasi” asosidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol qatnashgan. U akademik guruhlarga yillar davomida murabbiylik qilib keldi. Muloqot darslarida talabalarni ta’lim-tarbiya va ma’naviy va ma’rifiy sohaga oid qonun hujjatlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlarining, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining mazmuni bilan tanishtirib va ularni Vatanimiz ravnaqi uchun ahamiyatini yoritib bordi.



U o‘z faoliyati davomida har o‘quv yilida akademik guruhlarga murabbiylik qilib keladi. Talabalar bilan muntazam ravishda talabalar turar joylarida, ijarada yashovchi talabalar bilan ishlashda ma’naviy - ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazib, shaxsiy muloqotlarda faol qatnashadi va ularning o‘quv-tarbiyaviy ishlariga e’tibor beradi. O‘zi murabbiylik qilayotgan guruh talabalarini muzey, teatr, kino va xalqaro ko‘rgazmalarga reja asosida muntazam ekskursiyalarga olib bordi.



U talabalar bilan turli tadbirlar uyushtirish, ularni institutda o‘tkaziladigan jamoat ishlariga qiziqtirib borish, kasbga yo‘naltirish, sport musobaqalarida faol qatnashtirish, talabalarning ma’naviy qiyofasini yuksaltirish bo‘yicha doimo ish olib boradi.



N.A.Aripova Kasbiy ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan qator talabalarga bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilgan.



Dotsent N.A.Aripova 2020 yil 1 yanvardan boshlab Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti bilan № U-180/20170923121 raqamli loyiha asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish yuzasidan “Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish uchun vaqtincha mehnat jamoasida kichik ilmiy xodim sifatida ishtirok etib kelmoqda. Shunigdek, 2010 yilda Tumanda milliy istiqlol g‘oya targ‘iboti va ma’naviy - ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va “Barkamol ishlar samaradorligini oshirish va “BARKAMOL AVLOD YILI” DAVLAT DASTURIning ijrosini ta’minlashda hamda tumanni ma’naviy - ma’rifiy rivojlanishida qo‘shgan hissasi uchun Shayxontoxur tuman hokimi tomonidan Diplom bilan taqdirlandi. 2014 yil Toshkent arxitektura-qurilish instituti “Eng faol ma’naviyat targ‘ibotchisi” tanlovi g‘olibi, ma’naviy, axloqiy, tarbiyaviy ishlardagi faolligi, yoshlarimizning komil inson qilib tarbiyalashdagi samarali mehnatlari uchun institut rektorining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan. 2016 yil Toshkent arxitektura qurilish instituti “Tarbiya reytingi bo‘yicha faxrli 2-o‘rinni egallagan eng faol guruh va guruh murabbiysi maqtov yorlig‘i bilan taqdirlangan.



2017 yil O‘zbekiston “ADOLAT” sotsial – demokratik partiyasi Kengashi raisi tomonidan tashakkurnoma, 2017 yil “Institut ravnaqi yo‘lidagi ezgu ishlari, jamoadagi faolligi” uchun Toshkent arxitektura-qurilish instituti rektorining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan. 2018 yil “Eng yaxshi guruh murabbiyi” nominatsiyasi bo‘yicha Toshkent arxitektura-qurilish instituti rektorining “INSTITUT FAXRI” belgisi bilan mukofotlangan.



2018 yil “Institut ravnaqi yo‘lidagi ezgu ishlari, jamoadagi faolligi hamda Navro‘z bayrami munosabati bilan institut rektorining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan. 2019 yil Toshkent arxitektura-qurilish instituti tomonidan “Institut xotin – qizlar o‘rtasida sportning “SHASHKA” turi bo‘yicha musobaqada Faxrli I o‘rinni egallagani uchun “Faxriy yorliq” bilan taqdirlangan. 2020 yil “Institut ravnaqi yo‘lidagi ezgu ishlari, jamoadagi faolligi” uchun institut rektorining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan.



2021 yil “Institut ravnaqi yo‘lidagi ezgu ishlari, iqtidorli talabalarni tayyorlash va ularning yuqori marralarga erishishdagi xizmatlari uchun” Toshkent arxitektura-qurilish instituti rektorining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan, jumladan, uning rahbarligida Kasbiy ta’lim bo‘yicha Talabalar Respublika fan olimpiadasida Nurinbekova Yulduz G‘ayratbek qizi olimpiada g‘olibi bo‘lib, Oliy

va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining II-darajali diplomi bilan taqdirlandi. Kasbiy ta’lim bo‘yicha Talabalar Respublika fan olimpiadasida Tulbayev Baxtiyor Bozorovich olimpiada g‘olibi bo‘lib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining III-darajali diplomi bilan taqdirlandi. Respublika fan olimpiadasida Nasreddinov Ulug‘bek Tursunqulovich olimpiada g‘olibi bo‘lib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining III - darajali diplomi bilan taqdirlandi. Uning rahbarligida shuningdek, institut miqyosida "Psixologiya" fani bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovda Turdiyeva Shaxnoza Olimjon qizi faxrli II- o‘rinni egallagan va institut rektori faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan “Kasbiy ta’lim uslubiyoti” fani bo‘yicha o‘tkazilgan talabalar Respublika fan olimpiadasining institut bosqichida Abdullayeva Marjona Abdusattor qizi faxrli II-o‘rinni egallagan va institut rektori faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan. Shuningdek, 2017 yilda Qozoqiston davlatida bo‘lib o‘tgan Jahon chempionati sport musobaqasida faxrli I-o‘rinni egallab, oltin medalni qo‘lga kiritgan Saidaxmedov Saidmuxtor Saidvaliyevichga maslahatchi psixolog sifatida trening mashg‘ulotlarini olib borgan.



N.Aripova oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimidagi attestatsiya jarayonida faol ishtirok etib kelmoqda: Toshkent arxitektura qurilish instituti dotsent M.Yu.Mahkamova tomonidan tayyorlangan “Pedagogika” fanidan yozilgan darslikka taqriz, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti pedagogika universiteti dotsent N.S.Fayzullayevaning tomonidan tayyorlangan 5A111001 - bo‘yicha magistratura mutaxassisligi uchun “Ta’lim va uni o‘rganish nazariyasi”,“Ta’lim iqtisodiyoti”,“Ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish va baholash nazariyalari va metodlari” o‘quv dasturiga muntazam taqrizchi sifatida ishtirok etadi.

Chop etilgan ilmiy-uslubiy ishlari soni – 150 ga yaqin bo‘lib, shundan 5 tasi darslik, 1 tasi o‘quv qo‘llanma, 1 ta uslubiy qo‘llanma, 2 ta uslubiy metodik ko‘rsatma, skopus jurnallarida, impakfaktor jurnallarida, OAK jurnallarida, xalqaro jurnallarda, respublika miqyosidagi jurnallardagi maqolalardir.



Hozirgi kunda mustaqil izlanuvchi (PhD) N.A.Aripova “Kredit-modul tizimida talabalarni mustaqil ta’lim olish faoliyatiga tayyorlash” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi ustida ishlab kelmoqda.

N.A.Aripova 1998 yildan buyon oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonini tashkillashtirish hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarni yaratishda faol qatnashib, mukammal o‘zlashtirgan.



Kafedra dotsenti sifatida o‘zining pedagogik faoliyatini to‘xtovsiz davom ettirib kelmoqda: dars jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritish va o‘quv

jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, bakalavriat bosqichlari iqtidorli talabalari va yosh izlanuvchilarni oliy ta’lim muassasasida amalga oshirilayotgan fundamental, amaliy, innovatsion loyihalar doirasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilishga alohida e’tibor bermoqda.



U har o‘quv yilida ochiq darslarni tashkil etib keladi. Ochiq ma’ruzalarga ekspertlar tomonidan ijobiy baho berilgan.



Oliy ta’lim tizimida ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro innovatsion hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash va yanada takomillashtirish borasida institutning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarining va potensial ish beruvchilar bilan (sanoatning tegishli sohalariga yosh yuqori malakali kadrlar yetishtirib berish) o‘zaro hamkorligiga alohida yordam berib kelmoqda hamda ushbu sohani yanada takomillashtirishda tinimsiz izlanishlar olib bormoqda.

N.A.Aripova tashabbuskor, o‘z xizmat vazifasiga nisbatan ma’suliyatli, xodimlarga va talabalarga nisbatan talabchan, mohir pedagog, hamda yaxshi mutaxassis hisoblanadi. Jamoat ishlarining barcha turlarida faol ishtirok etadi, o‘ziga topshirilgan har bir ishga jiddiy mas’uliyat va tashabbuskorlik bilan yondoshadi. Jamoada va talabalar o‘rtasida hurmatga sazovor olim-pedagog.



N.A.Aripova pedagogik faoliyatida muntazam ravishda o‘zining pedagogik mahoratini oshirib borgan.

2001 yil 2 maydan 30 maygacha TAQI Malaka oshirish fakultetida 136 soatli “Falsafa va sotsiologiya” kursi bo‘yicha malakasini oshirgan.

2001 yil 24 dekabrdan 24 yanvargacha Oliy va o‘rta maxsus maktab muammolari institutida 144 soatli “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning interaktiv usullari” kursi bo‘yicha malakasini oshirgan.

2007 yil 9 apreldan 11 maygacha TDTU qoshidagi Oliy injenerlik pedagogika institutida 144 soatli “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” kursi bo‘yicha malakasini oshirgan.

2008 yil 10 martdan 15 martgacha Oliy va o‘rta maxsus, kasb – hunar ta’limini rivojlantirish Markazida 36 soatli “Oliy ta’limni tashkil etishning dolzarb masalalari” kursi bo‘yicha malakasini oshirgan.

2010 yil Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan tashkil etilgan “Dunyoning mafkuraviy manzarasi-2010” mavzusidagi 26 soatlik elektron o‘quv kursini bitirgan.

2011 yil Toshkent Axborot texnologiyalari universitetida 144 soatli

“Axborot texnologiyalari” kursi bo‘yicha malakasini oshirgan.

2013 yil 28 oktabrdan 01 noyabrgacha Respublika Shoshilinch Tibbiy Yordam O‘quv Markazida Amerika Xalqaro Sog‘liqni Saqlash uyushmasi va Richmond shaxri (AQSH, Virdjiniya) shoshilinch yordam xizmati Shaxar Boshqarmasi ko‘magida tashkil etilgan “Shoshilinch holatlarda yordam ko‘rsatish” 30 soatli maxsus o‘quv kursini bitirdi.

2014 yil 1 apreldan 28 aprelgacha O‘ZMU huzuridagi Mintaqaviy markazida 144 soatli “Gumanitar va ijtimoiy – iqtisodiy fanlar” kursi bo‘yicha malakasini oshirgan.

2015 yil 2 fevraldan 23 maygacha Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi PKQT va ularning MO TM da 576 soatli “Pedagogik” kursi bo‘yicha malakasini oshirgan.

2018 yil 5 sentyabrdan 30 oktabrgacha Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi PKQT va ularning MO TM da 288 soatli “Pedagogika va psixologiya” kursi bo‘yicha malakasini oshirgan.



2021 yil 4 noyabrdan 28 dekabrgacha Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi PKQT va ularning MO TM da 288 soatli “Pedagogika va psixologiya” kursi bo‘yicha malakasini oshirgan.

2023 yil Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlari uchun tashkil etilgan “Kredit –modul tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish”, “Yoshlarning odam savdosi va majburiy mehnat bilan bog‘liq jinoyatlarini oldini olish”,”English (Beginner), “Raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot” masofaviy kursini to‘liq o‘zlashtirdi.

Yosh ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlashda o‘zining ilmiy maktabini shakllantirayotgan salohiyatli olimlardan biri hisoblanadi. U o‘z zimmasiga yuklatilgan har bir topshiriqni vijdonan yondoshgan holda o‘z vaqtida to‘laqonli bajaradi. 2017 yildan beri kafedrada iqtidorli talabalarga mo‘ljallangan “Pedagogik mahorat” to‘garak ishlariga rahbarlik qilib kelmoqda.



N.A.Aripova Toshkent arxitektura qurilish institutida, xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan professor-o‘qituvchilarning ilmiy-amaliy va ishlab chiqarish anjumanlarida, hamda oliy ta’lim muassasalararo ilmiy-texnika anjumanlarida muntazam ishtirok etib kelmoqda. Ilmiy-uslubiy ishlari natijalarini o‘quv jarayonida va amaliyotda samarali qo‘llab kelmoqda. Shuning uchun u respublika va xalqaro ilmiy maqolalari uchun diplom va sertifikatlar bilan taqdirlangan, jumladan: 2023 yil International scientific journal of “Science and Innovation”, 2019 yil “Qurilishda innovatsion texnologiyalar” Respublika ilmiy-texnik anjumanda ishtiroki uchun; 2019 yil “Tendensii i perspektivi razvitiya nauki i obrazovaniya v usloviyax globalizatsii» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etgani uchun; 2018 yil “The role of art and art education in spiritual

modernization of contemporary society” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada faol ishtirok uchun; 2018 yil “Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan: nauka, obrazovaniya i vospitaniya molodyoji” ilmiy-amaliy seminarda ishtiroki uchun; 2018 yilda “KNAUF” o‘quv markazida KNAUF texnologiyalarini o‘rganganligi uchun; 2015 yilda O‘zbekistondagi Xalqaro Universitetlar Nemis Assotsiatsiyasi filialida “Interaktivnie metodi obucheniya” seminar - treningida ishtirok etganligi uchun; 2010 yilda “Oliy o‘quv yurtida ta’lim texnologiyasini loyihalashtirish, rejalashtirish va uni amalga oshirish” mavzusidagi o‘quv seminarida muvaffaqqiyatli ishtiroki uchun; 2008 yilda “Milliy g‘oya ta’limi va targ‘ibotning yangi texnologiyalari” mavzusidagi seminar – treningni to‘la o‘zlashtirgani uchun sertifikat va guvoxnomalar bilan taqdirlangan.

N.A.Aripova o‘z ustida tinimsiz ishlaydi, mehnatsevar, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi, jonkuyar ustoz, mohir pedagog, shu bilan birga o‘ziga nisbatan o‘ta talabchan, kasbdoshlari va talabalar orasida e’tibor qozongan. U tajribali tashkilotchi, malakali pedagog, o‘z faoliyati davomida ilmiy-pedagogik salohiyati va tajribasini yosh avlodga ilm berish va ularni tarbiyalashga bag‘ishlab kelmoqda.



ESHPULATOVA ZAYNAB BARATOVNA

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsent v.b.

- 60 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan.
- Yakka mualiflikda bir qancha o‘quv qo‘llanma chop ettirgan.
- “Innovatsion targ‘ibotchi” esdalik ko‘krak nishoni sohibasi.

Eshpulatova Zaynab Baratovna 1982 yil 21 iyunda Samarqand shahrida tug‘ilgan. 1988-1997 yillari-30 umumta`lim maktabi, 1997-2000 yillari Samarqand oziq-ovqat texnikumi «Buxgalteriya hisobi va audit» mutaxassisligi bo`yicha tahsil olgan. 2001-2013 yillarda Samarqand tibbiyot institutida buxgalter lavozimida buxgalteriya sohasida o`z ish faoliyatini yuritgan. 2013-2017 yillari Samarqand iqtisodiyot va servis institutining «Buxgalteriya hisobi va audit» (tarmoqlar va sohalar) mutaxassisligi bo`yicha bakalavriat bosqichi va 2017-2019 yili magistratura bosqichida tahsil olgan.



2019-2020 yillari RedBridgShcool Britaniya maktabida o`qituvchi lavozimida ishlagan. 2020 yil 3 sentyabrdan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasida assistent lavozimida ish faoliyatini boshlagan. Bugungi kunda «Buxgalteriya hisobi» kafedarsida dotsent v.b., PhD lavozimida ishlab kelmoqda. Har doim institutda tahsil olayotgan talabalar bilan yaxshi munosabatda b o`lib, zamon talab etadigan kadrlarni tayerlashda o`z bilim va k

o`nikmalarni ayamasdan ishlab kelayotgan yosh kadrlardan biri.

2020-2022 yillari «Korxonalarda daromadlar hisobini takomillashtirish» mavzusida Samarqand iqtisodiyot va servis institutining mustaqil tadqiqodchisi sifatida ilmiy ishini olib borgan. U 2022 iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Eshpulatova Zaynab Baratovna ilmiy-tadqiqot faoliyati serhosil bo‘lib, Xalqaro va Respublika jurnal va konferensiya to‘plamlarida 60 dan ziyod ilmiy maqolalari "Особенности бухгалтерского учета в других отраслях" nomli o'quv-qullanma ustoz dotsent D.R.Rafeev bilan hammualiflikda , "Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari" nomli monografiya ustoz professor., i.f.d T.S.Tashnazarov bilan hammualiflikda, "Biznesda buxgalter (1-qism)", "Biznesda buxgalter (2-qism)" nomli o‘quv qo‘llanmani yakkamualiflikda, “Бухгалтерский управленческий учет и его практическое применение” nomli Kazanь Federal universitetining “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” kafedra i.f.n.dotsent Vetoshkina Ye.Yu bilan xamkorlikda o‘quv qo‘llanmalarni, "Korxonalarda daromadlar hisobi va Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari" nomli monografiyani yakkamualiflikda chop ettirgan. Bundan tashqari "Daromadlar va foyda-moliyaviy hisobot elementi" va "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar hisobi va xalqaro tajriba" mavzulrda ilmiy tadqiqod ishlari bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar, "Бухгалтерский учет в сфере услуг" nomli, "Xizmat ko'rsatish va servis sohasida buxgalteriya hisobi" nomli va Tambov qo'shma dastur asosida tahsil olayotgan bakalavriayt talabalari uchun "Бухгалтерский учет" nomli masalalar to'plamlarini russ va o'zbek tilida ko'plab uslubiy ishlarni chop ettirishga muvoffaq bo'lgan.




INSTITUTE OF

PROFESSIONAL FINANCIAL MANAGERS

DIPLOMA

In accordance with the regulations of the Institute of Professional Financial Managers

THE DIPLOMA IN FUNDAMENTALS OF THE IFRS

is awarded to

ZAYNAB ESHPULATOVA

26 November 2021

David Back
President
BIAS114918

The Institute of Professional Financial Managers is a Company Registered in England, Company Number 05763364



Z.B.Eshpulatova 26.11.2021 y Velikobritaniya mamlakati Angliyadagi Institute of Professional Financial Managers tomonidan

“THE DIPLOMA IN FUNDAMENTALS OF THE IFRS” diplomi sohibi.

2023 yili 27 martda “Globallashuv davridagi muammolar va ularga innovatsion yechimlar” nomli ko‘p tarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi “Innovatsion targ‘ibotchi” xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik tanloviga taqdim etgan ilmiy ishlari ilmiy kengash tomonidan ko‘rib chiqilib, bir ovozdan ma’qullandi. Tanlovda Z.B.Eshpulatova



“Innovatsion targ‘ibotchi” esdalik ko‘krak nishoni, ID raqamli guvohnomasi, sertifikat, diplom hamda maqolalar jamlangan to‘plam (elektron holatda) tantanali ravishda taqdim etildi.

Z.B.Eshpulatova ko'plab man'aviy tadbirlarda o'z hissasini ko'shib kelmoqda.



Z.B.Eshpulatova bugungi kunda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Buxgalteriya hisobi» kafedrasi dotsent v.b., PhD lavozimida ishlab kelmoqda va buxgalteriya sohasiga doir xalqaro tajribalarni o‘rganib, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga



o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, ilmiy faoliyati davomida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida milliy hisob tizimini metodologiyasini takomillash-tirish masalalarida tadqiqod ishlarini davom



ettirmoqda. Oilali, ikki nafar fanzandlarning mehribon onasi.



GAIPOVA SHAXNOZAXON SAIDAZIM QIZI

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Oziq-ovqat mahsulotlari kafedrasi katta o‘qituvchisi

- 1 ta uslubiy qo‘llanma, 20 dan ziyod mahalliy va xorijiy jurnallarida maqola va 30 dan ziyod Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida o‘zining tezislarini nashr qildirgan;
- “Delightful Istanbul 2022 – Food Technology, Cereal and Vegetable Oil Applications” kursida sertifikatga ega;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining stipendiyasi sohibasi.

Gaipova Shaxnozaxon Saidazim qizi 199-yil 6-martda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1999-2007 yillari 63- sonli umumta’lim maktabi, 2007-2011 yillar –P.F.Borovskiy nomli tibbiyot kollejida, 2013-2017 yillar – Toshkent kimyo-texnologiya institutining Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi mutaxasisligi bo‘yicha bakalavriat bosqichi va 2017-2019 yillar Oziq-ovqat xavfsizligi mutaxasisligi bo‘yicha magistratura bosqichida tahsil olgan.



Sh.S.Gaipova ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi ortgani sabab va bor bilim hamda malakalari asosida 2020-yil Toshkent kimyo-texnologiya institutiga 02.00.17 – “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari” ixtissosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga qabul qilingan va ilmiy faoliyatga birinchi qadamni bosgan.



Doktorant sifatida u o‘z ilmiy faoliyati va bilimga chanqoqligi sabab chuqur izlanishlar olib borgan va olgan bilim va ko‘nikmalari asosida 2022-yil doktorantlar orasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining stipendiyasi sohibasiga aylangan. U 2022-

yilning 23-dekabr sanasida Toshkent kimyo-texnologiya institute huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashda ““Funksional qo’shimchalar bilan boyitilgan parhezli mayonez retsepturasini ishlab chiqish”” mavzusigi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishini muvofaqqiyatli himoya qilib iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining tegishli qarori asosida ilmiy darajaga erishgan.

2021- yildan beri Toshkent kimyo-texnologiya insituti, “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



Gaipova Shaxnozaxon Saidazim qizi oziq-ovqat sohasining pedogagik va ilmiy tadqiqot jabhalarida faoliyat yuritib kelmoqda.



Sh.S.Gaipovaning ilmiy tadqiqot faoliyati serhosil bo‘lib bugungi kunga qadar 2 ta patent, 5 ta uslubiy qo‘llanma, 1 ta monografiya, 20 dan ziyod mahalliy va xorijiy jurnallarida maqola va 30 dan ziyod Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida o‘zining tezislarini nashr qildirgan. Sh.Gaipova Xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarning faol ishtirokchisidir. Bundan tashqari Sh.Gaipova tashkiliy ishlarni ham muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda.

Sh.S.Gaipova 2022-yilning 23 iyul- 6 avgust mobaynida Turkiyaning “Aydin” universitetida «Delightful Istanbul 2022 – Food Technology, Cereal and Vegetable Oil Applications» kursida malaka oshirib, sertifikat bilan taqdirlanib kelgan. 2022-yil 25 oktabrdan 3 noyabrgacha “Moskva davlat oziq-ovqat mahsulotlari universiteti” da “Методы и средства работы с цифровыми образовательными ресурсами” qo‘shimcha malakaviy dastur bo‘yicha o‘quv kurslarini 2021 yil Innovatsion rivojlanish Vazirligi tomonidan Yosh olimlar uchun tashkilashtirilgan “English for Science” kursini muvaffaqiyatli tugatgan.



Sh.S.Gaipova 2021-yilning mart oyida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashabbusi bilan Jahon Bankining “O‘zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish” (MUNIS) loyihasining moliyaviy ko‘magi doirasida respublikamizning tadqiqotchi olimlari uchun bepul “English for Science” o‘quv dasturining 3-mavsum tanlovining na’munali bitiruvchisi bo‘lgan.

Sh.S.Gaipova Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi yoshlar akademiyasi a’zosi.

Sh.S.Gaipova 2023-yilning may oyida Jahon Bankining MUNIS loyihasi ko‘magi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilgan “International approaches

and best practices of using data in scientific research” dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan va maxsus sertifikat bilan taqdirlangan.



2023-yilning 1 iyul- 15 iyul sanalari mobaynida Turkiyaning “Yildiz Technical University” da «Advances of Food Science and Technology» kursida malaka oshirib, sertifikat bilan taqdirlanib kelgan.

Sh.S. Gaipova bir necha ommaviy axborot vositalari va jurnallarda yoshlarda ilmga bo’lgan qiziqishni kuchaytirish maqsadida o‘zining ilmiy faoliyatiga doir shuningdek nomzod stipendiyalarga erishish yo‘llari mavzusida ma’ruzalar qilib kelmoqda.

Bugungi kunda Sh.S.Gaipova xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan aloqa o‘rnatishda faol qatnashib kelmoqda.



DALIMOVA GO‘ZAL ABDURASHIDOVNA

Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

- “Yosh olima ayollar” tanlovida “Bepushtlikning profilaktikasi uchun o‘smirlarda balog‘atga yetishishni buzilishini erta tashxislash texnologiyasini ishlab chiqish” ilmiy loyihasi bilan qatnashib g‘olib bo‘lgan;
- 2016-yili Avstriya davlati Zalsburg shahrida “Qanli diabet” kasalligiga bag‘ishlangan seminarda qatnashgan;
- Bitta mongrafiyasi, 2 ta metodik qo‘lanmasi va 30 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan.

Dalimova Go‘zal Abdurashitovna 1986-yil 2- iyun kuni Toshkent viloyati Chirchiq shahrida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. Onasi Dalimova Barno Jalilxo‘jayevna , otasi Dalimov Abdurashit Dexkanboyevich. Dalimova Go‘zal 1993-2003-yillarda Qibray tumaninng 16-umumta’lim maktabini imtiyozli yakunlab, 2003-yilda Chirchiq shahri tibbiyot kasb-hunar kollejiga o‘qishga kirgan. Kollejni imtiyozli tamomlagan. 2005-2012-yillarda Toshkent pediatriya tibbiyot institutida tahsil olgan.



2012-yildan 2014-yilgancha Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiy endokrinologiya markazida ordinaturada tahsil olgan.



2014-2018-yillarda O‘z.Res. Toshkent viloyati IIB tibbiyot boshkarmasining poliklinikasida yetakchi endokrinolog lavozimida ishlagan va ish davomida sidqidildan o‘z burchini barjarganli sababli IIB tomonidan bir necha bor faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.



2017-2018-yillarda O‘zb.Res IIV markaziy shifoxonada endokrinolog lavomida ishlagan. 2018-yilda akad. Yo.X. Turakkulov



nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiy endokrinologiya markaziga tayanch doktoranturaga o‘qishga kirgan va 2020-yil muddatidan ilgari nomzodlik dissertatsiyasini (PhD) yoqlagan. 2021-2022-yillarda ilmiy loyiha rahbari.

Dalimova Go‘zal 2016-yili Avstriya davlati Zalsburg shahrida “Qanli diabet“ kasalligiga bag‘ishlangan seminarda qatnashgan. 2020-yilda Innovasiya vazirligi tomonidan e’lon qilingan “Yosh olima ayollar” tanlovida “Bepushtlikning profilaktikasi uchun o‘smirlarda balog‘atga yetishishni buzilishini erta tashxislash texnologiyasini ishlab chiqish” ilmiy loyihasi bilan qatnashib g‘olib bo‘lgan.







2022-yil Innovasiya vazirligi tomonidan e’lon qilingan qisqa muddatli ilmiy stajirovka tanlovida muvaffaqiyatli qatnashib, 2023-yil 4-iyundan 6-avgustgacha Buyuk Britaniyaning Lester shahridagi Lester universiteti, London shahridagi Bartholomew’s Hospitelxamda Kembridj shahrining Cambridj University Hospitallarida ilmiy stajirovka o‘tab kelish uchun grantni yutib olgan. Shu kunga qadar Dalimova Go‘zalning bitta mongrafiyasi, 2 ta metodik qo‘lanmasi va 30 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan.



ISMATULLAYEVA XOLIDA ZAKRULLAYEVNA

Texnika fanlari nomzodi, Toshkent davlat pedagogika Universiteti Professional ta’limi metodikasi kafedrasi dotsenti

- Ko‘plab ilmiy va xalqaro konferensiyalar ishtirokchisi;
- Bir qancha o‘zbek va rus tillarida ilmiy ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, dissertatsiya himoyalari rahbari;
- O‘zbekistondagi gilam ishlab chiqarish bo‘yicha bosh mutaxassis.

Ismatullayeva Xolida Zakrullayevna 1946-yil 7-mayda Rossiyaning Armavir shahrida xizmatchilar oilasida tug‘ilgan.

Ismatullayeva Xolida Zakrullayevna 1954-yili Toshkent shahridagi Yakkasaroy tumanidagi 93-maktabga birinchi sinfga qabul qilindi va 1966-yil maktabni tamomlab, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti Texnologik fakultetning “To‘qimachilik materialshunosligi” yo‘nalishiga kirib “muhandis-tadqiqodchi” ixtisosligi bo‘yicha 1971-yil yakunlab, “Ipakchilik” kafedrasiga ishga qoldirildi va laborant lavozimida bir yil davomida ishlab keldi.



1972-yil Moskva to‘qimachilik institutini “To‘qimachilik materialshunoslik” kafedrasiga ilmiy stajirovkaga jo‘natildi va 1974-yil tamomladi. Shu yili Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati institutini “To‘qimachilik materialshunoslik” mutaxassisligi bo‘yicha aspiranturaga qabul qilindi, 05-19-01 shifri buyicha 1977-yil muddatdan oldin texnika fanlari nomzodi unvonini oldi. Dissertatsiya mavzusi: “Исследование эксплуатационных свойств ковров выработанных из обратов производства” 05-19-01 shifri bo‘yicha bajarildi. Tajribalar Tojikistondagi Leninobod shahridagi Kayrakkum gilam kombinatida o‘tkazildi va ishlab chiqarilgan mahsulot turlari Rossiyadagi Ulyanovsk shahrida o‘tkaziladigan

Badiiy kengashda tasdiqlandi va tavsiya qilingan gilamlar ishlab chiqarishi boshlandi.

Mehnat faoliyati 1977-yildan boshlab Tashkent to‘qimachilik va yengil sanoati institutini “To‘qimachilik materialshunoslik” kafedrasiga ishga qabul qilishdan boshlandi va 2000-yilgacha dotsent lavozimida ishlab keldi.



1978-yili O‘zbekiston Respublikasini yengil sanoati Vazirligi taklifi bilan Xiva gilam kombinatini ishlab chiqarilgan mahsulot turlarini sifatini tekshirishda ishtirok etildi.


Решением
Государственного комитета СССР
по народному образованию
от 25 апреля 1991 г. № 4654-Д
Исматуллаевой Галине Закруллаевне
ПРИСВОЕНО УЧЕНОЕ ЗВАНИЕ
ДОЦЕНТА
по кафедре
текстильного материаловедения
Председатель коллегии
Главный ученый секретарь

1977-2000-yillar davomida ilmiy grantlarda faol qatnashdi bu: Navoiy kimyo kombinati, qurilish mollari Ohangaron zavodi, Olmaliq gilam fabrikasi. Ilmiy ishlar bilan Moskvaning Jun instituti, Мытищи ilmiy tekshirish instituti, Belarusiyani Vitebsk to‘qimachilik instituti, Kaunas politexnika instituti va boshqalarda ilmiy konferensiyalarda ishtirok etdi. Ishlab chiqarish amaliyotini o‘tkazish uchun Tojikistonning Dushanbe shahridagi ip kombinati, Marg‘ilon, Andijon, Ivanovo, Moskva shaharlarga talabalar olib bordi.

2001-yil Toshkent davlat pedagogika universiteti rahbariyatni taklifi bilan ishga qabul qilindi va “Professional ta’lim metodika” kafedrasida dotsent lavozimida ishlab keldi.. 2019-2021-yillar davomida, professor vazifasini bajaruvchi lavozimida ishladi.



Ismatullayeva Xolida Zakrullayeva “Materialshinoslik”, Metrologiya va standartlash, Kostyum tarixi, Kostyum dizayni, Ishlab chiqarish texnologiyasi, Pedagogik loyihalash, Sanoat ishlab chiqarish texnologiyasi, Hayot faoliyati xavsizligi, Xalq hunarmandchiligi, Servis xizmati va boshqa fanlardan o‘zbek va rus tillarda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazdi.



Ismatullayeva bakalavr va magistrlarni BMI va magistrli dissertatsiyalariga rahbarlik kilib kelmoqda. Fakultetni “Mehnat ta’limi” yo‘nalishi bo‘yicha magistrlarga sistematik ravishda ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazadi, va Davlat attestatsiya komissiyasida ishtirok etadi. Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoati institutini 2022-yil 824-sonli buyrug‘i asosida Yakuniy Davlat attestatsiya kommisiyasida 5310900 – “Metrologiya,

standartlashtirish va mahsulot sifatini menejementi” mutaxassisligi bo‘yicha, kommisiya raisi sifatida ishtirok etdi

Ismatullaeva tomonidan xorijiy jurnallarda, konferensiyalarda, respublika jurnallarda 100 dan oshiq maqolalar chop etdi .

Ismatullayeva muallifligida 2 ta darslik, 2 ta monografiya, 5 ta o‘quv qo‘llanma mavjud.

10 dan oshiq metodik qo‘llanmalar talabalar va magistrlar bilan, ular o‘zbek va rus tillarda nashr etildi va talabalar foydalanmoqdalar. Qoraqalpoq tilida “Materialshunoslik” fanidan nashr etilgan darslik, Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika universiteti talabalari uchun foydalanishga topshirilgan. Ismatullayeva Xolida Zakrullayevna Oliy ta’lim vazirligi, Yakkasaroy tumani hokimligi, Respublika O‘zbekiston ta’lim, va fan xodimlari kasaba uyushmasi, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati institutini va Nizomiy nomidagi Davlat pedagogika universiteti tomonidan faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.



IMOMOV MUSURMON PIRNAZAROVICH

Pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti dekani

- O‘quv qo‘llanma, elektron darslik, uslubiy qo‘llanmalar, fanlarga oid o‘quv-uslubiy majmualar, uslubiy ko‘rsatmalar muallifi hisoblanadi;
- Ko‘plab xalqaro va ilmiy konferensiyalar ishtirokchisi;
- Bir qancha o‘zbek va rus tillarida ilmiy ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, dissertatsiya himoyalari rahbari.

Imomov Musurmon Pirnazarovich 1985 - yil 12-dekabrda Qashqadaryo viloyati Yakkabog’ tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, ma’lumoti oliy, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi.

1993-2003 - yillarda Qashqadaryo viloyati yakkabog` tumanidagi 48-o‘rta ta’lim maktabida o‘qigan.

2004 yili Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi sifatida o’qishga qabul qilingan.

2008 yili Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti sifatida o’qishga qabul qilingan.

2008-2011 yillar Toshkent Shahar Sergeli tumani 305-maktab o’qituvchisi.

2011-2013 yillar O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti aspirant.

2013-2015 yillar O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti Pedagogik texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi.

2015-2022 yillar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi bo‘lim boshlig‘i.

2022-2023 yillar Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta`lim” kafedrasi mudiri.

2021 yil 15-sentyabrda 13.00.05 - Kasb-hunar ta`limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo`yicha pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasini muvafaqqiyatli himoya qilgan.



Расмларда: Тошкент давлат педагогика университети ҳузуридаги малака ошириш ва қайта тайёрлаш тармоқ маркази бўлим бошлиғи хорижлик мутахассислар билан учрашувлар акс эттирилган.





ТДПУ ҳузуридаги тармоқ марказида 576 соатлик педагогик қайта тайёрлаш курсида машғулотлар жараёни.



Shahrisabz davlat pedagogika istituti “Maktabgacha ta`lim” kafedrasi mudiri magistr shogirtlar davrasida.



Shahrisabz davlat pedagogika insituti, Maktabgacha ta`lim kafedrasi xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlik:

Koreyadagi Montessori iqtidorli bolalar ta’lim muassasasi direktori Lee Youngil xonim.





Amerikalik mutaxassis Vendi Koulson bilan uchrashuv.



Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasi dotsenti Chudakova Vera Petrovna tomonidan tashkil etilgan 144 soatlik stajirovkani muvafaqqiyatli yakunlagan.





2023 yil 24 apreldan joriy yilning 8 mayiga qadar Finlandiya davlati ta`lim tizimining o`ziga xos jihatlari mavzusida Finlandiya davlatiga stajirovka kursini muvofaqqiyatli amalga oshirildi.



Finlandiya ta’lim tizimining muvaffaqiyati sirlarini o`rganish maqsadida **Makelanmaen Koulu** maktabining boshlang`ich shinf 1-6 sinflarida tashkil etiladigan ta`lim jarayoni bilan tanishildi.





2023 yil 25 aprel kuni Finlandiya davlatining Yuvaskyla universitetining PhD, professori **Juhani Rautopuro** bilan uchrashuv bo`lib o`tdi.



Finlandiya davlatining Yuvaskyla shahrida joylashgan Yuvaskyla universiteti kutubxonasida “Open Science Centres Publishing Support Services” tashkilotini OSC Publishing Coordinatori **Sini Tulkka** va OSC Service Manageri **Arto Ikonen** bilan 2023 yil 26 aprel kuni uchrashuv bo`lib o`tdi.



2023 yil may oyidan to hozirgi kunga qadar Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Pedagogika” fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



Faoliyati davomida 100 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. Shu jumladan: O’quv qo’llanma, elektron darslik, uslubiy qo’llanmalar, fanlarga oid o’quv-uslubiy majmualar, uslubiy ko’rsatmalar muallifi hisoblanadi.





MURODOVA DURDONA RAIMJON QIZI

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Farg‘ona davlat universiteti “San’atshunoslik” fakulteti “Vokal va cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi o‘qituvchisi

- Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindori.
- Ikkita darslik, ikkita o‘quv qo‘llanma, bitta monografiya, uslubiy qo‘llanma hamda 30 dan ziyod ilmiy maqolalar muallifidir.

Murodova Durdona Raimjon qizi 1994-yil 28-may kuni Farg‘ona viloyati, Toshloq tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek.

1999-2008-yillarda Farg‘ona shahridagi 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maxsus yo‘nalishidagi maktabni tamomlagan. 2008-2011-yillarda Farg‘ona san’at kollejini “Xalq cholg‘ulari” bo‘limi “Dutor” sinfida tahsil olgan.

2011-2015-yillarda O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi “Xalq cholg‘ulari ijrochiligi” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr, 2019-2021-yillarda Farg‘ona davlat universitetining “Musiqa ta’limi va san’at” mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik darajasini olgan.

Murodova Durdona Raimjon qizi 2011-yil Samarqandda o‘tkazilgan respublika “Yosh ijrochilar” ko‘rik tanlovi 1-o‘rinni egallagan.



Tanlovlarda erishilgan yutuqlar:

2011-yil – “Yosh iqtidor” respublika tanlovi 2- o‘rin;

2013-yil–Rossiya Federatsiyasida o‘tkazilgan “Baykal” xalqaro ko‘rik tanlovi 1-o‘rin;

2015-yil–Respublika “Sozlar navosi” tanlovi 2-o‘rin;

Murodova Durdona Raimjon qizi 2013-2015- yillarda – Toshkent shahar 22-BMSM da o‘qituvchi;

2021-yildan Farg‘ona davla tuniversitetida o‘qituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

2015-2020-yillarda Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi o‘qituvchi;



2019-2021-yillar davomida Farg‘ona davlat universitetida magistrlik akademik darajasini olgan. Murodova Durdona Raimjon qizi musiqa sohasining pedagogik jabhalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

2023-yil Murodova Durdona Raimjon qizi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor, Shermuhammadov Baxodirjon Shermuhammadovich rahbarligida “Fanlararo aloqadorlik asosida bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarini badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertasiyasi ishi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Murodova Durdona Raimjon qizi tomonidan shu kunga qadar 1 ta o‘quv uslubiy qo‘llanma, 1 ta ommabop risola, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 30 dan ortiq ilmiy ishlar nashr etilgan. Jumladan, dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Qolgan 9 tasi Respublika va xorijiy anjumanlar tezislari sirasiga kiradi.

Jumladan: Dutor va uning ijrochligi haqida, 3rd international Multidisciplinary scientific conference on ingenious global thoughts, Malaysia may 31st 2021, “The concept of traditional performance and its phiosopcihal essence”, Electronical journal of actual problems of modern science education and training. Urganch davlat universiteti, Nowember 11. 2021, Musiqiy tafakkur tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, International scientific-online conference on innovation in the modern education system Washington 2021, Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish pedagogik xususiyatlari, “Buxoro davlat universiteti fan va ta’lim”, 2022 - № 12/2, – B. 215-219 (13.00.00 № 12), Ijtimoiy muhitda badiiy estetik bilim ko‘nikmalarni rivojlantirish, Xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari. - Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona. –B. 84-88.

Hozirda Farg‘ona davlat universiteti, San’atshunoslik fakulteti Musiqiy ta’lim va madaniyat kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Ikkita darslik, ikkita o‘quv qo‘llanma, bitta monografiya, uslubiy qo‘llanma hamda 30 dan ziyod ilmiy maqolalar muallifidir.

Murodova Durdona Raimjon qizi oilali, bir nafar farzandning onasi.



MULLABOYEVA NARGIZA SHAROPALIYEVNA

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Namangan Muhanduslik-texnologiya instituti dotsenti v.b.

- “Olima” uyushmasi tomonidan tashkil etilgan “Ilm yulduzlari” ko‘rik-tanlovida “Eng faol ishtirokchi” nominatsiyasini qo‘lga kiritgan;
- “Eng yaxshi ilmiy-ijodiy ishlanma” tanlovida Respublikada g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

Mullaboyeva Nargiza Sharopaliyevna 1979-yil 5-mayda Buxoro viloyati Qiziltepa tumanida tug‘ilgan.

1996-yilda Namangan viloyati Chust tumanidagi 23-o‘rta maktabni a’lo baholar bilan tugatgan. 2006-2012-yillarda Namangan davlat universitetini Pedagogika va psixologiya yo‘nalishini tamomlagan. Ma’lumoti oliy. Oilada to‘ng‘ich farzand, kelajakdagi orzusi xalqini ziyoli bo‘lishiga hissa qo‘shish..

Mehnat faoliyatini 2012-yildan Namangan ijtimoiy-iqtisodiyot kollejida amaliyotchi psixolog, 2013-yilda o‘qituvchi lavozimlarida boshlagan.

2014-yildan hozirgacha Namangan Muhanduslik- texnologiya institutida katta o‘qituvchi lavozimida, 2021-yildan esa dotsent lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.

N.Sh.Mullaboyeva Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun ilmiy tadqiqot ishini 2012-yildan boshlagan edi.



Ilmiy – tadqiqot ishi mavzusi “O‘smirlarda yolg‘izlik hissi shakllanishining psixoprofilaktikasi va psixokorreksiyasi” deb nomlanadi.

Ilmiy – tadqiqot ishi doirasida 40 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi, maqolalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tasdiqlangan respublika va xalqaro ilmiy jurnallarda, Scopus va Web of Science bazalarida indeksatsiyalangan jurnallarda chop etilgan. Bir necha xorijiy davlatlarda bo‘lgan ilmiy-amaliy

konferensiyalarda ishtirok etgan.



Ilmiy – tadqiqot ishi doirasida “Yolg‘izlik hissi psixokorreksiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma (maktab psixologlari uchun), “Yolg‘izlik psixologiyasi” nomli monografiyalar chop ettirgan.



2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi tomonidan e’lon qilingan “Eng yaxshi ilmiy-ijodiy ishlanma” tanlovida Respublikada g‘oliblikni qo‘lga kiritgan, I darajali diplom va qimmtbaho sovg‘alar bilan taqdirlangan. Mazkur tanlovda ilmiy-tadqiqot ishi doirasida tayyorlangan “Yolg‘izlik hissi psixokorreksiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasini Respublikamizning viloyatlarida 600 dan ortiq o‘smirlarda psixologik so‘rovnomalar va psixologik treninglar o‘tkazib olingan natijalari bo‘yicha tavsiyalari asosida tayyorlanganligini taqdimot asosida ko‘rsatib bergan. Bundan tashqari pedagoglik faoliyati doirasida o‘quv qo‘llanmalar muallifi. Ilmiy – tadqiqot ishini 2020-yil 13-yanvarda muvoffaqiyatli himoya qilgan.



N.Sh.Mullaboyeva 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi “Olima” uyushmasi tomonidan tashkil etilgan “Ilm yulduzlari” ko‘rik-tanlovida “Eng faol ishtirokchi” nominatsiyasini qo‘lga kiritgan.

Bugungi kunda N.SH.Mullaboyeva rahbarligida 3nafar PhD darajasini olish uchun shogirdlari tomonidan dissertatsiya ishlari tayyorlanmoqda. N.Sh.Mullaboyeva erkin tadqiqotchi sifatida “O‘smirlar va o‘spirinlarda yolg‘izlik hissining determinantlari” mavzusida doktorlik ishini yozyapti.

Hozirda N.Sh.Mullaboyeva rahbarligida bir guruh jamoadoshlari bilan:

“Zamonaviy “Bolalar sport maydonchasi”da sport psixologiyasi metodikasini qo‘llab rivojlanishdan ortda qolayotgan 5-6 yoshdagi bolalarda jismoniy va psixologik rivojlanishni yuksaltirish mexanizmini ishlab chiqish” mavzusida O‘zbekiston – Vengruya qo‘shma amaliy loyihasi doirasida ish olib borishmoqda.

Loyihadan ko‘zlangan maqsad birinchidan, O‘zbekiston va Yevropa davlatlari ilmiy hamkorligiga hissa qo‘shish, ikkinchidan, rivojlanishda ortda qolgan bolalarni ijtimoiylashuv jarayoniga olib kirish, bolalar sport maydonchalarini sport inventarlari bilan jihozlab foydalanishga topshirish ustida hamkorlik ishlari olib borilyapti. Kelgusida hamkorlik doirasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji uchun yana bir necha amaliy,

fundamental va innovatsion loyihalar ustida ish olib borilishi rejalashtirilmoqda.



2022-yil 1-oktyabr – “Ustoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan ko‘hna va navqiron Samarqandda tashkil etilgan bayram dasturida faol ishtirokchi sifatida qatnashdi.



NASRITDINOVA MADINA NURULLAYEVNA

FarDU San’atshunoslik fakulteti o’qituvchisi, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi, Respublikamizda yagona Gender tengligi tadqiqotlar markazi badiiy ijodiyot sektori rahbari

- “Yilning eng yaxshi bolalar musiqa va san’at maktabi o‘qituvchisi va kontsertmeysteri-2018” ko‘rik-tanlovi g‘olibi;
- Farg‘ona viloyati Bolalar musiqa va san’at maktablari “Musiqa nazariyasi” uslubiy birlashmasining ishchi guruhi a’zosi;
- Respublikamiz Mustaqilligining

Nasritdinova Madina Nurullayevna staji 12 yil. Mazkur lavozimda 2009-yildan ishlab kelmoqda. Nasritdinova Madina Nurullaevna 2005-yil Farg‘ona davlat san’at kolleji “Musiqa nazariyasi” mutaxassisligi bo‘yicha, 2009-yil O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Musiqiy ta’lim” mutaxassisligini muvaffaqiyatli tamomlagan. 2009-yildan buyon Farg‘ona shahar 2-bolalar musiqa va san’at maktabida “Musiqa nazariyasi” bo‘limi o‘qituvchisi lavozimida ishlab, yosh avlodga ta’lim berishda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. M.Nasritdinova viloyatning eng ilg‘or, tajribali va yuqori malakali pedagoglaridan, 100 dan ortiq shogird yetishtirdi.



Ularning aksariyati Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tamomlab, safimizda yosh avlodga ta’lim berib kelmoqda. Jumladan, Djuraeva Sevara va Buriboev Rustam Rossiya Federatsiyasining Moskva shahridagi Гнесиных nomidagi Musiqa Akademiyasida tahsil olishmoqda.

Nasritdinova Farg‘ona viloyati Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi Farg‘ona viloyati Bolalar musiqa va san’at maktablari “Musiqa nazariyasi” uslubiy birlashmasining ishchi guruhi a’zosi. M.Nasritdinova qisqa davr ichida o‘zining serg‘ayratliligi va tirishqoqligi bilan o‘quv jarayonini jadallashtirish yo‘lida bolalar musiqa va san’at maktablari bazasida yangi ochilgan “An’anaviy ijrochilik” yo‘nalishi uchun 2009-yil nazariy fan qatoriga kiritilgan “Maqom asoslari” fanidan 4 yillik o‘quv uslubiy ishlanma yaratdi

va amaliyotga tadbiq etdi.



M. Nasritdinova 2009-yil O‘zbekiston davlat konservatoriyasida respublika san’at institutlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan “Musiqa ijodiyoti masalalari samarasini oshirishga doir” respublika konferentsiyasida o‘z ma’ruzasi bilan qatnashib 1-o‘rinni egallagan.



2010-yil Samarqand, 2011-yil Qo‘qon, 2012-yil Termiz shaharlarida o‘tkazilgan “Yagonasan, muqaddas Vatan” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi sovrindori bo‘lgan. 2012-yil O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi tomonidan tashkillashtirilgan “Donolik va tashabbuskorlik” ko‘rik tanlovida partiya a’zosi sifatida qatnashib, 1-o‘rinni egallagan. 2013-yil Qarshi shahrida o‘tkazilgan “Akademik xonanda va estrada ijrochiligi” respublika ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi natijalaridan kelib chiqib, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “Fidoyi o‘qituvchi” faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan. 2014-yil uning o‘quvchisi Buriboev Rustam Toshkent shahrida o‘tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi respublika ko‘rik-tanlovida qatnashib, respublika bosqichida 2-o‘rinni egallagan.

M.Nasritdinova 2018-yil O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tomonidan respublika miqyosida o‘tkazilgan “Yilning eng yaxshi bolalar musiqa va san’at maktabi o‘qituvchisi va kontsertmeysteri” ko‘rik-tanlovi g‘olibi bo‘ldi va 1-darajali diplom bilan taqdirlashgan. 2018-yil aprel oyida Farg‘ona viloyati madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi viloyat bolalar musiqa va san’at maktablari



“Musiqa nazariyasi” uslubiy kengashi doirasida 2-bolalar musiqa va san’at maktabi “Fortepiano” bo‘limi 4-sinf o‘quvchilari bilan “Solfedjio” fanidan “Asosiy pog‘ona uchtovushliklari va ularni amaliyotda qo‘llanilishi” mavzusida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ochiq dars o‘tkazdi.



Mazkur ochiq dars viloyatning yetakchi nazariy fanlar o‘qituvchilari tomonidan namunaviy deb topildi va “Amaldagi kelajak Solfedjiosi” degan yorliqni qo‘lga kiritdi. 2020-yil yanvar oyida viloyat bolalar musiqa va san’at maktablari “Musiqa nazariyasi” uslubiy birlashmasi loyihalari doirasida Qo‘qon shahar

6-bolalar musiqa va san’at maktabining 4-sinf “Xalq cholg‘ulari” bo‘limi o‘quvchilari bilan “Musiqa adabiyoti” fanidan “O‘zbek musiqiy folklorining janr va shakllari” mavzusida mahorat darsi o‘tkazdi. Ushbu mahorat darsi muallif M. Nasritdinovaning “O‘zbek musiqa adabiyoti” fanidan 2019-yili chop ettirilgan darsligining taqdimoti bilan yakunlandi.

Respublikamizning 30 yilligi munosabati bilan



ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan, 2019-2021 yillar davomida Farg‘ona davlat universitetida magistrlik akademik darajasini olgan. Xozirda Farg‘ona davlat universiteti, San’atshunoslik fakulteti Musiqiy ta’lim va madaniyat kafedrasida o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Ikkita darslik, ikkita o‘quv



qo‘llanma, bitta monografiya, uslubiy qo‘llanma hamda 30 dan ziyod ilmiy maqolalar muallifidir.

M. Nasritdinova hozirda bolalar musiqa va san’at maktablari uchun 5 va 7 yillik o‘quv dasturi asosida “Solfedjio” fanini samarali o‘zlashtirish jarayoniga yangilik kiritish maqsadida yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda elektron darslik va multimediali dars



ishlanmalarini tayyorlash ustida ish olib bormoqda.Jamiyatimizdagi rivojlanishdan ortda qolgan bolalarni musiqa ta’limi orqali sog‘lomlashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish yuzasidan loyiha ustida ilmiy-nazariy izlanishlar va amaliy tajriba ish-sinovlarini olib bormoqda.



Ushbu loyiha asosida bir necha bor Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidagi xalqaro ilmiy jurnallar va respublika, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda o‘z mualliflik maqolalari bilan ishtirok etib, rivojlanishdan ortda qolgan bolalarni jamiyatda o‘z o‘rinini topishlari masalasini keng omma e’tiboriga havola etish bilan bir qatorda, amalga oshirayotgan sa’y-harakatlari bilan e’tirofga sazovor bo‘lib kelmoqda.

M.Nasritdinova o‘zining tirishqoqligi, mehnatsevarligi, doimo yangilikka intiluvchanligi bilan viloyat faollari o‘rtasida hurmat qozongan. Hozirgi kunlarda FarDU San’atshunoslik fakulteti xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi, Respublikamizda yagona Gender tengligi tadqiqotlar markazi badiiy ijodiyot sektori rahbari, Farg‘ona viloyat madaniyat boshqarmasi huzuridagi Musiqa nazariyasi sho‘ba rahbari sifatida faoliyatini yuritib kelmoqda.



NAZAROVA SEVARA MUSTAKIMOVNA

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Buxoro davlat universiteti Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrasi dotsenti

- 3 ta o’quv qo’llanma, 3 ta monografiya, 1 ta tavsiya, 50 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan;
- “Yilning eng faol yosh mutaxassisi” tanlovining viloyat bosqichida “Eng faol yosh olim” nominatsiyasi bo‘yicha 2-o‘rinni egallagan;
- “Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma’rifiy ko‘rik tanlovining universitet bosqichida “Eng yaxshi guruh murabbiysi” nominatsiyasida faxrli 2-o‘rinni egallagani uchun diplom bilan taqdirlandi.

Nazarova Sevara Mustakimovna 1984-yil 15-yanvarda Buxoro viloyatining Gijduvon tumanida tug`ilgan.

2002-2006-yillari Buxoro davlat universitetining “Agrokimyo va tuproqshunoslik” mutaxassisligi bo‘yicha bakalavriat bosqichi va 2006-2008-yillari tuproqshunoslik yo‘nalishida magistratura bosqichida tahsil olib imtiyozli diplom bitirgan.

S.M.Nazarova 2009-yildan 2023-yilgacha bakalavr va magistratura ta’lim bosqichi talabalariga “Tuproq fizikasi”, “Tuproq kimyosi va fizikasi”, “Tuproq bonitirovkasi”, “Geologiya, mineralogiya va geodeziya asoslari”, fanlaridan ma’ruza o‘qigan va amaliy mashg‘ulotlarni amalga oshirgan. Bu fanlarni talabalarga o‘qitishda quyidagi zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanmoqda: “Aqliy Hujum”, “Davra suhbati”, “Rolli o‘yin”, “Bahs-munozara”, “Muammoli vaziyat”, “Venn diagrammasi” va boshqalar. Mazkur usullarni qo‘llash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va multimediya ta’lim resurslarini keng qo‘llab, o‘quv mashg‘ulotlarini taqdimotlar asosida olib bormoqda.



BuxDU Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limida 2019-yildan 2021-yilga qadar ilmiy texnik kengash kotibi sifatida faoliyat olib borgan.

U 2019-yil “Buxoro viloyati sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarining hozirgi davr agrofizikaviy holati” mavzusidagi qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Uning ilmiy-tadqiqot faoliyatida bir qator jumladan, Xalqaro va Respublika miqyosidagi jurnal va konferensiya to‘plamlarida 100 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgandir. Jumladan, 2016-yil 3-4 iyun kunlari Buxoro davlat universitetida o‘tkazilgan “XXI-asr intellektual avlod asri” shiori ostida yosh olim va talabalarning hududiy ilmiy-amaliy konferensiyasida “Tabiiy fanlar yo‘nalishi” bo‘yicha faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.



Universitetning ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarida, har oyda bir marta o‘tkaziladigan “Ma’naviyat” kunlari hamda professor-o‘qituvchilarga “Ma’rifat soatlari”ni samarali tashkil etib, kafedraga biriktirilgan akademik guruhlardagi talabalarning siyosiy-ijtimoiy ongini shakllantirishda faol qatnashib kelmoqda.

Jumladan, 2021-2022-o‘quv yilida Prezidentimizning “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish” bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusi ijrosini ta’minlash maqsadida viloyat maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qator tadbirlar tashkil qildi.



Maktablar bilan hamkorlik qilish jarayonlarida maktablarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarga seminar-treninglar o‘tkazib kelmoqda. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarorining 22-bandi ijrosi yuzasidan universitet pedagog-xodimlari va talabalari o‘rtasida “Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma’rifiy ko‘rik tanlovining universitet bosqichida “Eng yaxshi guruh murabbiysi” nominatsiyasida faxrli 2-o‘rinni egallagani uchun diplom bilan taqdirlandi.



Buxoro davlat universiteti professor-o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan “Eng

namunali tomorqachi murabbiy” tanlovida g‘oliblikni qo‘lga kiritganligi uchun universitet rahbariyati tomonidan diplom bilan taqdirlandi. Buxoro viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashi tomonidan “Yilning eng faol yosh mutaxassisi” tanlovining viloyat bosqichida “Eng faol yosh olim” nominatsiyasi bo‘yicha 2-o‘rinni egallaganligi uchun Birlashma kengashi raisi tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 27-martdagi 233-sonli buyrug‘ining ijrosini ta’minlash maqsadida Buxoro davlat universitetda Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassislik fanlari bo‘yicha elektron o‘quv resurslarini ishlab chiqish hamda masofaviy ta’lim platformasiga joylashtirish bo‘yicha malakali mutaxassis sifatida hamda masofaviy ta’lim jarayonini joriy qilishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Nazarova Sevara Mustakimovna respublika hamda viloyat miqyosida, shuningdek, har -yili universitetda o‘tkaziladigan ma’naviy va ma’rifiy tadbirlarda faol qatnashib kelmoqda. Hozirda Buxoro davlat universiteti Agronomiya va biotexnologiya fakulteti oqila ayollar yetakchisi sifatida faoliyat olib bormoqda.

Joriy yilning 6-11-fevral kunlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 22-dekabrdagi 70-sessiyasida 11-fevral “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” sifatida rasman e’lon qilinganligi, xotin-qizlar orasidan yangi iqtidor egalarini kashf qilish, ular amalga oshirayotgan loyihalarni keng targ‘ib qilish maqsadida “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” munosabati bilan olima,



tadqiqotchi va talaba qizlar haftaligi doirasida olima, tadqiqotchi ayollar va talaba qizlar o‘rtasida “Olima va tadqiqotchi ayollar” tanlovi o‘tkazildi.Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi eng yaxshi innovatsion loyiha muallifi sifatida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

U hozirgi paytda kafedraning bosh ilmiy mavzusi asosida doktorlik dissertatsiyasi mavzusini “Buxoro vohasi sug‘oriladigan tuproqlarining ilmiy tahlili” deb tanlagan va doktorlik dissertatsiya ishi ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.



NIZAMOVA SHOIRA ISAMIDDINOVNA

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ta’lim menejmenti” kafedrasi dotsenti

- 20 dan ziyod ilmiy maqola va 80 ortiq tezislar muallifi hisoblanadi;
- Malaka oshirish tizimida eng yaxshi onlayn dars muallifidir;
- Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun 2017-yilda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan Xalq ta’limi a’lochisi ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Nizamova Shoira Isamiddinovna 1972-yil 8-aprelda Jizzax viloyati G‘allaorol tumanida ishchi oilasida tug‘ilgan. 1979-yil G‘allaorol tumanidagi Oybek nomidagi 29-o‘rta maktabning 1-sinfiga qabul qilinib, 1989-yilda tugatgan. 1989-yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining “Tabiiy fanlar” fakultetiga kirib, 1994-yilda tugatgan.

1994-2000-yillarda G‘allaorol tumanidagi 80-umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qituvchi bo‘lib ishladi.

2000-2006-yillarda Sirdaryo viloyati Guliston shahri 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qituvchi bo‘lib ishladi.



2006-2009-yillarda Guliston davlat universitetida Tabiiy fanlar fakultetida ish faoliyatini davom ettirdi. 2009-2012-yillarda Guliston san’at kollejida o‘qituvchi bo‘lib ishladi. 2012-2019-yillarda Sirdaryo viloyat xalq ta’lim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida mehnat faoliyatini davom ettirdi.



2019-yil yanvardan A.Avloniy nomli xalq ta’lim tizimi rahbar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

“Ta’lim dasturlari” bo‘limida metodist lavozimida ish faoliyatini davom ettirdi. 2019-yil sentyabr oyidan A.Avloniy nomli Xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchi bo‘lib ishladi. Malaka oshirish tizimida eng yaxshi onlayn dars muallifidir.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inpeksiyasining Milliy markazi tomonidan tashkil etilgan xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish ishchi guruhi a’zosi. Shu yillarda Sh.Nizamova A.Avloniy nomli Xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining mustaqil izlanuvchisi hisoblanadi.



Sh.Nizamova 2021-yil fevraldan buyon Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ta’lim menejmenti” kafedrasida pedagogik faoliyatni davom ettirmoqda.

Sh.I.Nizamova ilmiy faoliyatini 2012-yilda boshlaydi. 2021-yilda A.Avloniy nomli Xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy Kengashda pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun “Umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining iqtisodiy kompetentligi rivojlantirish mexanizmi” mavzusida dissertasiyani himoya qildi.



Sh.Nizamova ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun 2017-yilda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan Xalq ta’limi a’lochisi ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



Sh.Nizamova tomonidan xalq ta’limi rahbarlari uchun 2020-yilda “Maktab direktorining iqtisodiy kompetentligi” nomli uslubiy qo‘llanma nashr etilgan. 2023-yilda “Ta’lim sifatini oshirishda maktab direktorining iqtisodiy kompetentligi” nomli monografiya nashr etildi.

Sh.Nizamova 20 dan ziyod ilmiy maqola va 80 ortiq tezislar muallifi hisoblanadi.



PAZILOVA SHOXIDA ABDULBASITOVNA

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyaisida dotsent v.b.

- 1 ta darslik, 8 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 1 ta uslubiy tavsiyanoma, 17 ta maqolalar chop etgan;
- 12 ta maqolalari bilan xalqaro va respublika ilmiy-uslubiy anjumanlarida qatnashgan;
- 2023-yilda “NATIONAL PUBLICATION” nashriyot markazi tomonidan MDH miqyosida o‘tkazilgan ilmiy ishlar tanlovida “Лучшая научная статья 2023” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Pazilova Shoxida Abdulbasitovna 1970-yil 29-aprelda Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumanida tug‘ilgan.

1987-yilda Toshkent shahridagi o‘rta maktabni bitirib, 1987-1992-yillarda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti avtomatik tizimlarni boshqarish fakultetining “Elektron hisoblash mashinalari” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga kirgan.

2000-yildan 2017-yilgacha Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurtida avval o‘qituvchi, so‘ngra dotsent lavozimlarida mehnat faoliyatini davom ettirdi.



2017-yildan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyaisida avval o‘qituvchi, katta o‘qituvchi va hozirgi vaqtda dotsent lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.



2021-yil 9-noyabrda “Oliy harbiy ta’lim muassasalarida “Elektrotexnika va elektronika asoslari”ning mazmuni va o‘qitish metodikasi” mavzusidagi 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligi yuzasidan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoyasi bo‘lib o‘tadi.

Sh. Pazilovaga O‘R OAKning 2021-yil 30-noyabr 309/1-sonli bayonnomasi bilan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasi berildi.



Sh. Pazilova tomonidan darslarning ko‘rgazmali va axborot kommunikasiya texnologiyalarining imkoniyatlari hisobga olingan holda, kursantlarni mantiqiy fikrlashga undovchi, kompetentsiyaviy yondashuv asosida pedagogik muloqot jarayonida faol qatnashishlarini ta’minlovchi metodikalar ishlab chiqilgan. O‘z ishiga talabchan, kursantlarga o‘quv mashg‘ulotlarini yuqori ilmiy - uslubiy darajada olib boradi.

Mashg‘ulotlarni sodda, aniq va ilmiy darajada yangi ta’lim texnologiyalarning interfaol metodlarini qo‘llagan holda tushunarli bayon eta oladi. Kursantlarga elektrotexnika va elektronika asoslari fani bo‘yicha qiziqarli maruza va seminarlar o‘tish orqali ularda bu fanga katta qiziqish uyg‘otgan.

Shoxida Pazilova har yili kursantlar harbiy-ilmiy jamiyati bo‘yicha “Elektrotexnika bilimdoni” ilmiy to‘garagiga ilmiy rahbarlik qilib keladi.

So‘nggi yillarda 1 ta darslik, 8 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 1 ta uslubiy tavsiyanoma, 17 ta maqolalar chop etgan, hamda 12 ta maqolalari bilan xalqaro va respublika ilmiy-uslubiy anjumanlarida qatnashdi.

Kafedra dotsenti sifatida o‘quv uslubiy ishlar bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikda o‘qituvchilarni darslarini tahlil qilishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan ta’lim texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha maslahatlar beradi.



Shuningdek, “Educational Research in Universal Sciences” ilmiy jurnali va “International Journal of Pedagogics” xalqaro ilmiy jurnallarining tahrir hay’ati a’zosi sifatida faoliyat olib bormoqda. Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun 2017-yilda “O‘R Qurolli Kuchlari 25 yilligi” Esdalik nishoni, 2022 yilda O‘R MV “Namunali xizmati uchun” ko‘krak nishoni, 2023-yilda “NATIONAL PUBLICATION” nashriyot markazi tomonidan MDH miqyosida o‘tkazilgan ilmiy ishlar tanlovida “Лучшая научная статья 2023” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Sh. Pazilova bir farzandning onasi va 3 nabiraning buvijonisidir.



PIRAXUNOVA FARIDA NURMAMATOVNA

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent, Rossiya Tabiatshunoslik Akademiyasi professori

- 100 dan ziyod xalqaro va Respublika OAK tasarrufidagi ilmiy jurnallarda maqola, monografiya va darsliklari nashr etilgan.
- Xalqaro va Respublika tanlovlari sovrindori.
- Avstraliyaning Melburn shahrida malaka oshirgan.

Piraxunova Farida Nurmamatovna 1970-yil 31-avgustda Toshkent shahri, Olmazor tumani (sobiq Sobir Rahimov tumani)da tug‘ilgan. 1987 yilda Toshkent shahar Forobiy nomidagi 249-sonli o'rta maktabni a'lo baholarga tamomlagan. 1987-1991 yillarda Toshkent davlat agrar universitetining “Agrokimyo va tuproqshunoslik” fakulteti talabasi bo‘lgan. 1992-1995 yillarda Toshkent davlat agrar universitetining aspiranturasini tamomlagan va 2000 yilda 03.00.27 Tuproq biologiyasi ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

2001-2005 yillarda Uchtepa (sobiq Akmal Ikromov) tumanidagi Toshkent agrotijorat kolleji direktorining ishlab chiqarish ishlari bo‘yicha o‘rinbosari bo‘lib ishlagan. 2004-yilda “Osiyo Taraqqiyot Banki” krediti loyihasi asosida Avstraliyaning Melburn shahrida o‘rta maxsus ta’limini rivojlantirish bo’yicha malaka oshirgan.



F.Piraxunova 2005 yildan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tabiiy fanlar” fakultetida o‘quv ishlari bo‘yicha dekan muovini lavozimida faoliyat ko’rsatish bilan birga “Botanika, ekologiya va hujayra biologiyasi” kafedrasida bakalavr va magistrlarga dars bergan. Ko’plab bakalavr va magistrlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan.Faoliyati davomida F. Piraxunova 2007-2011-yillarga mo’ljallangan OT-F4-023 –“Yangi va istiqbolli g‘o‘za navlarini meva a’zolarining meva hosil bo‘lishiningfiziologik va biokimyoviy

asoslarini o‘rganish” mavzusidagi fundamental loyihaga rahbarlik qilgan.

2014 yildan F. Piraxunova universitetning o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i lavozimiga tayinlangan. O‘quv jarayoniga 886 ta fan bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturlar, 869 ta bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualarning yaratilishida katta hissa qo‘shgan. Shu bilan birga,



“Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-Demokratik partiyasi” Yakkasaroy tumani “Ayollar qanoti” xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rais o‘rinbosari lavozimida ham faoliyat ko’rsatgan.

Piraxunova Farida Nurmamatovna 2016-yil sentabr oyidan M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti dekani etib tayinlangan. Qisqa vaqt ichida 10 ta kafedra, 600 nafar talaba va 100 dan ortiq magistrlarga rahbarlik qilgan. Fakultetda ta’lim, faninig rivojlantirishi va integratsiyalashuvi bo‘yicha yetakchi professor-o‘qituvchilarning tajribalariga tayangan holda, fakultetda o’qitiladigan fanlar kesimida xalqaro o‘quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima qilish ishlarini yo’lga qo’ygan. Fakultetda ko’plab xalqaro universitet olimlari bilan uchrashuvlar, seminarlar va koferensiyalar tashkil etgan.

2018-yil sentabr oyidan Toshkent farmatsevtika instituti, “Tibbiyot-biologik fanlar” kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat ko’rsatib, “Ekologiya” va “Dorivor o‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi” fanlaridan darslik va uslubiy qo‘llanmalar yaratgan. Shu davrda,



u Rossiya Tabiatshunoslik akademiyasining "Реестр новых направлений" tanlovida ishtirok etdib "European scientific and industrial consortium-Socrates" medali, "Awarded for active research work and significant contribution to the development of science” diplomi bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, “Международная ассоциация ученых, преподавателей и специалистов РАЕ” tanlovida “За новаторскую работу в области высшего образования” faxriy yorliq va “Европейское качество” medali bilan mukofotlanib, Rossiya Tabiatshunoslik Akademiyasining professori unvoniga ega bo‘ldi.

Farida Nurmamatovna 2019-yil may oyida dorivor o‘simliklarni yetishtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarining dolzarbligi uchun Rossiya Tabiatshunoslik akademiyasi Prezdiumi tomonidan «Основатель нового научного направления» darajasini olib, DOCTOR OF SCIENCE unvonini egallashga muyassar bo’lgan. Shu yili Rossiya akademiyasi tomonidan tashkil etilgan “СТУДЕНЧЕСКИЙ НАУЧНЫЙ ФОРУМ 2019” XI-xalqaro talabalar ilmiy konferensiyasida F.N. Piraxunova 6 nafar talabalarga rahbarlik qilib nufuzli DIPLOM va SERTIFIKAT lar bilan taqdirlangan.

2019 yildan boshlab Rossiya Tabiatshunoslik akademiyasining “ИЗВЕСТНЫЕ УЧЕНЫЕ РАЕ” rasmiy saytining ensiklopediyasiga kiritilgan.

2020-yil 9-noyabrda «Международный ассоциации ученых, преподавателей и специалистов» ilmiy

loyihasida qatnashib “ЗАСЛУЖЕННЫЙ РАБОТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ” faxriy yorlig‘iga ega bo’ldi. 2020-yil 26-may



kuni Rossiya Tabiatshunoslik akademiyasi Prezdiumi tomonidan “ПЕРВЫЙ СРЕДИ РАВНЫХ” ordeni, 2022 yil 13 aprelda esa “ЗА НОВАТОРСКУЮ РАБОТУ В ОБЛАСТИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ” oltin medali bilan taqdirlandi.



2023 yili Toshkentda o’tkazilgan Xalqaro ilmiy-amaliy MDH ko'rik tanlovining "National publication" ilmiy matbuot markazi, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari, Yoshlar ittifoqi Farg'ona viloyati Kengashi, Kiuf xalqaro Koreya universiteti va boshqa tashkilotlari hamkorligida «ENG YAXSHI ILMIY MAQOLA» tanlovi g’olibi medali sohibi bo’ldi.



2023 yil 29-30 may kunlari “INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE”(ISFT) instituti qoshida “BARQAROR TARAQQIYOT MAQSADLARIGA ERISHISHDA UNIVERSITETLARNING ROLI“ xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkilotchisi sifatida ma’ruza qildi. Hozirgi kunda Piraxunova Farida Nurmamatovna “INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE” instituti Gumanitar fanlar fakulteti dekani lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.



RAXIMOV DILSHOD PULATOVICH

Texnika fanlari bo’yicha falsafa doktori, Toshkent Kimyo-texnologiya instituti Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi fakulteti Oziq-ovqat mahsulotlari kafedrasi dotsenti

- Ofis registrator va akademik faoliyat boshqarmasi, Talabalar registratsiyasi va akademik mobillikni muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i;
- 30 dan ortiq xorijiy va Respublika miqyosida ilmiy maqolalari nashr etilgan;
- O‘simlik moylarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo‘yicha muhandis texnolog.

Raximov Dilshod Pulatovich 1984-yil 22-noyabrda Xorazm viloyati Urganch shahrida tug‘ilgan. 1991-1998-yillari Urganch shahridagi 8-o‘rta ta’lim maktabi va 1998-2002-yillarda fizika-matematika fanlariga ixtisoslashtirilgan 20-son litseyda, 2002-2003-yillarda 8-o‘rta ta’lim maktabida tahsil olgan. 2004-2008-yillarda Toshkent Kimyo-texnologiya instituti, Oziq-ovqat va don mahsulotlari texnologiyasi fakultetining “Yog‘ va moylar” texnologiyasi mutaxassisligi bo‘yicha bakalavriat bosqichi va 2008-2010-yillari magistratura bosqichini tugallagan.



2009-2010-yillarda Toshkent tumanida “MEHNAT” Agrofirmasi zavodida bug‘-qozonxona mashinisti, 2010-2015-yillarda Urgach shahridagi AO “Urganch Yog‘-moy” korxonasi Gidrogenlash sehi navbatchi texnologi, 2015-2019-yillarda Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi



SP MCHJ “Milk Euro Food” kompaniyasi margarin zavodi texnologilavozimlarida faoliyat yuritgan. 2019-2020-yillarda Toshkent Kimyo-texnologiya instituti, Oziq-ovqat mahsulotlari kafedrasi assistenti,



2020-2021-yillarda doktarantura mustaqil tadqiqotchisi bo‘lib tahsil olgan.



2020-2021-yillarda Oziq-ovqat mahsulotlari



kafedrasi katta o‘qituvchisi, 2021-2022-yillarda Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi fakulteti, dekan muovini lavozimida, 2022-yildan Ofis registrator va akademik faoliyat boshqarmasi, Talabalar registratsiyasi va akademik mobillikni muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i lavozimida hamda Oziq-ovqat mahsulotlari kafedrasi dotsenti lavozimida o‘rindos



hlik asosida faoliyat yuritib kelmoqda. Raximov Dilshod Pulatovich o‘zining ilmiy faoliyati davomida



bir qator ilmiy va xorijiy anjumanlarda faol ishtirok etib kelmoqda.



RASHIDOVA MA’MURA XAYRULLAYEVNA

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi

- Ikkita monografiya, o‘ttizdan ortiq ilmiy maqola, husnixat bilan bog‘liq o‘ndan ortiq nashrlarni amalga oshirgan.
- “Nazmul-javohir” asari ilmiy-tanqidiy matni ustida ish olib borgan.
- Qadimiy qo‘lyozma manbalarni o‘qish bilan birga, uni xattotlik mahorati bilan ko‘chirish malakasiga ham ega.

Rashidova Ma’mura Xayrullyevna 1957-yil 21-noyabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1965-1975-yillarda Toshkent shahrida o‘rta maktabda ta’lim-tarbiya olgan.

1975-yildan O‘zRFA Alisher Navoiy



nomidagi Davlat adabiyot muzeyida mashinistka vazifasida ish faoliyatini boshlagan. Keyinchalik laborant, katta laborant, kichik ilmiy xodim lavozimida ish faoliyatini olib boradi. Hozirda katta ilmiy xodim lavozimida ishlaydi.

Rashidova M.X 1975-1981-yillar davomida Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakultetida (kechki bo‘limida) talaba sifatida tahsil olgan. Shu vaqt davomida Adabiyot muzeyida ishlab, tinmay malakasini oshirgan. Adabiyot muzeyi ilmiy bo‘limlari asosida 1978-yilda tashkil etilgan Qo‘lyozmalar ilmiy-tekshirish instituti ilmiy bo‘limlarida faoliyat yuritdi.

1985-1987-yillari Qo‘lyozmalar instituti aspiranturasida tahsil olgan. Alisher Navoiyning “Nazmul-javohir” asari ilmiy-tanqidiy matni ustida ish olib borgan.

U O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, soha faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablarini biladi va ularni o‘z faoliyatida qo‘llay oladi, funktsional vazifalaridan kelib chiqib o‘tgan yilda bajargan ishlari hisobotini beradi. Ish yuritishda o‘ziga xos uslubiy tashabbuskorligi bor, qo‘yilgan vazifalarni uddalay oladi. Mehnat intizomi yaxshi.

Rashidova M.X. hozirda Adabiyot muzeyi Qo‘lyozma va nodir bosma kitoblar fondida saqlanayotgan bosma kitoblar tavsifi

bilan shug‘ullanmoqda.



1991-yil nomzodlik ishini himoya qilib filologiya fanlari nomzodi darajasini olgan. 1994-1996-yillar Qo‘lyozmalar instituti doktoranturasini o‘tagan. 1999-2012-yillar davomida Abdulla Qodiriy nomidagi Madaniyat institutida, 2017-18-yillar Xalqaro Islom akademiyasida o‘rindoshlik asosida pedagogik faoliyat yuritgan.

Rashidova M.X. ning kasbiy tayyorgarlik darajasi yuqori.



Rashidova M.X. ko‘p yillik ilmiy faoliyati davomida ikkita monografiya, o‘ttizdan ortiq ilmiy maqola, husnixat bilan bog‘liq o‘ndan ortiq nashrlarni amalga oshirgan.

Qadimiy qo‘lyozma manbalarni o‘qish bilan birga, uni xattotlik mahorati bilan ko‘chirish malakasiga ham ega.



1975-1981-yillarda Toshkent Davlat universiteti talabasi;

1975-1980-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi mashinistkasi;



1980-1985-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi AlisherNavoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta laboranti;

1985-1986-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi kichik ilmiy xodimi;

1986-1989-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti aspiranti;

1989-1994-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti katta ilmiy xodimi;

1994-1997-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti doktoranti;

1997-1998-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti katta ilmiy xodimi;



1998-1999-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi;

1999-2012-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi ilmiy xodimi;

2013-2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi AlisherNavoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi;

2018-2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi AlisherNavoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi;

2019-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi AlisherNavoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi kichik ilmiy xodimi;

2020-yildan buyon hozirgi kungacha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi.



Ushbu kalligrafik ijod namunalari Alisher Navoiy “Nazmul-javoxir” asaridan.







RASULOV ILHOM MAXMUDOVICH

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori, dotsent

- 79 ta ilmiy maqolalar, 2 ta darslik, 1 ta monografiya, 5 ta o‘quv qo‘llanmallari chop etilgan;
- Fransiyada bug‘doyni yetishtirish texnalogiyasi bo‘yicha amaliyot o‘tab kelgan;
- Dorivor o‘simliklar bo‘yicha 15 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Rasulov Ilhom Maxmudovich 1959-yil 1-mayda, Jizzax viloyati, Forish tumani, Garasha qishlog‘ida tug‘ilgan. 1966-1976-yillarda 10-sinfni tamomlab, 1977-1979- yillar harbiy xizmatda bo‘lgan. 1979-1984-yillar SAMDU da o‘qigan. 1984-yil Samarqand davlat universitetining biologiya fakultetini tamomlagan. Ishni 1984-yil Jizzax viloyati, Do‘stlik tumanidagi 6-o‘rta maktabda biologiya fanidan dars berishdan boshlagan.

1987-1994-yillar Toskent viloyati, Qibray tumanidagi “G‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi” ilmiy tadqiqot inistitutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. 1994-2001- yillarda irrigatsiya inistitutining “Tuproqshunoslik va dehqonchilik kafedrasida” katta o‘qituvchi lavozimida ishlagan. 2006-2015-yillarda yana



“G‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi” ilmiy tadqiqot institutida katta ilmiy xodim lavozimida ishlagan. 2016-2019-yillar



Toshkent davlat agrar universiteti,

Agrobiologiya fakultetining, seleksiya va urug‘chilik kafedrasida, dotsent lavozimida ishlagan. 2022-2023-yillar O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot inistitutida “Dorivor o‘simliklar seleksiyasi va urug‘chiligi bo‘limi” mudiri bo‘lib ishlagan. Dorivor o‘simliklar bo‘yicha 15 ta ilmiy maqolalar chop etilgan. Jami 79 ta ilmiy maqolalar, 2ta darslik, 1ta monografiya , 5 ta o‘quv qo‘llanma chop etgan. 2001-yilda Fransiyada bug‘doyni yetishtirish texnalogiyasi bo‘yicha amaliyot o‘tib kelgan. Ko‘plab ilmiy konfrensiyalarda ishtirok etgan. Turli xil sertifikatlar bilan taqdirlangan. 2022-yil “Science and innovation” xalqaro ilmiy konferansiyasida olimlarning chop etgan maqolalari bo‘yicha ko‘krak nishoni bilan taqdirlash kunida qatnashgan.



Amarant dorivor o‘simligini Agrar universitetidan o‘quv amaliyotiga kelgan talabalarga o‘simlikning yetishtirish usullari, urug‘chiligi va inson salomatligi uchun qanday kasalliklarga davo ekanligini tushintirmoqda.

Amarant o‘simligining pishib yetilgan urug‘lari bo‘yicha fenologik kuzatuvlar olib borgan. Doktorant .S.F.Ulug‘ovaga dorivor mavrak yetishtirish agrotexnologiyasi bo‘yicha tushuntirish ishlari olib bogan.

Institut xodimlari yordamida dorivor tirnoqgul o‘simligi gullarini terish va quritish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan.Toshkent davlat agrar universiteti talabalariga dorivor o‘simliklarning kichik va katta kolleksiya ko‘chatzorida ekilgan limon o‘t, ko‘k bo‘tako‘z, tirnoqguarnika , angelika, valeriana, dorivor Godji o‘simliklarini yetishtirish, urug‘chiligini tashkil qilish yuzasida o‘quv amaliyoti olib borgan.







O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot borgan.

instituti, Dorivor o‘simliklar selektsiyasi va urug‘chiligi bo‘limida talabalarga dorivor o‘simliklarni xillari bo‘yicha suhbat olib



RAJABOV FARXAT FARMANOVICH

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Kompyuter tizimlari” kafedra dotsenti

- Ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 50 ta ilmiy va ilmiy-uslubiy maqolalari nashr etilgan;
- Scopus bazasiga kiruvchi 3 ta ilmiy maqola, ENM uchun yaratilgan 8 ta dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, 2 ta ixtiro va 3 ixtiroga talabnoma muallifidir.

Rajabov Farxat Farmanovich 1963-yilda Buxoro viloyatida tavallud topgan. Ma’lumoti – oliy. 1985-yilda Minsk radiotexnika institutini radio muhandis mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan.

Rossiya Federasiyasining Dubna shahridagi (Moskva viloyati) Yadro tadqiqotlari birlashgan institutlarida stajirovka o‘tagan. Keyinchalik amaliy fizika institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritgan. Yangi tibbiy texnika yaratish muammolari ustida ilmiy izlanishlar olib borgan. Natijada ChNPP “Supromed” korxonasi bilan hamkorlikda kompyuterlashtirilgan elektrokardiograf, 16 va 19 kanalli elektroensefalograf va exoensefalograf yaratilgan hamda amalga tadbiq etilgan.

So‘ngra mehnat faoliyatini Toshkent davlat texnika universitetida katta o‘qituvchi lavozimida davom ettirgan. Dastlab “Biotexnika, tibbiy apparatlar va tizimlar” fanidan mashg‘ulotlar olib borgan. Respublika ixtisolashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bilan hamkorlikda tibbiyot sohasi uchun muhandislar tayyorlash kurslarini tashkil etishda faol ishtirok etgan.



Keyinchalik Toshkent davlat aviatsiya institutida katta o‘qituvchi lavozimida ish faoliyatini davom ettirib, ilmiy sohada ham bir qator yutuqlarga sazovor bo‘lgan, jumladan, 2000-yilda Fan va texnika qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan tanlovda F.Rajabov tomonidan yaratilgan dasturiy ta’minot “Yilning eng yaxshi dasturiy mahsuloti” nominasityasiga loyiq deb topilgan hamda muallif qimmatbaho sovg‘alar va diplom bilan taqdirlangan.

2021-yil 15-aprelda falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Kengashida himoya qilgan va shu yilning 6-mayida texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi (diplom 01 №004363).



Ayni paytda, Rajabov Farxat Farmanovich, Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Kompyuter tizimlari” kafedra dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda. Ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 50 ta ilmiy va ilmiy-uslubiy ish (jumladan, Scopus bazasiga kiruvchi 3 ta ilmiy maqola, ENM uchun yaratilgan 8 ta dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, 2 ta ixtiro va 3 ixtiroga talabnoma) muallifidir.

Rajabov Farxat Farmanovich O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasining 01.11.2021-30.10.2022 yillarda № I-AT-2021-493-loyihasida qatnashib kelmoqda.

U kompyuter arxitekturasi sohasida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, yangi zamonaviy pedogogik texnologiyalaridan unumli foydalangan holda o‘zi yaratgan qurilmalar, jumladan “Interaktiv doska” dasturiy majmuasini faol qo‘llagan holda darslarini qiziqarli va yuqori saviyada o‘tkazib, malakali kadrlarni tayyorlashda o‘z hissasini qo‘shmoqda.

F.F.Rajabov tamonidan “0.52.01.00-Informatika va axborot teynologliyalari” yo‘nalishi bo‘yicha yozilgan “Raqamli axborotlarni qayta ishlash va yaratish” o‘quv adabiyoti “Fan” nashriyoti tamonidan chop etilgan. Bu uning o‘z sohasini chuqur egallaganligi, talabalarning bu fanga bo‘lgan qiziqishlari va intilishlarida namoyon bo‘lib kelmoqda.

Oilali, ikki farzandning otasi va ikki nafar nabiraning suyukli bobosi.



SALIJONOVA SHAXNOZAXON DILMURODOVNA

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasi dotsenti

- “Beruniy” nomidagi nomdor stipendiyasi sohibasi;
- “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari” tanlovining energetika, resurslar, sanoat yo‘nalishi bo‘yicha g‘olibasi;
- 2 ta darslik, 3 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 6 ta uslubiy qo‘llanma, 8 ta uslubiy ko‘rsatma, 20 dan ziyod mahalliy va xorijiy jurnallarida maqola va 50 dan ziyod ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida tezislarini nashr qildirgan.

Salijonova Shaxnozaxon Dilmurodovna 1990-yil 10-mart kuni tavallud topgan. 1997-2006 yillari 322-umumta’lim maktabini a’lo baholarga tamomlab, 2006-yil Toshkent kimyo-texnologiya instituti qoshidagi akademik litseyga o‘qishga qabul qilingan va o‘qishni 2009-yil imtiyozli diplom asosida bitirgan.



Shu kunga qadar olgan bilim va ko‘nikmalariga tayanib Sh.D.Salijonova 2009-yil Toshkent kimyo-texnologiya institutining “Oziq-ovqat texnologiyasi (yog‘-moy mahsulotlari)” ta’lim yo‘nalishiga talabalikka qabul qilingan. O‘qish mobaynida ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanib kelgan va uning natijasida 2012-yil “Beruniy” nomidagi nomdor stipendiyasi sohibasiga aylangan. Sh.D.Salijonova 2013-yil malakaviy diplom ishini “Yangi navli margarin mahsulotlari ishlab chiqarishning ilmiy tadqiqoti” mavzusida, a’lo baholarga himoya qilib, imtiyozli diplom bilan oliy ta’limning bakalavr bosqichini tamomlagan.

Sh.D.Salijonova 2013-yilning o‘zidayoq ushbu oliygohning “Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi” mutaxassisligiga, magistratura bosqichiga qabul qilingan. 2013-2015-yillar davomida o‘zining ham ilmiy ham pedagogik faoliyatini davom ettirib, “Yumshoq diyetik margarin ishlab chiqarish imkoniyatlari tadqiqoti” mavzusida magistrlik dissertatsiyasini a’lo bahoga himoya qilgan.

Oliy ta’lim dargohida bakalavr va magistratura bosqichida o‘qish bilan bir

qatorda, talabalar va yosh avlodlarga Ingliz tili fanidan qo‘shimcha dars mashg‘ulotlari olib borgan. Bugungi kunda, uning qo‘l ostida ta’lim olgan shogirdlari nufuzli korxonalarda o‘z faoliyatini olib borishmoqda.



Sh.D.Salijonova Oliy ta’limni tamomlagach olgan bilim va ko‘nikmalari asosida Sergili sanoat kasb-hunar kollejida 2016-yildan boshlab katta o‘qituvchi lavozimida pedagogik faoliyatini boshlagan. U o‘z faoliyati davomida mehnatsevarligi, tirishqoqligi, bilimga chanqoqligi va barcha vazifalarga mas’uliyat bilan yondashganligi sababli, qo‘l ostida kollejni tamomlagan yosh avlodlar oziq-ovqat va oshpazlik sohasida yetuk kadr bo‘lib yetishib chiqqan.

Sh.D.Salijonova ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi ortgani sabab va bor bilim hamda malakalari asosida 2018-yil Toshkent kimyo-texnologiya institutining 02.00.17 – “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari” ixtissosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga qabul qilingan va ilmiy faoliyatga birinchi qadamini bosgan. Doktorant sifatida u o‘z ilmiy faoliyati va mutaxasisligiga bo‘lgan muhabbati sabab chuqur izlanishlar olib borgan va olgan bilim va ko‘nikmalari asosida 2020 yili «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari» tanlovining energetika, resurslar, sanoat yo‘nalishi bo‘yicha g‘olibasi bo‘lgan.

U 2021-yilning 22-may kuni Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashda “Yangi turdagi margarin mahsulotlarini olish texnologiyasini takomillashtirish” mavzusigi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishini muvofaqqiyatli himoya qilib, iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining tegishli qarori asosida texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo‘lgan.



Sh.D.Salijonova 2020-yildan buyon muntazam ravishda institutning ilmiy-tadqiqot ishlarida, xususan, uning ijrochiligida: 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan AM-FZ-201908159 – «Mahalliy xom ashyolar asosida funksional qo‘shimchalar bilan boyitilgan parhezli margarin olish texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihada kichik ilmiy hodim lavozimida faoliyat yuritgan.

Sh.D.Salijonova tayanch doktoranturani 2021-yil tugatgach, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasiga assistent lavozimiga ishga qabul qilingan. O‘zining ilmiy-pedagogik

faoliyati davomida erishgan yutuqlari asosida shu yilning o‘zidayoq katta o‘qituvchi va 2023-yildan dotsent lavozimiga ko‘tarilgan.

Ilmiy faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida 2022-yil Toshkent kimyo-texnologiya institutiga 02.00.17 – “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari” ixtissosligi bo‘yicha doktoranturaga qabul qilingan va bugungi kungacha ilmiy izlanishlarini davom ettirib kelmoqda.



Sh.D.Salijonova bugungi kunga qadar 2 ta darslik, 3 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 6 ta uslubiy qo‘llanma, 8 ta uslubiy ko‘rsatma, 20 dan ziyod mahalliy va xorijiy jurnallarida maqola va 50 dan ziyod Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida o‘zining tezislarini nashr qildirgan.





Shu bilan bir qatorda tashkiliy ishlarni ham muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, 2022-yil Toshkent kimyo-texnologiya instituti va Hindistonning Integral Universiteti hamkorligida olib borilgan ilmiy-amaliy konferensiya kotibasi sifatida faoliyat olib brogan. Bundan tashqari 2022-yil “Sardoba Agro Holding” MChJ korxonasida stajirovka o‘tab kelgan, 2022-yilning 23 iyul- 6 avgust oylari mobaynida Turkiyaning “Aydin” universitetida «Delightful Istanbul 2022 – Food Technology, Cereal and Vegetable Oil Applications» kursida malaka oshirib, sertifikat bilan taqdirlanib kelgan. 2022-yil 25 oktabrdan 3 noyabrgacha “Moskva davlat oziq-ovqat mahsulotlari universiteti” da “Методы и средства работы с цифровыми образовательными ресурсами” qo‘shimcha malakaviy dastur bo‘yicha o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan.

Sh.D.Salijonova 2023-yilning mart oyida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashabbusi bilan Jahon Bankining “O‘zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish” (MUNIS) loyihasining moliyaviy ko‘magi doirasida respublikamizning tadqiqotchi olimlari uchun bepul “English for Science” o‘quv dasturining 3-mavsum tanlovining na’munali bitiruvchisi bo‘lgan.



Sh.D.Salijonova Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi yoshlar akademiyasi a’zosi.

Sh.D.Salijonova 2023-yilning may oyida Jahon Bankining MUNIS loyihasi ko‘magi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilgan “International approaches and best practices of using data in scientific research” dasturini muvaffaqiyatli

tamomlagan va maxsus sertifikat bilan taqdirlangan.

2023-yilning 01 iyul- 15 iyul sanalari mobaynida Turkiyaning “Yildiz Technical University” da «Advances of Food Science and Technology» kursida malaka oshirib, sertifikat bilan taqdirlanib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan 2023-yilning 23 yanvarida IAP 07339 “Kunjut kunjarasi qo‘shilgan parhezbop mayonez” nomli va 3 mart sanasida № IAP 07408 “Topinambur tuganagi ekstrakti qo‘shilgan parxezbop margarin” nomli Ixtiro uchun potentlar muallifi.



Sh.D.Salijonova 2023-yilning 5-mayida O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti kengashining tavsiyasiga ko‘ra “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari” ixtissosligi bo‘yicha Dotsent ilmiy unvonini olgan.



Bugungi kunda Sh.D.Salijonova bir qator nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan aloqa o‘rnatishda va ular bilan hamkorlikda qo‘shma grantlar yozishda faol qatnashib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini malakasini oshirish uchun “Yog‘-moy sanoatidagi zamonaviy texnologiyalar” fanidan ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarini olib bormoqda.



SARIMOVA DILDORA SOATALIYEVNA

Toshkent viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

- 50 dan ortiq ilmiy maqolalar nashr ettirgan.
- O‘zbekiston Respublikasi kasaba uyushmasi tomonidan o‘tkazilgan “Yosh olimlar” tanlovining III darajali diplom sohibi.
- For Joining Editorial Board of Eurasian Journal Of Humanities and Social Sciences Belgium jurnalida tahrir hay’ati a’zosi.

Sarimova Dildora Soataliyevna 1988-yil 22-iyunda Namangan viloyati Chust tumanida tug‘ilgan. 2006-yil Chust tumanidagi 19-maktabni imtiyozli shahodatnoma bilan bitirgan. 2010-yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kimyo va ekologiya mutaxassisligini imtiyozli diplom bilan tamomlagan. Talabalik davrlaridayoq Toshkent shahar Shayxontoxur tumani 82 – umumta’lim maktabida kimyo fani o‘qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini ham olib borgan. 2010-2012-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistratura bo‘limida Analitik kimyo yo‘nalishida tahsil olgan. 2013-yildan hozirga qadar Toshkent viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida faoliyat yuritadi.



2013-2021-yillarda Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, 2021-yildan hozirga qadar Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat olib bormoqda.

D.Sarimova yosh, iqtidorli, izlanuvchan pedagog sifatida o‘z bilimi va pedagogik mahorati, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni mohirona qo‘llashi bilan

markaz jamoasi hamda tinglovchilar e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Tinglovchilarga puxta bilim berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ko‘rgazmali va texnika vositalaridan foydalangan holda, kompyuter dasturlaridan kimyo fanida MyTestX, Camtasio studio, Ispring, Kahoot.it dasturlaridan samarali foydalanish bo‘yicha bilim berib kelmoqda.

Mohir pedagog 2009-yilda «Yosh pedagog» ko‘rik-tanlovining shahar bosqichida 1-o‘rinni egallagan.

Pedagogik faoliyati davomida xalqaro va respublika, institut miqyosida o‘tkazilayotgan konferensiyalarda o‘z ilmiy maqola va tezislari bilan muntazam qatnashib kelmoqda.

2013-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste’dod" jamg‘armasida "Innovasion texnologiyalar" yo‘nalishida tahsil oldi.

2014-yilda A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markaziy institutida 144 soatlik malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli tamomladi.

2014-yil Toshkent axborot texnologiyalari universitetining "Axborot texnologiyalari" kursini tamomladi.

2015-yil 30-may 1-iyun kunlari Sankt Peterburg shahrida o‘tkazilgan Xalqaro konferensiyada o‘z ilmiy maqolasi bilan ishtirok etdi.

2016-yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi "Qayta tayyorlash va malaka oshirish tarmoq markazi"ning 288 soatlik kursini muvaffaqiyatli tamomladi.

2016-yil "Tabiiy va aniq fanlar ta’limi" yo‘nalishida o‘tkazilgan Respublika forumida moderator vazifasini bajardi. O‘z tajribalarini respublikadagi kimyo fani o‘qituvchilari e’tiboriga havola etdi.

2016-yil Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda 8 sinflar uchun "Oltingugurt va uning birikmalari" mavzusida videodars yaratdi va foydalanuvchilar uchun ta’lim saytlariga joylashtirdi.

D.Sarimova 2017-yilda XTVning 34-sonli "Umumta’lim maktablari kimyo fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borish to‘g‘risida"gi buyrug‘i ijrosi bo‘yicha Respublika ta’lim markazida o‘tkazilgan videoseminarlarda o‘z ma’ruzalari bilan faol ishtirok etdi va o‘z ish tajribasini Respublika miqyosida ommalashtirdi va mazkur markazning faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandi.

2017-yil Avgust oyida o‘tkazilgan 10-sinf darsligini amaliyotga joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan o‘quv seminarida “Respublika treneri” vazifasini bajardi.

2017-yilda iyul oyida Vazirlar Mahkamasining 140-sonli qaror “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizom hamda 187-sonli qaror ijrosini sifatli amalga oshirishda faol ishtirok etdi.

2018-yil O‘zbekiston Respublikasi kasaba uyushmasi tomonidan o‘tkazilgan “Yosh olimlar” tanlovining III darajali diplomi bilan taqdirlangan.

D.Sarimova 2018-yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)» ixtisosligi «Malaka oshirish tizimida kimyo o‘qituvchilarining axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini takomillashtirish» mavzusidagi dissertasiya ishi uchun mustaqil tadqiqotchi sifatida doktoranturaga qabul qilingan.

2018-yil O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazining 22-may 02/6-109 son ma’lumotnomasiga ko‘ra malaka oshirish jarayonida kimyo fani o‘qituvchilarini o‘qitishda kimyoviy eksperimentni axborot

texnologiyalari asosida takomillashtirish bo‘yicha malaka oshirish kurslarida axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish metodik ta’minotini takomillashtirish, kimyo o‘qituvchilari kompetentligini rivojlantirish (motivasion, kognitiv, kreativ va faoliyatli-refleksiv) metodikalariga ustuvorlik berish bo‘yicha tavsiyalaridan foydalanilgan.



U 2018-2020-yillarda pedagogik faoliyati davomida 50 dan ortiq maqola va tezislari ilmiy jurnallar, respublika, xalqaro va chet el konferensiyalarida hamda jurnallarida yoritilgan: “Kimyo fanini o‘qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish”, “Kimyo fanidan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar” nomli o‘quv-uslubiy va metodik qo‘llanmalari chop etilgan.

D.Sarimova bundan tashqari, Respublika multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda ishlangan “Oltingugurt va uning birikmalari” mavzusida videodars, “Kimyo o‘qituvchilarini ijodkorligini oshirishda FLASH MX dasturidan foydalanish” nomli elektron metodik qo‘llanma yaratgan va unga № DGU № 000763 raqamli guvohnoma, “Laboratoriya sharoitida kerakli moddalarni hosil qilish va ajratib olish. Kimyoviy eksperimentni tashkil etish” nomli elektron metodik qo‘llanma yaratgan va IP CONSULTING CENTER №003259 guvohnomasini olgan.

D.Sarimova 2019-yil Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 1-avgustdagi 02-02/4-406-son ma’lumotnomasiga ko‘ra “Kimyo fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” nomli metodik qo‘llanmasi, “Kimyo fani o‘qituvchilarining ijodkorligini oshirishda Flash MX dasturidan foydalanish”, “Laboratoriya sharoitida kerakli moddalarni hosil qilish va ajratib olish”, “Kimyoviy eksperimentni tashkil etish” elektron ta’lim resursi amaliyotga tadbiq etilgan. Ushbu elektron metodik qo‘llanmalar orqali malaka oshirish jarayonida ta’lim texnologiyalari va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishga qo‘yilgan (zamonaviylik, axborotlilik, kompetensiyaviy) talablar asosida pedagoglarda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlarida o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan. Malaka oshirish jarayonida pedagoglar axborot kommunikativ kompetentligini shakllantirish modeli o‘qituvchilarning faoliyatli munosabatini (sub’ektda faollik, motivasiya, o‘zaro hamkorlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish) yaratish hamda ta’limiy komponentlarni optimallashtirish asosida maxsus (kasbga yo‘naltirilgan bilimlar va ko‘nikmalar ob’ektiv va predmetli yo‘nalishini aks ettirish) kompetensiyalari ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan. Natijada, kimyo o‘qituvchilari kasbiy kompetentligining oshishiga erishilgan, malaka oshirish kurslarida ta’lim samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan.

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida

B2020.2.PhD/Ped1671 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

D.S.Sarimova «Malaka oshirish tizimida kimyo o‘qituvchilarining axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini takomillashtirish» mavzusidagi 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)» ixtisosligida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertasiya ishi 2021-yil O‘simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs. 02/30.01.2020. K/T. 104.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy Kengashda muvaffaqiyatli himoya qildi.



2021-yil oktyabr oyidan hozirgi kunga qadar Toshkent viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya, Angliya va boshqa xorijiy davlatlarning oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlaydi, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda o‘z ma’ruzalari bilan faol ishtirok etadi.

2021-yildan buyon For Joining Editorial Board of Eurasian Journal Of Humanities and Social Sciences ISSN Belgium jurnalida tahrir hay’ati a’zosi.

2021-2022-yil o‘quv yili uchun magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilarining Yakuniy Davlat Attestasiyasi bo‘yicha komissiya tarkibida a’zo sifatida ishtirok etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Respublika ta’lim markazi hamkorligida 2022-yil 25-noyabrda “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy usullari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasida “O‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirishda “Loyiha ishi” darslari asosida o‘qitish” mavzusida ma’ruza qildi.

O‘zbekiston milliy universiteti “Polimerlar kimyosi” kafedrasi professori D.Bekchanov boshchiligidagi ilmiy jamoa tomonidan Kimyo fanidan 3D texnologiyalariga asoslangan interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma yaratish loyiha ishida “Kimyo fanidan 3D texnologiyalariga asoslangan interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma” si orqali kimyoviy birikmalarning 3D ko‘rinishi, animasion laboratoriya mashg‘ulotlari hamda interaktiv test materiallarining mavjudligi bilan yuqori effektivlikka erishishni aniqlashda eksperimentator sifatida ishtirok etdi.



2022-yil 25-30-aprel kunlari Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent xalqaro vestminster universiteti va Abdulla Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etilgan “Kembridj tajribasi asosida trenerlar tayyorlash va maktab o‘qituvchilarining

pedagogik mahoratini oshirish bo‘yicha trening dasturida ishtirok etdi va sertifikat bilan taqdirlandi.



2022-yil “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi asosida “Tabiiy fanlar”(Science)ni maktabda sifatli o‘qitish maqsadida o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha terenerlik kursi”ni muvaffaqiyatli tamomladi va tegishli sertifikatga ega bo‘ldi.

2022-yil mehnat faoliyati davomida 2 ta o‘quv qo‘llanma nashr ettirdi:

1. Kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari/ o‘quv qo‘llanma/ Toshkent: «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022-yil, 8,75 b.t.

2. Umumiy kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari/ o‘quv qo‘llanma/ Toshkent: «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022, 4,7 b.t.

Shu bilan birgalikda 2022-yil 26-avgust kuni Toshkent viloyati xalq ta’limi boshqarmasida “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi asosida Tabiiy fanlar (Science)ni maktabda sifatli o‘qitish” mavzusida viloyat miqyosida o‘quv-seminari tashkil etdi.

1. 2022-yil 26-avgust kuni Toshkent viloyati xalq ta’limi boshqarmasida “Kembridj tajribasi asosida trenerlar tayyorlash va maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish” bo‘yicha ham mutaxassislarga ma’ruza qildi.

2. 2022-yil 23-iyun kuni Toshkent viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida “Finlandiya tajribasida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” mavzusida viloyat bo‘yicha metodistlar, tayanch maktablar eksperimentator o‘qituvchilariga o‘quv-seminari tashkil qildi.

2022-yil 28-oktyabr kuni “O‘quvchilarda divergent fikrlashni rivojlantirishda interaktiv yondashuvlar” mavzusidagi Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasini tashkil etdi.



2022-yil mobaynida Scopus va Web of Science jurnallarida maqolalar chop ettirdi:

1. Issues of development of professional competence of teachers of chemistry. International Journal of Early Childhold Special Education (INT-JECS) DOI: 10.48047/Issue 07 2022.

2. Ways to develop Creative abilities of students in chemistry. Annals of forest research, 5339-5347, 2022.

Viloyatda kimyo fani o‘qituvchilarining kasb mahoratini oshirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Viloyatda, hududiy markazda o‘tkazilayotgan mehnat faoliyatida intizomli, atrofdagilar bilan samarali muloqot o‘rnata olganligi sababli turli bayram hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda va boshqa jamoat ishlarida muntazam faol ishtirok etib kelmoqda.



SA’DIYEV SOLI TOLIBOVICH

Navoiy davlat pedagogika instituti San’atshunoslik fakulteti,“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi dotsenti

- Uning rahbarligida Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi talabalarining 13 nafari Indaneziyaliklar milliy kiyimlari namoyishini o‘tkazgan;
- “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining standart shrift namunasi” ni chop etishda ishtirok etgan;
- Ko‘plab ilmiy maqolalari xalqaro va mahalliy jurnallarda chop etilgan.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyati va uning amaliy samaralarini targ‘ib qiladi.

Pedagogik faoliyati jarayonida o‘zining tirishqoqligi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi, izlanuvchanligi, kasbiy va ilmiy salohiyatini oshirish borasidagi tinimsiz mehnati bilan markaz jamoasi o‘rtasida o‘z o‘rni va mavqeiga ega.

Yuqori malakali pedagog, fidoyi va jonkuyar inson sifatida hamkasblari va tinglovchilar o‘rtasida hurmat qozongan.

Sa’diyev Soli Tolibovich 1972- yil 21-iyunda Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani Vang‘ozi qishlog‘ida ishchi oilasida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. 1979-89-yillarda 12-sonli Abu Ali ibn Sino nomli maktabni bitirib, 1989-94-yillarda Buxoro Davlat universiteti Badiy grafika fakulteti, Tasviriy san’at, chizmachilik va badiiy mehnat ta’lim yo‘nalishini tugatgan.

1994-yilda Qiziltepa tumani 11-sonli Y.Oxunboboyev nomli maktabda ish faoliyatini chizmachilik, rasm fani va badiiy mehnat ta’limi o‘qituvchisi sifatida boshlab, obru-e’tibor topib, 2008-yilgacha ishlab 1-toifali o‘qituvchi darajasigacha bordi.

2008-2010-yillarda Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi o‘qituvchisi bo‘lib ish faoliyatini boshlagan.



2013-2021-o‘quv yillarigacha “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” o‘qituvchisi, 2021-yildan boshlab “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi lavozimida ishlab kelgan.

2022 – yil apreldan “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi v.b dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.

2015-yil NDPI va Zarafshon shahridagi Texnika kolleji bilan hamkorlikdagi “O‘quv amaliyoti” va “Maxsus fanlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarining ta’lim jarayon samaradorligi” mavzusidagi o‘tkazilgan seminarda qatnashib ma’ruza qilgan

2017-yil O‘zbekiston Respublikasi Badiiy akademiya huzuridagi Navoiy Badiiy ijodkorlar uyushmasida o‘tkazilgan, Respublika “Tasviriy va amaliy san’at haftaligi” da hakamlik qilgan.



O‘zbekiston badiiy akademiyasi rahbariyatining 2017-yil 23-martdagi № 20-10/371-topshirig‘iga muvofiq, Xalqaro aloqalar boshqarmasi, INDONEZIYA Respublikasining, O‘ZBEKISTON Respublikasidagi elchixonaning tashqi ishlar vazirligi, Indoneziya elchixonasi 12-19-may kunlari yurtimizda, Batik san’ati bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirda ishtirok etib, e’tirof etilgan.

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi talabalarining 13 nafari tomonidan Indaneziyaliklarning milliy kiyimlari namoyishi o‘tkazgan..

2017-yil 18-22-aprel kunlari O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi Navoiy viloyat hokimligi, O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi, Navoiy viloyat bo‘limi, Nav DPI, Viloyat O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi boshqarmasi, Viloyat Madaniyat boshqarmasi tomonidan, 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” munosobati bilan, “Tasviriy va amaliy san’at festivali”da, ilmiy rahbarligi ostida talabalari, kumush medal va sertifikatlarni qo‘lga kiritgan.

Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan 07.02.2018 yil PQ-3514-sonli qaroriga binoan, “Ichki turizimni jadal rivojlantirish” bo‘yicha, kafedrada talaba va o‘qituvchilari tomonidan sayohatlar uyushtirib kelinmoqda.

2020-yil Ilmiy rahbarligi ostida, Sobirova Nodira O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Buxoro Muhandislik texnologiya institutida “Qalamtasvir, Rangtasvir va Haykaltaroshlik” fanidan o‘tkazilgan onlayn, Respublika fan Olimpiadasida ikkinchi o‘rinni egalladi.

2022- yil 18-22- aprel kunlari “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” ga bag‘ishlangan, Xalqaro an’anaviy “Tasviriy va amaliy san’at festivali”ni o‘tkazilgan. San’at sohasining yetuk mutaxasislari va viloyatning ko‘plab iste’dodli yoshlarini o‘zida jamlaydigan ushbu festivalda, NavDPI sharafini San’atshunoslik fakulteti professor-o‘qituvchilari Sh.N.Choriyev va F.B.Aslanov boshchiligidagi dastgohli rang tasvir yo‘nalishining faol ijodkor talabalari munosib himoya qilishadi. Aynan shu tadbirda Ilmiy rahbarligim ostidagi talabalari, diplom va sertifikatni qo‘lga kiritdi.

2014-yil O.D.Raximov, A.Abdullayevlar bilan hammualiflikda, Chizmachilik fanidan, o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi, “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining standart shrift namunasi” chop etilgan.

2015-yil “Tasviriy san’atdan boshlang‘ich tavsiyalar” nomli

Sh.U.Bobonazarov bilan hamualliflikdagi O‘quv-uslubiy qo‘llanmasi chop etilgan.

2015-yil Sh.Bobonazarov, M.Nurmatovlar bilan hamualliflikda “RANG TASVIR” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi chop etilgan.



2016-yil Sh U.Bobonazarov bilan hamualliflikdagi, Tasviriy san’at fanidan amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha, o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi chop etilgan.

2021-yil “QALAM TASVIR” fanidan, ustoz p.f.n proff.S.F.Abdullayev bilan hammualiflikda, guvohnoma raqami 356-105, o‘quv qo‘llanmasi chop etilgan.

2022-yil 21-apreldagi № ISBN-C-35890-sonli “XALQ AMALIY BEZAK SAN’ATI” tanlov fanidan, o‘quv qo‘llanmasi chop etilgan.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli farmonida ko‘zda tutilgan vazifalar, jumladan, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” ijrosini ta’minlash maqsadida, amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan, “O‘zbekistonning taniqli olimlari” entsiklopediyasi 1-tomi taqdimoti, “Mening muvaffaqiyat yo‘lim” biografik entsiklopediyasi taqdimoti, “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnalining yil yakuni bo‘yicha eng faol olimlarni taqdirlash marosimi bo‘yicha “Ilm-fan targ‘ibotchisi” va “Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar yetakchisi” esdalik ko‘krak nishonlarini topshirishga bag‘ishlangan 2022-yil 20-dekabr kuni Toshkent shahrida o‘tkazilgan tadbirlarda faol ishtirok etdi.



SAYFUDINOVA JAMILA BADRIDDINOVNA

Samarqand davlat veterinariya, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, universitet xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, rektor maslahatchisi

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 15 yilligi, 20 yilligi, 25 yilligi hamda 30 yillik ko‘krak nishonlari va “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri hamda viloyat hokimining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.
- “Oqila ayollar” harakati tuzilmasi yetakchisi;
- “Eng yaxshi pedagog 2022” 1-darajali diplom va ko‘krak nishoni sohibasi.

Sayfudinova Jamila Badriddinovna 1957-yil 29-iyunda Samarqand shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Ma’lumoti oliy. 1981-yilda Samarqand davlat universitetining tarix fakultetini tarix va jamiyatshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan. 1981-yildan hozirgi kunga qadar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Gumanitar fanlar, madaniyat va jismoniy tarbiya” kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.



1999-2005-yillar davomida o‘rindoshlik asosida O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o‘rganish markazi rahbari, vazifalarida katta tashkilotchilik, izlanuvchanlik fazilatlarini namoyon etib, o‘z ishining chuqur bilimdoni sifatida zimmasidagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarib, universitet jamoasi o‘rtasida faollik ko‘rsatib kelmoqda.



2005-yilda O‘zLiDeP siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasidagi qisqa o‘quv kurslarida O‘zLiDePning Samarqand viloyatidagi faoli sifatida ishtirok etgan.



Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashi deputati sifatida davlat mahalliy vakillik organidagi 10 yillik faoliyati davomida ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi sifatida tuman aholisi farovonligi yo‘lida amaliy ishlarni amalga oshirgan.





Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol targ‘ibotchi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (O‘zLiDeP viloyat Kengashida ekspertlar guruhi a’zosi), davlat vakillik organlari saylovlari targ‘ibotida faol.



J.Sayfudinova 2021-yil 24-oktyabr Prezident saylovida O‘zLiDeP viloyat Kengashining faol targ‘ibotchisi sifatida fuqarolarimiz siyosiy ongi va madaniyatini yanada oshirishda katta targ‘ibotchilik faoliyatini amalga oshirgan. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti” kitobining targ‘ibotida keng jamoatchilikning hurmatiga sazovor bo‘lgan.



xotin-qizlarga oid davlat siyosati, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda muhim ijtimoiy-siyosiy (Shanxay hamkorlik tashkiloti Samarqand sammitida “Maxsus reportaj”) masalalarga oid chiqishlari, intervyulari respublika va viloyat teleradiokampaniyalarida keng yoritilgan. Viloyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlash, xotin-qizlar o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirishda ularga motivatsiya berish, o‘qitish va moliviy ko‘mak berish masalalarida ham faol va hurmatga sazovor bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan, O‘zbekiston Vazirlar Mahkkamasining “Oqila ayollar” harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 8-avgust 2022-yil 437-sonli qarori va Samarqand viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasining 17-avgust 2022-yil 8-sonli buyrug‘iga asosan “Oqila ayollar” harakati viloyat tuzilmasi yetakchisi sifatida saylandi.



Uning rahbarligida “Dilbar qizlar”, “Qizlarjon”, “Zulfiyaxonim izdoshlari” klublari hamda besh muhim tashabbus doirasida xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlashda samarali ishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, ijtimoiy ehtiyojmand qizlarning yashash va o‘qish sharoitlariga alohida e’tibor qaratmoqda. Viloyat hokimligining topshirig‘iga binoan viloyat tumanlaridagi Imom xatiblarning o‘quvlarida diniy ekstremizm va turli ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash mavzulari yuzasidan ma’ruzalar qilib kelmoqda.



Hamkor tashkilotlar “Yuksalish” umummilliy harakati, viloyat Adliya boshqarmasi, viloyat Oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Mahalla va nuroniylar viloyat



boshqarmasi bilan hamkorlikda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28-yanvar 2022 yil PF-60 sonli Farmoni, “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadalllashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 7-mart 2022-yil PF-87-sonli farmonlarining mazmun-mohiyatini tushuntirib belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda keng qamrovli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.



Jamila Sayfudinova nafaqat partiya yetakchisi qolaversa faol jamoatchi, olima, zukko murabbiy, talabchan ustoz, viloyatimiz mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari, mutaxassislari va aholi o‘rtasida o‘ziga xos

obro‘ va hurmatga ega jonkuyar inson sifatida tanilgan.

Jamila Sayfudinova ona vatanimiz tarixining o‘rganilmagan sahifalarini tadqiq etishda birinchilar qatorida “O‘zbekiston chorvachilida xalq veterinariyasi xizmati



tarixi”ni manbalar asosida o‘rgandi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan arxeologik topilmalardan tortib, bitiklar va yigirma mingdan ortiq qo‘lyozmalardagi ma’lumotlar orasida azaldan chorvador bo‘lgan xalqimizning veterinariya xizmati xususidagi bebaho manbalarni ilmiy tadqiq etib, respublika va xorijiy ilmiy nashlarda maqolalar e’lon qildi. Tarixiy manbalarni xolisona, ilmiy jihatdan o‘rganish, tadqiq etish bilan tadqiqotchi veterinariya sohasi kadrlarini o‘z kasb-koriga sadoqat, mas’uliyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga ham salmoqli hissa qo‘shdi.

Mehnat staji 42 yil. Mazkur vazifada 1999-yildan ishlamoqda. Namunali oila bekasi, 4 nafar komil farzandlar onasi.



Jamila Sayfudinova butun umrini fan, ta’lim-tarbiya va davlatimiz siyosati, ma’naviyat targ’ibotiga bag‘ishlagan fidoyi faol jamoatchi ayol sifatida hurmatga sazovor bo‘lib kelmoqda. “Eng yaxshi pedagog2022” 1-darajali diplom va ko‘krak nishoni sohibasi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 15 yilligi, 20 yilligi, 25 yilligi hamda 30 yillik ko‘krak nishonlari va “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri hamda viloyat hokimining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.



SAYFULLAEVA GULHAYO IXTIYOR QIZI

Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti “Fizika va astronomiya” kafedrasi dotsenti

- Ilmiy maqolalari, chet el jurnallarida maqolalar o‘quv qo‘llanmalari nashr etilgan;
- “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan;
- “Eng yaxshi yosh olim” ko‘krak nishoni sovrindori.

1992-yil 4-sentyabrda Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek.

Fanning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar asosida yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, yoshlarni ilmiy-ijodiy faoliyatga jalb etib, astronomiya va astrofizika fanini innovatsion hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishni takomillashtirish yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Yuqori bilim va ilmiy salohiyati, izlanuvchanligi hamda ilmiy sohadagi muvaffaqiyatlari bilan yoshlarga o‘rnak bo‘lmoqda.

2022-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-martdagi PQ 155-sonli Qaroriga muvofiq “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan

2021-yilda “Laboratornie raboti po kursu astronomii” nomli o‘quv qo‘llanmasiga Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining guvohnomasi olinib, “Qamar-Media” nashriyotida chop etilgan.



2011-2015-yillarda Navoiy davlat pedagogika instituti Fizika-matematika fakulteti talabasi.

2015-2017-yillarda Navoiy davlat pedagogika instituti magistratura bo‘limi magistranti.

2017-2018- yillarda Navoiy davlat pedagogika instituti Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi.

2018-2020-yillarda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnikauniversiteti “Fan va taraqqiyot” DUK tayanch doktoranti.

2020-2021-yillarda Navoiy davlat pedagogika instituti Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi.

2021-yili iyun Navoiy davlat pedagogika instituti Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi.

2021-yil dekabr Navoiy davlat pedagogika instituti Fizika va astronomiya kafedrasi dotsenti.



2021-yilda “Umumiy fizika fanidan laboratoriya ishlari (Mexanika)” o‘quv qo‘llanmasi, // O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-0115 sonli guvohnomasi olindi va chop etildi.

Sayfullaevaning Oliy ta’lim muassasi talabalari uchun hammualliflikda tayyorlangan “Umumiy astronomiya” nomli darsligi, “Jalpы astronomiya” nomli darsligi, “Astronomiya kursidan amaliy mashg’ulotlar (Astrofizika)” nomli o‘quv qo‘llanmasi, “Umumiy fizikadan laboratoriya ishlari (Elektromagnetizm)” nomli o‘quv qo‘llanmalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlandi va nashrga tavsiya etildi. Akademik litsey o‘quvchilari uchun “Elektrodinamika asoslari nomli darsligi 3930001 aniq fanlar (texnika)” , “Mexanika va molekulyar fizika 3930001 aniq fanlar (texnika)”, “Optika va atom fizikasi 3930001 aniq fanlar (texnika)”, “Elektrodinamika asoslari”, “Mexanika va molekulyar fizika”, “Optika va atom fizikasi” nomli darsliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-0755-sonli buyrug‘iga asosan tegishli guvohnomalar olingan.

Shuningdek, ko‘plab ilmiy, ilmiy-ommabop va metodik yo‘nalishdagi ishlari Xalqaro va Respublika miqyosidagi konferentsiyalarda muhokama qilinib, yuzga yaqin sertifikatlar taqdim etilgan.

Sayfullaeva Gulhayo Ixtiyor qizi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha yetarlicha tajribaga egaligi tufayli sakkizta elektron o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Intellektual mulk agentligi Sanoat namunalari bo‘limi tomonidan EHM uchun dasturi rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Shu bilan bir qatorda, Sayfullaeva Gulhayo Ixtiyor qizi o‘nga yaqin uslubiy qo‘llanmalar muallifi bo‘lib, har bir qo‘llanma nusxalari talabalar foydalanishlari uchun institutning axborot-resurs markaziga topshirilgan.



Ilmiy-ijodiy izlanishlari natijasida quyidagi yutuqlarga erishgan:

2011-2012-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi talabalarining fan olimpiadasida 1 o‘rinni egallagan hamda O‘zbekiston

Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining I darajali diplomi bilan taqdirlangan.

2013-2014-o‘quv yilida Respublika iqtidorli talabalari uchun ta’sis etilgan “Ulug‘bek” nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori bo‘lgan.

Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Radioaktiv, kamyob va nodir elementlar texnologiyasi (texnika fanlari) tutash ixtisosliklari bo‘yicha “Mashinasozlik uchun yuqori elektrofizik va antifriktsion-mustahkamlik xossasiga ega termoreaktiv polimer kompozitsiyasi va polimer qoplamalar olish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi dissertatsiyaishini O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, O‘zR FA akademigi, texnikafanlari doktori, professor Negmatov Soyibjon Sodiqovich va texnika fanlari doktori, professor Abed Nodira Soyibjonovna ilmiy rahbarliklarida muvaffaqiyatli himoya qilgan.

“Fizika va astronomiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent

G.I.Sayfullaeva pedagogik faoliyati davomida kafedra a’zolarining, pedagogik jamoaning va talabalar ommasining mehri va ishonchiga, hurmatiga sazovorbo‘lgan.

G.I.Sayfullaeva yuqori malakali mutaxassis, chuqur bilim egasi, mahoratli pedagog ekanligini namoyon etdi. U o‘zining qobiliyati, jamoat ishlarida faol qatnashishi, talabchanligi va mas’uliyatni his eta olishi bilan fakultet va institut jamoasi o‘rtasida hurmatga sazovor bo‘lgan.

G.I.Sayfullaeva 2022-yil sentyab royida O‘zbekiston Respublikasi “Renessans” ilmiy markazi va nashriyot uyi tomonidan tashkil etilgan Xalqaro tanlovda “Renessansdavri: Ilmiy tadqiqotlar yetakchisi” esdalik ko‘krak nishoni va guvohnomasiga ega bo‘lgan.

2021-yil Qozog‘iston Respublikasi Nur-Sultonshahrida o‘tkazilgan Xalqaro Yosh olim tanlovida faxrli 1-o‘rinni egalladi va “BOBEK” xalqaro umummilliy harakati ko‘krak nishoni va guvohnomasiga ega bo‘lgan.

2021-yilda Qozog‘iston Respublikasi Nur-Sulton shahrida o‘tkazilgan Xalqaro Yosh olimlar tanlovida faxrli birinchi o‘rinni egalladi va “Eng yaxshi yosh olimlar” yozuvi tushirilgan ko‘krak nishoni va guvohnomasiga hamda birinchi darajali diplomga ega bo‘lgan.

2021-yilda “Mashinasozlik uchun yuqori elektrofizik va antifriktsion mustahkamlik xususiyatiga ega termoreaktiv polimer qoplamalar olish texnologiyasini ishlab chiqish” ilmiy mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, 02.00.07- Kompozitsion, lok-bo‘yoq va rezina materiallari kimyo va texnologiyasi hamda 05.02.01. - Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish.

G.I.Sayfullaeva o‘z kasbiy faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimiga oid Qaror va Farmoyishlari mazmun-mohiyatini targ‘ib



etishda va ularda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida hamda sifatli ijrosini ta’minlashda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. O‘rta Osiyo, Yevropa, Amerika qit’asining ko‘plab davlatlarida jurnallarda ingliz tilida bosib chiqarildi.

Oilali, 2 nafar farzandning onasi.



TADJIBAYEV SALIMJON SABIRJANOVICH

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim fakulteti dotsenti v.b.

- “Xalq ta’limi fidoiysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan;
- “Yil o‘qituvchisi-96”, “Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi-2006”, “Andijon davlat universitetining eng yaxshi pedagogi-2021” tanlovlari sovrindori;
- Xalqaro va mahalliy jurnallarda ilmiy maqolalari nashr etilgan hamda qirqdan ziyod Xalqarova Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etgan.

Tadjibayev Salimjon Sabirjanovich 1968-yil 28-fevralda Andijon shahrida tug‘ilgan. 1975-1983-yillarda Andijon viloyati Oltinko‘l tumanidagi 11-o‘rta maktabni, 1983-1987-yillari Andijon pedagogika bilim yurti rasm-chizmachilik bo‘limi, 1990-1995-yillarda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti Badiiy-grafika fakultetini tamomlagan. Mutaxassisligi tasviriy san’at va chizmachilik o‘qituvchisi.



Umumiy pedagogik staji-36yil.

Tadjibayev Salimjon Sabirjanovich pedagogik faoliyatini 1987-yilda Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi 10-o‘rta maktabda boshlagan.



1990-1996-yillarda Andijon viloyati Oltinko‘l tumanidagi 11-o‘rta maktabda o‘qituvchi, boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasi raisi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 1996-1999-yillarada Respublika “Iste’dod” Markazi uslubchisi, 1999-2013-yillarda Andijon viloyati Oltinko‘l tumanidagi 11-o‘rta maktabda o‘qituvchi vazifalarida ishladi.

2013-2019-yillarda Andijon viloyati pedagog xodimlarni malakasini oshirish instituti “Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim” kafedrasida katta o‘qituvchi, 2019-2022-yillarda Andijon davlat universiteti Maktabgacha ta’lim fakultetida katta o‘qituvchi, 2022-yil sentyabr oyidan buyon Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim fakultetida dastlab katta o‘qituvchi, hozirgi vaqtda esa dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimida faoliyat yuritmoqda.



Tadjibayev Salimjon Sabirjanovich pedagogik faoliyati jarayonida bir qancha yutuqlarga erishgan. Jumladan:

1996-yilda Buxoro shahrida o‘tkazilgan Respublika “Pedagogik o‘qishlari” ishtirokchisi;

“Yil o‘qituvchisi-96” tanlovi Andijon viloyati bosqichi mutlaq g‘olibi;

“Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi-2006” Respublika tanlovi ishtirokchisi;

2017-yil O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institut huzuridagi malaka oshirish tarmoq markazi tinglovchilari o‘rtasida o‘tkazilgan “Qish jilosi” nomli ijodiy tanlovda amaliy san’at yo‘nalishida 1-o‘rinni egallagan.

2021-yilda o‘tkazilgan “Andijon davlat universitetining eng yaxshi pedagogi” tanlovida 2-o‘rinni egallagan.

1996-yilda “Xalq ta’limi fidoiysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Tadjibayev Salimjon Sabirjanovich bitta o‘quv qo‘llanma, bitta elektron o‘quv

qo‘llanma, o‘ttizdan ziyod Xalqaro va mahalliy jurnallarda ilmiy maqola hamda qirqdan ziyod Xalqarova Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etgan.



2021-yil dekabr oyida Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh gumanitar-pedagogika instituti talabalari uchun “Online” dars mashg‘ulotlari, 2022-yil mart oyida Qoraqalpog‘istonning Kegeyli tuman Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uslubchilariga amaliy-metodik yordam ko‘rsatish maqsadida bir nechta “Mahorat darslari” tashkil etdi.

Ayni vaqtda 13.00.08-Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Bo‘lg‘usi MTT tarbiyachilarining tasviriy faoliyatga oid kompetensiyalarini rivojlantirish” mavzusida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.



TURSUNNAZAROVA ELVIRA TAXIROVNA

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi, O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti “Tarjimonlik” fakulteti "Ingliz tili amaliy tarjimasi" kafedrasi dotsenti v.b.

- A.Navoiy nomidagi davlat stipendiati;
- “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni sohibasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Navoiy viloyat “Kelajak liderlari” klubi boshqaruv kengashi a’zosi;
- Xalqaro va Respublikada 100 dan ziyod ilmiy maqolalar muallifi;
- Turli Respublika tanlovlari sovrindori.

Tursunnazarova Elvira Taxirovna 1990-yil 10-aprelda Navoiy shahrida tug`ilgan. 1996-2007-yillari – Navoiy shahar Abu Rayhon Beruniy nomidagi 2-umumta`lim maktabida tahsil olgan. 2007-2011 yillari Navoiy davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar fakulteti “Ingliz tili va adabiyoti” mutaxassisligi bo`yicha bakalavriat bosqichi va 2011-2013 yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida magistratura bosqichida tahsil olgan.



Hozirda Tursunnazarova Elvira Taxirovna ingliz tili sohasining pedagogik hamda ilmiy jabhalarida faoliyat yuritib kelmoqda. TKT, TESOL, LINGUASKILLS, APTIS kabi sohaga oid xorijiy til bilish darajasini belgilovchi qator sertifikatlar sohibasi E.T.Tursunnazarova kasbiy faoliyatini 2008-2009 yillarda – Navoiy shahridagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabida ingliz tili o‘qituvchisi sifatida boshlagan



Elvira Taxirovna 2015-2017 yillarda – Navoiy viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, “Til va adabiyot ta’limi” kafedrasida o‘qituvchi, 2018-2022 yillarda – Navoiy

viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasida katta o‘qituvchi, 2022 yil - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan muovini lavozimlarida faoliyat yuritgan.



U 2023-yil “Ingliz tilini o‘rganish jarayonida nomutaxassis o‘qituvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda mnemonika usullaridan foydalanish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Uning ilmiy-tadqiqot faoliyati serhosil bo‘lib, Xalqaro va Respublika jurnal va konferensiya to‘plamlarida 100 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilganidadir.



E.T.Tursunnazarova Xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar, o‘quv seminarlarning faol ishtirokchisidir. Jumladan, yosh olima bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida,



2018-yilda “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirish” loyihasi doirasidagi “Chet tilini o‘qitish” moduli asosida seminar-treningda ishtirok etdi. 2019-yilda AQSH Pitssburg davlat universiteti professorlari tominidan tashkil qilingan “Trenerlikka tayyorlov” kursida malaka oshirib maxsus sertifikatga ega bo’ldi. 2020-yilda AQSH departamenti hamda UzSPIC tomonidan tashkil qilingan davlat maktablarida EFL o‘qituvchilarini ingliz tilidan yozish ko‘nikmalarini shakllantirish va baholashni takomillashtirish masalalariga oid loyihada qatnashib maxsus sertifikatni qo‘lga kiritdi.



2021-yil Kemerovo shahridagi Kuzbass mintaqaviy kasb-hunar ta’limini rivojlantirish institutida “Jamoada ishlashni boshqarish. Samarali moderatsiya va fasilitatsiya texnologiyalaridan foydalanish” dasturi doirasida seminar-treningda hamda “Raqamli iqtisodiyot uchun ta’lim va xodim” mavzusidagi davra suhbatida o‘z chiqishlar bilan ishtirok etdi. 2022-yilda NAPEI va

UNESCO APU kafedrasi tomonidan tashkil etilgan “Oliy ta’limda landshaft o‘zgarishini qamrab olish: yaxlit va barqaror o‘sish strategiyalari” mavzusiga bag‘ishlangan Xalqaro vebinarda, qolaversa, faoliyati davomida Texnologiya Georgiya instituti, Tomsk davlat universiteti, Sidney davlat universiteti, Arizona davlat universiteti, Washington davlat universiteti kabi xorijiy ta’lim muassasalarida sohaga oid o‘quv kurslarda muvaffaqiyatli ishtirok etib maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.



E.T.Tursunnazarova O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruv akademiyasida davlat xizmatchilari uchun tashkil etilgan maxsus o‘quv kursida malaka oshirganligi tahsinga loyiq.

E.T.Tursunnazarova ilmiy-tadqiqot, pedagogik faoliyat bilan bir qatorda malakali pedagog sifatida faol ijod qilib, turli xil Xalqaro va Respublika tanlovlarda erishgan katta muvaffaqiyatlari uchun Navoiy viloyat hokimligi, Respublika yoshlar ishlari agentligi, Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi, Innovatsion rivojlanish agentligi kabi nufuzli tashkilotlar sertifikati, faxriy yorliqlar va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

E.Tursunnazarova ilmiy-ijodiy faoliyat bilan bir qatorda tashkiliy ishlarni ham muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Jumladan, 2016-yildan buyon fan sohasini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqot.uz saytida tashkil qilingan ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materillari to‘plamida pedagogika va psixologiya sohalaridagi innovatsion yo‘nalishidagi ilmiy tezislarni tahlillashda tahririyat a‘zosi sifatida amaliy faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

E.T.Tursunnazarova 2021 yilda ZiyoForum Respublika ilm-fan va ta‘limni rivojlantirish fondi tomonidan tashkil etilgan “ZIYOLILAR: yosh tadqiqotchilar almanaxi” loyihasida ishtirok etgan.



O‘zMTDP a’zosi E.T.Tursunnazarova 2018-yilda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy kengashi tomonidan o‘tkazilgan “Donolik va tashabbuskorlik – siyosiy yetakchilik mezoni” shiori ostidagi “XXI asr ayoli” ko‘rik tanlovi Respublika bosqichi g‘olibi, 2021-yil Xitoy Savdo vazirligi homiyligida va Chjesyan provinsyasi Erkin savdoni rivojlantirish kengashi tomonidan tashkil etilgan “Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun inson resurslarini rivojlantirish” bo‘yicha xalqaro seminar ishtirokchisi.



Tursunnazarova Elvira Taxirovna ko‘p qirrali ijodkor pedagog, siyosiy bilimga ega hamda tadbirkor ayol sifatida ham yutuqlarga erishgani tahsinga loyiq.



TOSHPULATOVA SHAXLO OCHILOVNA

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti Fizika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti

- 2 ta darslik, 5 ta o‘quv qo‘llanma 10 dan ziyod uslubiy qo‘llanmalari nashr etilgan;
- Turon fanlar akademiyasining faxriy akademik ilmiy unvoni va ko‘krak nishoni sohibasi;
- Yil ayoli milliy tanlovining “Olima ayol” nominatsiyasi sovrindori.

Toshpulatova Shaxlo Ochilovna 1979-yil 9-martda Navoiy viloyati Karmana tumani Durman qishlog‘ida tug‘ilgan.

1986-1996 yillarda 3-o‘rta ta’lim maktabini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 1996-2001-yillarda Navoiy davlat pedagogika institutining Fizika-mematika fakultetining Fizika va informatika yo‘nalishini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 2002-2004- yillarda Samarqand davlat Universitetining Lazer fizikasi mutaxasisligi bo‘yicha magistraturani ham imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

2004-2010 yillar davomida Navoiy davlat pedagogika institutining “Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi” kafedrasida o‘qituvchi, 2010-2020-yillarda katta o‘qituvchi lavozimida ishlagan.

2019-yilning 20-aprelida 13.00.01– Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha “O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishini O‘zR TFA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor Ibraimov Xolboy Ibragimovich ilmiy rahbarligi muvaffaqiyatli himoya qilgan. 2019-yil 31-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 265/1- sonli bayonnomasiga asosan Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olgan.



2021-yil 30-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 302/1-sonli bayonnomasiga asosan 13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olgan.

2022-yil 31-mayda “Bo‘lajak fizika o‘qituvchisining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari” nomli monografiyasi Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining 10-son qaroriga asosan chop etishga ruxsat etilgan.



Buxoro davlat Universiteti Psixologiya kafedrasi huzuridagi “OT-F1-002-Yoshlarda milliy g‘oya va mafkuraviy – immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari” mavzusidagi fundamental - tadqiqot loyihani amalga oshirishda ilmiy xodim lavozimida faoliyat yuritgan.



2022-yil 5-maydan Ilm-fan va innovatsiyalar akademiyasining SAI-066 raqamli guvohnomasiga asosan “Science and Innovation” nomli Xalqaro jurnalda tahririyat a’zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. 2014-2022-yillarda Navoiy davlat pedagogika institutida Fizika-Matematika fakulteti 3-kurs talabalari orasida “Metodlar birlashganda usullar jangga kirar” nomli o‘quv-metodik an’anaviy fan oyligi va ko‘rgazmali seminar muallifi ham hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining videoselektor tarzida o‘tkazilgan 3-sonli majlis bayonining 38-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida “Bir mahallaga – bitta ziyoli ma’naviy homiy” tamoyili asosida Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi “Furqat” mahalla fuqarolar yig‘iniga biriktirilgan bo‘lib, faoliyati davomida mahalladagi ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy, ta’limiy va tarbiyaviy sohalarda o‘z ko‘magini berib kelmoqda. Ushbu mahallada yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish hamda bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalariga jalb etish borasida samarali faoliyat olib borayotganligi uchun mahalla raisi tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlangan.



2022-yil 10-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezident Adminstratsiyasi rahbari huzurida 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108 sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ijrosi doirasida va “Universitet-maktab-mahalla-oila” modelini yo‘lga qo‘yish maqsadida Konemex tumanidagi 23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Karmana tumani 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabida bitiruvchi sinf o‘quvchilari uchun targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borgan.

Shaxlo Ochilovna 18 yillik pedagogik

faoliyati davomida 1000 dan ortiq shogirdlar 30dan ortiq iqtidorli talabalar bilan samarali faoliyat olib borgan. Bevosita uning rahbarligida “Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi talabasi 4-kurs talabasi Aslonova Elnora va 2-kurs talabasi Azamov Muhammad 2021-yilda Respublika fan olimpiadasida “Fizika” fanidan faxrli o‘rinlarni egallagan va Navoiy davlat pedagogika instituti rektorining II va III darajali diplomi bilan taqdirlangan. Bulardan tashqari, o‘zining tashabbuskorligi, intiluvchanligi, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faolligi, kompyuter texnologiyalaridan yuqori darajada foydalana olish ko‘nikmasiga ega ekanligi, yurtimiz tarixini mukammal bilganligi hamda bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblangan chet tillarini (rus va ingliz tillari) puxta egallaganligi muhim ahamiyatga ega.



Turon fanlar akademiyasi perzidumining 2022-yil 20-fevral 2/02-22 bayonnomasi va 246-FA guvohnomasiga asosan Faxriy akademik ilmiy unvoni va ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.Tabiatan iqtidorli, mohir pedagog va iste’dodli fan fidoyisi 2022-yil “Yil ayoli”milliy tanlovi “Yilning eng faol olima ayoli” nominatsiyasi bo‘yicha viloyat bosqichida 1-o‘rinni Respublika bosqichida 3-o‘rinni egallagan.

Shaxlo Ochilovna ma’naviy jihatdan yetuk inson sifatida bilib, institut jamoasi, qolaversa viloyat jamoasi orasida o‘ziga xos obro‘ va e’tiborga molik pedagog, targ‘ibotchi, tadqiqotchi va olima sifatida hurmatga sazovor inson. 2023-yil 6-yanvardan Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktorant sifatida o‘qishga qabul qilindi. Hozirgi kunda 13.00.02 – Talim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha Kompetensiyaviy yondoshuv asosida bo‘lajak fizika o‘qituvchisining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mavzusida DSc ilmiy darajasini olish uchun ham ilmiy tadqiqot ustida izlanmoqda.



TO‘LIBOYEV HIKMATULLA EGAMOVICH

Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahridagi 9-umumta’lim maktabida tarix fani o`qituvchisi, Turon Fanlar Akademiyasi Faxriy professori

- Turon fanlar akademiyasi ilmiy kengashining qaroriga ko‘ra 2019-yilda faxriy professor ilmiy unvonini berilgan;
- Ilmiy-pedagogik faoliyati mobaynida 20 dan ortiq tarix, siyosatshunoslik fanlaridan o‘quv uslubiy qo‘llanma nashr ettirgan;
- O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanlaridan o‘zbek va rus tillarida o‘quv qo‘llanmalari chop ettirgan.

Tulibayev Hikmatulla Egamovich 1961-yil 11-may kuni Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanida dehqon oilasida tavallud topgan. Ma’lumoti oliy. 1987 yilda Toshkent davlat universiteti (*hoz. O‘zbekiston milliy universiteti*)ning sharqshunoslik fakultetini fors va arab tillari mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan. 1979-1981-yillarda harbiy xizmatda bo‘lgan.

Talabalik yillarida kurs sardori, harbiy o‘quv vzvodi komandiri va fakultetning sport instruktori kabi jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etgan.



1987-yilda Toshkentda o‘tkazilgan Osiyo va Tinch okeani ko‘rfazi davlatlarining xalqaro forumida tarjimon sifatida faoliyat olib borgan.

1987-1989-yillarda Sobiq Ittifoq Mudofa vazirligining buyrug‘i bilan Afg‘oniston Respublikasiga harbiy komandirovkaga safarbar etilgan. Xizmat jarayonida sobiq Ittifoq va Afg‘oniston Respublikasi medallari bilan taqdirlangan.



1989-1998-yillar davomida komsomol, sovet va madaniyat sohalarida rahbarlik vazifalarida mehnat qilgan.

1998-1999-yillarda Jizzax viloyati xokimi Shavkat Mirziyoevning yo‘llanmasi bilan O‘zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasining “Tashqi iqtisodiy aloqalar va davlatlararo munosabatlar” fakultetida tahsil olgan. Akademiyada “Markaziy Osiyo o‘ziga xos geosiyosiy mintaqa” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini a’lo baholarga himoya qilib “Xalqaro munosabatlar” magistri ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan.

1999-2004-yillarda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida diplomatik kurslar rahbari, so‘ngra O‘DJQNA kafedrasida katta o‘qituvchi vazifasida ishlagan. 2003-yilda Misr Arab Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi taklifi bilan Misr diplomatiya Akademiyasida tahsil olib qaytdi.



Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy strategiya maktabida, 2004-yildan esa Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida avval katta o‘qituvchi, 2008-yildan dotsent vazifalarida faoliyat yuritgan.

Oliy o‘quv yurtlarida siyosatshunoslik, O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanlaridan o‘zbek va rus tillarida o‘quv qo‘llanmalari chop ettirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasida 23.00.02 siyosiy institutlar va jarayonlar ixtisosligi yo‘nalishida “Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishi muammolari” mavzusida nomzodlik ishlarini yozgan. Respublika OAK tarkibiga kiruvchi ilmiy jurnallarida rus va o‘zbek tillarida 10 dan ortiq ilmiy maqolalari bosilib chiqdi. Bulardan tashqari tuman, viloyat va respublika gazetalarida ijtimoiy va siyosiy yo‘nalishlardagi maqolalari chop etiladi.



Fors, ingliz tillarini mukammal, arab va turk tillarini esa lug‘at yordamida biladi. Xizmat yuzasidan dunyoning Afrika, Osiyo va Yevropa qit’alari davlatlarida safarlarda bo‘lgan.



2018-yil sentyabr oyidan Yangiyo‘l shahridagigi 9-umumta’lim maktabida tarix fanidan dars bermoqda.

Hikmatulla akaning xobbisi sportning futbol, voleybol, stol tennisi turlaridir va bu sport turlari bo‘yicha o‘tkazilgan tuman, viloyat va respublika miqyosidagi musobaqalarda ishtirok etgan. Bulardan tashqari kitob o‘qish, siyosat, adabiyot,

geografiya va astronomiya fanlariga ham qiziqadi.



Ilmiy-pedagogik faoliyati mobaynida 20 dan ortiq tarix, siyosatshunoslik fanlaridan o‘quv uslubiy qo‘llanma nashr ettirganligini inobatga olib Turon fanlar akademiyasi ilmiy kengashining qaroriga ko‘ra 2019-yilda faxriy professor ilmiy unvonini berilgan.

Hikmatulla aka To‘liboev oilali, 5 nafar farzandning otasi, 14 nafar nabiraning suyukli bobosidir.



UMAROV ERKIN MARIFJONIVICH

Shoir, adib, jurnalist, oliy toifali pedagog

- “Ta’lim fidoyisi”, “Intellektual izlanuvchi”, “Tashabbuskor islohotchi” hamda “Iste’dod” ko‘krak nishonlari sovrindori.
- “Rangin tuyg`ular”, “Mehr sohili”, “Satrlarda hayotim” nomli kitoblari nashr etilgan.
- “Bo‘stoniy” taxallusi bilan ijod qilib kelmoqda.
- Uning she’rlari, hikoyalari va maqolalari yurtimizning nufuzli gazeta va jurnallarida chop etib kelinmoqda.

“Ta`lim fidoyisi”, ‘Intellektual izlanuvchi, “Tashabbuskor islohotchi” hamda “Iste’dod” ko‘krak nishonlari sovrindori, shoir va adib, jurnalist hamda Oliy toifali pedagog Umarov Erkinjon Marifjonovich 1987-yil 30-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Andijon viloyati Bo‘ston (sobiq Bo‘z) tumanida ziyoli oilada dunyoga keldi. Otasi Umarov Marifjon tumandagi 14-sonli umumta’lim maktabida matematika fanidan dars bersa, onasi Umarova Muharramxon tuman Bolalar shifoxonasida Oliy toifali hamshira bo‘lib faoliyat yuritgan. Oilada to‘ng‘ich farzand bo‘lgan bo‘lajak ijodkor bolalikdanoq o‘zining she’riyatga, san’atga oshufta ekanligini namoyon qildi. Zero, u tarbiyalangan Bo‘ston tumanidagi 13-Maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlari ham, boshlang‘ich ta’limni olgan tumandagi 14-sonli umumta’lim maktabi jamoasi ham hali-hanuz Erkinjonning bolalik chog‘laridanoq doimo she’r bilan, musiqa bilan birga



bo‘lganini e’tirof etadilar.

Qahramonimiz boshlang‘ich ta`limni 14-maktabda olgach, 5-sinfdan 9-sinfga qadar tumandagi 27-sonli Davlat Ixtisoslashtirilgan maktab internatda tahsil oldi. DIMIni imtiyozli qizil shahodnoma bilan tamomlagan Erkinjon 2002-yilda Andijon Davlat Universiteti qoshidagi 10-sonli litseyda o`qishni davom ettirdi. Shu davrdan boshlab uning yozgan she’r va hikoyalari matbuotda yoritila

boshlandi.Erkinjon bolalaigidan ijodkor jurnalist bo‘lishni orzu qilardi. Bu orzu uni 2004-yil litseyni muvaffaqiyatli tamomlagach Toshkentga, O‘zbekiston Milliy Universiteti jurnalistika fakultetiga olib keldi. Imtihonlardan yuqori ballni qo‘lga kiritgach, 2004-2008-yillar davomida davlat granti asosida muhtasham oliygohda o‘qidi. Bu dargohda ulug‘ ustozlar: Omonulla Madayev, Ulug‘bek Dolimov, Qudrat Ernazarov, Muxtor Xudoyqulov, Nurboy Jabborov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Nasimxon Rahmon, To‘lqin Eshbek hamda Uzoq Jo‘raqulovlardan jurnalistika va adabiyot sirlarini o‘rgandi. Ijodkor bir umr bu ustozlarga ehtiromda yashaydi.



Erkinjon Umarov O‘zbekiston Milliy Universitetini Imtiyozli diplom bilan tamomlab, Toshkendagi “Media+” gazetasida muhbir bo`lib ishladi. 2008-2012 yillar davomida bu dargohda davrimizning zabardast ijodkorlari Sirojiddin Rauf, Olimjon O‘sarov, Musallambonu Umirova, Sulaymon Haydar Kasbiy, Dilfuza Qo`ziyevalardan ta`lim oldi, ijod sirlarini o`rgandi.

Gazetadagi qizg‘in faoliyatidan so‘ng qonida o‘qituvchi zarralari oqayotgan Erkinjon Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Univertsitetiga hujjat topshirdi, 2015-yil mazkur oliygohni tamomlab, o‘zbek tili va adabiyoti fani o`qituvchisi diplomiga ham ega bo`ldi. Bu orada o‘qish bilan birgalikda 2012-2017-yillar davomida o‘zi tug‘ilib o‘sgan tumandagi 26-umumta’lim maktabida ona tili va adabiyot fanidan dars berdi. 2017-2021-yillar davomida Andijon viloyati Ulug‘nor tumanidagi 21-umumta’lim maktabida ishladi. 2021-yildan Samarqand viloyati Nurobod tumani 64-umumta’lim maktabida Oliy toifali o‘qituvchi bo‘lib ishlab kelmoqda. Oilali, uch nafar farzandi: bir o‘g‘il va ikki qizi bor. Turmush o‘rtog‘i Azizaxon Umarova bilan hayotlarini baxt va saodat bilan yashamoqdalar.

Erkinjon Umarov hayoti haqida so‘zlaganda, o`zini dunyodagi eng baxtli, omadli insonlardan deb biladi. Chunki ziyoli oilada tug‘ildi, ixtisoslashtirilgan, “a`lo” baholarga o‘qiydigan o‘quvchilar bilan o‘rta maktabni bitirdi. Nufuzli Oliygohlarda ta’lim oldi. Eng asosiysi — ozod va obod, tinch va farovon yurtda yashab, ijod qilmoqda.

Erkinjon Umarov ijod olamiga “Bo‘stoniy” taxallusi bilan kirib keldi. Bu borada u ustozi, hammaslagi shoir va adib, “Yurt kelajagi’ Respublika tanlovi g‘olibi Ikromjon Asliy Andijoniyga rahmat aytadi. Chunki Ikromjon Asliy 2002-yildan buyon Bo‘stoniydan yordamini ayamay kelyapti.



Uning 2021-yilda ilk kitobi — she’rlar va hikoyalardan iborat “Rangin tuyg`ular” nomi bilan nashrdan chiqdi hamda o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi. Kitob borasida Erkinjonga juda iliq fikrlar hamda munosabatlar bildirildi. Bundan ilhom olgan qahramonimiz faoliyat olib borayotgan Nurobod tumani Tim qishlog‘i ijodkorlarining asarlarini to‘plab, o‘zi

moliyalashtirib va muhharrirlik qilib 2022-yil ‘Tim salomi” nomli kitobni chop ettirdi. Bu esa ijodkorning ish faoliyatiga ijobit ta`sir qildi. Kitob yuzlab samarqandlik o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi. “Rangin tuyg‘ular” hamda “Tim salomi” haqidagi maqolalar Samarqand viloyatining markaziy nashri — “Zarafshon” gazetasida bosilib chiqdi. Mazkur e’tiroflar Erkinjonning kuchiga kuch, kayfiyatiga kayfiyat qo’shdi. 2022-yil aprel oyida uning nisbatan salmoqli, o`z ichiga she`rlar, dostonlar, hikoyalar, esse va badialarni olgan “Mehr sohili” nomli kitobi nashr qilindi. Shu - yili Erkinjon mazkur kitobini xalqaro MDH miqiyosidagi “Tashabbuskor islohotchi” tanloviga yubordi va g‘oliblar qatorida shu nomdagi ko‘krak nishoni va ko‘krak nishoni belgisiga ega bo‘ldi. 2022-yilning avgust oyida ustozi Ikromjon Asliy bilan hamkorlikdagi “Satrlarda hayotim” nomli kitobi chop etildi. Ayni kunlarda uning “Samarqand “segoh”i” nomli kitobi nashrdan chiqish arafasida.



Erkinjon Umarov adabiy asarlar bilan birga ilmiy ishlar bilan ham shug‘ullanmoqda. U o‘zbek adabiyoti vakillari: O‘zbekiston Xalq shoiri To‘lan Nizom, shoirlar Olimjon Xoldor, Farmon Toshev, Halim Karim ijodlari borasida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ilmiy ishlarini xalqaro tanlovlarga yubordi. Tanlovlarda g‘olib bo‘lib, 2022-yil “Renessans davri: ilmiy tadqiqotlar yetakchisi”, “Intellektual izlanuvchi” ko‘krak nishonlari sohibi bo‘ldi.



Erkinjon Umarov Bo‘stoniy nafaqat o‘zi, balki shogirdlarining ham ilk kitoblari nashr qilinishida bevosita va bilvosita harakat qilmoqda. 2022-yil Nurobod tumani Oymaxol qishlog‘ida yashovchi ijodkor Mehribonu To‘lqinovaning “Parvoz zavqi” deb nomlangan kitobini nashr ettirgan bo‘lsa, 2023-yil timlik ijodkor qiz Fayuza Murtozayevaning “Kelajakka boraman” nomli she’riy to‘plamini chop ettirdi. Galdagi katta maqsadi nurobodlik ijodkorlar asarlarini yig‘ib almanah nashr ettirish, o‘zining 4 jildlik Saylanma kitobini chop ettirish. Ayni kunlarda Bo‘stoniy “Tog‘ yo‘lbarsi” nomli tarixiy romannini yozmoqda.

Erkinjon Umarov 2023-yil yanvarda “Ta`lim fidoyisi”, mart oyida “Iste`dod” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlandi. Adabiy-badiiy hamda publitsistik maqolalari, she’r va hikoyalari “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati’, “Zarafshon”, “Andijonnoma’ , ‘Namangan haqiqati» hamda “Bekajon’ gazetalarida nashr qilingan.

Erkinjon doimo yaxshilikka ishonib, intilib yashaydi. Hayotdagi shiori — ishonch muvaffaqiyat kaliti, mehnat — zafarlar darvozasi.



UMAROVA ILMIRA DJURAYEVNA

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi Artel Technical School Maktabi direktori

- O’zbekiston “UZLIDEP” partiyasi a’zosi;
- “O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligi“ esdalik nishoni sohibasi;
- “O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi“ esdalik nishoni sohibasi;
- “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko’krak nishoni sohibasi;
- “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun” medali bilan taqdirlangan;

Faoliyati davomida faxriy yorliqlar hamda tashakkurnomalar bilan taqdirlangan;



Xalqaro ilmiy-amaliy konfirensiyalarda ishtiroki uchun “Sertifikat”lari bian taqdirlangan;





Umarova Ilmira Djo’rayevna 1969 yil 22 avgust kuni Toshkent shahrida ishchi oilasida tavallud topgan. Ma’lumoti - oliy.

U 1976 yili Toshkent hahar Uchtepa (sobiq Akmal Ikromov) tumanidagi 77- maktabga o’qishga qabul qilingan. 1986 yilda mazkur maktabni a’lo baholarga bitirgan.



1987-yildan 1996- yilgacha oilaviy sharoitiga ko’ra tikuv sexiga chevar bo’lib ishga qabul qilingan.



U 1998 yilda Sergeli tumanidagi 300-DIUM ga mehnat fani o’qituvchisi lovozimiga ishga qabul qilingan hamda avval amalga oshmagan orzusiga yetishish maqsadida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetini O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi bo’yicha hujjatlarni topshirdi va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o’tib o’qishg qabul qilindi.

2000-yildan 2005-yilgacha O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishida tahsil olib, shu yo’nalish mutahasisligiga ega bo’ldi.



1998-yildan 2000- yilgacha 300-DIUM da dastlab mehnat fani o’qiyuvchisi, 2000-yildan 2009-yilga qadar ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi, 2009-2014-yillar davomida Ma’naviy- ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari lavozimida ishlab kelgan.



2014- yildan 2023-yilning iyul oyiga qadar Yangihayot (sobiq Sergeli) tumaniga director lavozimiga tayinlandi.

2023-yilning iyul oyidan boshlab Artel Technical School da Direktor lavozimida ishlab kelmoqda.



Maktabda yuqori tashkilot-lardan kelayotgan topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda. Direktorlik faoliyati mobaynida ta’lim muassasasi mukammal ta’mirlashdan chiqarildi, maktabda ta’lim sifatini oshirish uchun barcha sharoitlar yaratildi.



Maktabda tahsil olayotgan o’quvchilarning individual hohish-istaklari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda matematika, ingliz tili, kimyo hamda biologiya fanlari bo’yicha variativ o’quv jarayoni tashkil etilgan.

Maktab o’quvchilari “Eng yaxshi kitobxon”, “Zakovat”, “Mening prezidentim” insholar tanlovi kabi ko’rik tanlovlarda faol ishtirok etib sovrinli o’rinlarni qo’lga kiritib kelmoqdalar.



Rahbar sifatida u ta’lim muassasasida o’quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etib kelmoqda. Maktabda ta’lim sifatiga katta e’tibor berib berilmoqda, o’quvchilar uchun fan hamda kasbga yo’naltirilgan to’garaklar tashkil etilgan.



Pedagog o’qituvchilrning malakasini oshirishga katta e’tibor qaratilgan bo’lib,

toifa hamda sertifikatlarga ega bo’lganlar foizi ortib bormoqda.



Natijada I.D.Umarova direktorlik faoliyatini boshlagan yilda maktab bitiruvchilari 9% zi oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirishgan bo’lsa bugungi kunga kelib bu ko’rsatgich 60% dan oshmoqda.



2021 yilda O’zbekiston respublikasi mustaqilligining 30 yilligi hamda 8 — maktab tashkil topganligining 40 yilligiga bag’ishlangan “Yangi O’zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi” shiori ostida kata tadbir o’tkazilgan.



Tadbirda faxriy muallimlar, sobiq maktab o’qituvchilari hamda mahalla faollari faol ishtirok etdilar.







U yosh avlodni tarbiyalashda erishilgn yutuqlari uchun Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xokimligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi, Yagihayot tumani xokimligi hamda Yangi hayot xalq ta’limi bo’limi tomonidan bir qator taqdirlangan.

Oilali uch nafar farzandi bor.



VARDIYASHVILI AFDANDIL ASQAROVICH

Texnika fanlari nomzodi, Qarshi davlat universiteti Fizika fakulteti Muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari kafedrasi mudiri

- Turon Fanlar Akademiyasi a’zosi;
- 2016-2020 yillarga mo‘jallangan Yevropa ittifoqining “Erasmus+” “RENES: Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror atrof-muhit sohasida magistrlik dasturini ishlab chiqish” loyihasiga rahbarlik qilgan;
- 2012-2018 yillarga mo‘lajallangan davlat ilmiy texnik dasturlari doirasida bajarilgan loyihasiga rahbarlik qilgan.

Vardiyashvili Afandil Asqarovich 1999-yilda S.A.Azimov nomidagi O‘zRFA “Fizika-Quyosh” IIB fizika-texnika institutida 05.14.05-Issiqlik texnikasi nazariy asoslari va 05.14.08 -“Qayta tiklanadigan energiya turlari asosida energiya qurilmalari” ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bordi va 2009-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.



2009-yil Qarshi davlat universiteti, “Issiqlik fizikasi va energetikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, universitet rektorining 2011-yil 11-oktabrdagi 505 X-sonli buyrug‘iga asosan “Issiqlik fizikasi va energetikasi” kafedrasi dotsenti lavozimiga tayinlangan.

2012-yil “Issiqlik fizikasi va energetikasi” kafedrasi mudiri, 2014-2020-yillar Kasbiy ta’lim kafedrasi mudiri, 2021-yildan Fizika fakulteti Muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari kafedrasi mudiri lavozimida ishlab kelmokda.



A.Vardiyashvilining Rossiya, Germaniya, Kursk, Chita, Qirg‘iziston, Toshkent, Samarqand, Namangan, Farg‘ona shaharlarida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda o‘zining ilmiy maqolalari va ma’ruzalari bilan qatnashgan.

Hozirgi kunga qadar 1 ta darslik, bir necha uslubiy qo‘llanmalar, 90 ga yaqin ilmiy, o‘quv-uslubiy, ommabop ishlar va ikkita monografiya nashr etilganini, uning rahbarligida 2 ta (PhD) dissertatsiya 05.05.06 – “Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari” ixtisosligi bo‘yicha texnika fanlari falsafa doktori (PhD) darajasini olganligini, 15 ta magistrlik dissertatsiyasi va 40 dan ziyod bakalavrlik bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilgan.



2012-2018-yillarga mo‘lajallangan davlat ilmiy texnik dasturlari doirasida bajarilgan DITD-13-031, ITD-4-15, A-4-47 loyihalarga rahbarlik qilgan. 2012-2014 yillarga mo‘ljallangan ITD-4-15 -Noan’anaviy energiya manbalaridan foydalanib ishlaydigan kombinatsiyalashgan quyosh qurilmasi “Issiqxona-suv chuchutgich-meva sabzavot omborxona” loyihasiga rahbarlik qilgan.



“Muqobil energiya manbalaridan foydalanishning dolzarb muammolari” mavzusidagi 2014-2017-2019-2022 yillar 28-29 aprel kunlari Qarshi davlat universiteti “Muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari” kafedrasida o‘tkaziladigan Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik konferensiyasini tashkil etgan.



2011-yil 23-dekabr № FAP 00683 “O‘simlik mahsulotlarini saqlash va yetishtirish uchun tejamkor uyg‘unlashgan qurilma” mavzusida foydali modelga patent olgan.



Kafedra dotsenti A.A.Vardiyashvili 2022-yil 17-21-oktabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan Xalqaro innovatsion g‘oyalar xaftaliligi “InnoWeek.Uz-2022” da ilmiy ishlanmalari bilan ishtirok etdi.



2016-2020-yillarga mo‘jallangan Yevropa ittifoqining “Erasmus+” “RENES: Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va

barqaror atrof-muhit sohasida magistrlik dasturini ishlab chiqish” loyihasiga rahbarlik qilgan. Loyiha dasturi doirasida Bolgariya, Shvetsiya, Germaniya va Italiya davlatlarida tashkil etilgan seminar va malaka oshirish kurslarida faol qatnashgan.



“Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” laboratoriyasini Germaniya va Ispaniya davlatlarda ishlab chiqarilgan 40 ming yevrolik 10 turdagi laboratoriya jixozlar bilan tashkil etgan.



2022-yil may oyida BIMM da, TDTU xuzuridagi PKQT va UMO tarmoq markazida 2019-yil 85 ball va 2019-yil Berlin texnik universitetida qisqa muddatli malaka oshirish kurslarni muvofaqqiyatli tugatgan.



2020-yil Oloviddinov Saidkabir Muxammad Yaxiye o‘g‘li Mukobil energiya manbalaridan foydalanishning ilmiy asoslari fani bo‘yicha Respublika fan olimpiadasida sovrindori bo‘lganlini aytib o‘tdi.



Vardiyashvili A.A. Mukobil energetika tizimdagi fanlarni murakkab tomonlarini talabalar va magistrlarga o‘rgatishda ko‘mak berib kelmoqda, universitetdagi barcha jamoat ishlarida faol qatnashadi, jamoamiz orasida hurmatga ega, ma’suliyatli, to‘g‘ri so‘z, talabchan, o‘rtoqlariga nisbatan mehribon va g‘amxo‘r xodim sifatida obro‘-e’tiborga ega.



XAKIMOV ALISHER OLIMJONOVICH

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti dotsenti

- “For joining Editorial Board of Zien Journal of Social Sciences and Humanities” xalqaro ilmiy jurnal tahrir a’zosi;
- Xalq ta’limi a’lochisi;
- “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” ko‘krak nishoni sohibi.

Xakimov Alisher Olimjonovich 1981-yil 13-iyunda Jizzax viloyati Jizzax shahri ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Millati - o‘zbek. 1998-yilda o‘rta maktabni tugatib, O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasiga o‘qishga kirgan. 2003-yil Akademiyasini muvoffaqqiyatli tugallab Jizzax viloyati Ichki Ishlar Boshqarmasi XOOB profilaktika inspektori bo‘lib ishlagan. 2007-2009-yillarda O‘zbekiston Milliy Universitetining huquqshunoslik yo‘nalishi magistratura bo‘limida o‘qigan.



2019-2023-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Univesitetining jismoniy madaniyat yo‘nalishida o‘qigan. 2022-yil ilmiy ishini muvaffaqiyatli yakunlab falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan. 2009-2013-yillarda Jizzax viloyati Huquqshunoslik kolleji kasbiy ta’lim bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 2013-2017-yillarda sentyabrdan Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universitetining “O‘zbekiston Tarixi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, 2017-2019-yillarda Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq filialining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari 2019-2022- yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Chet tillar fakulteti yoshlar masalalari bo‘yicha dekan muovini,

2022-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “Talabalar sporti Assotsiatsiyasi” huquqshunosi, 2022-yildan Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Televizion texnologiyalari” fakulteti yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan muovinining lavozimida ishlab kelmoqda. U dastlab 1999-2006-yillarda Ichki ishlar tizimida muvaffaqiyatli ishladi. Rahbariyat tomonidan mehnat faoliyatida faxriy yorliqlar oldi.



2010-yil Respublika miqyosida o‘tkazilan “Konstitutsiya bilimdoni” ko‘rik tanlovida faxrli 3-o‘rinni egallagan.



2014-2015-yillarda Respublika miqyosida o‘tkazilan “Tafakkur sinovlari” ko‘rik tanlovida Toshkent shahar bosqichida faxrli 2-o‘rinni egallagan.

2018-yil Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 1-oktyabr “U‘stoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

2019-yil Toshkent shahrida o‘tkazilgan sportning “Badminton” turi bo‘yicha Oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida faxrli 3-o‘rinni egalladi.

2020-yil Oliy ta’lim muassasalari miqyosida o‘tkazilan sportning “voleyboll” turi bo‘yicha faxrli 2-o‘rinni egalladi.

2022-yil avgust oyida Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga musharraf bo’ldi.

A.Xakimovning 40 dan ortiq ilmiy maqolasi nufuzli ilmiy jurnallarda va ilmiy anjumanlar to‘plamlarida chop etilgan.



A.Xakimov mehnati faoliyati davrida professor-o‘qituvchilar, ishchi xodimlar bilan xushmuomala, tashkilotchilik faoliyat olib borishi bilan, mehnatkashligi, mas’uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat’iy harakat qilish, mutaxassislik fanlarini yaxshi o‘zlashtirganligi hamda darslarni tashkil etishdagi yuqori natijalari, muassasa strategik maqsadlariga erishishni ta’minlash, masalalar yechimiga ijodiy va tahliliy yondashishi, kamtarligi va kirishimligi bilan alohida ajralib turadi.



Xakimov Alisher Olimjonovich ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni axborot



texnologiyalarini qo‘llagan holda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘tmoqda. Uning pedagogik mahorati o‘quv-uslubiy bo‘limi, institutning ta’lim sifatini nazorat qilish hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limlar tomonidan muntazam o‘tkazib kelinadigan “Pedagog – talaba nigohida” so‘rovnomalarida talabalar tomonidan yaxshi baholangan.

Kafedra professor-o‘qituvchilari jamoasi, fakultet ilmiy-uslubiy Kengashi a’zolari va institut o‘quv-uslubiy kengash xodimlari Xakimov Alisher Olimjonovich ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarini olib borish faoliyatini tahlil qilib, uning pedagogik faoliyatiga yuqori baho bergan.



Dars jarayonida zamonaviy pedagogik va uslubiy yutuqlardan samarali foydalanib kelayotganligini alohida ta’kidlangan. Dars mashg‘ulotlarini “ZiyoNet” axborotresurs portali materiallaridan foydalangan holda o‘tkazishda va talabalar bilan o‘quvtarbiyaviy, ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazishda tashkilotchi va faol pedagogdir.

Hozirda “Globallashuv sharoitida tasavvuf ta’limotining ijtimoiy-falsafiy, tarbiyaviy-axloqiy va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati (qiyosiy-germenevtik tahlil)” mavzusida (DSc) doktorlik ilmiy ishi olib borilmoqda.



XOLMUROTOV MANSURBEK ZARIPBAYEVICH

Qishliq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent davlat agrar universiteti O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasi mudiri, dotsent

- 100 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan;
- 4 ta monografiya va 2 ta o‘quv qo`llanma muallifi;
- 2 ta tayanch doktorant va ko‘plab magistrlarga ilmiy rahbarlik qilgan.

Xolmurotov Mansurbek Zaripbayevich 1982-yil 1-sentabrda Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanida tug‘ilgan. 1988-1997-yillari 2-umumta’lim maktabida, 1997-2000-yillari 15-son kasb-hunar maktabi, 2000-2004-yillari Toshkent davlat agrar universitetida o‘rmonchilik ishi yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bosqichi va 2004-2006-yillari Aholi yashah joylarini ko‘kalamzorlashtirish va landshaftli qurilish mutaxassisligi bo‘yicha magistratura bosqichi, 2007-2009-yillari aspiranturada tahsil olgan. 2018-yilda “Handon pista plantatsiyalarini barpo etishda uning istiqbolli nav va shakllarini asoslash” mavzusida qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasini himoya qilgan.

Mehnat faoliyatini 2006-2015-yillari Toshkent davlat agrar universiteti O‘rmonchilik kafedrasi assistenti sifatida boshlagan. 2015-2018-yillari Manzarali bog‘dorchilik kafedrasi katta o‘qituvchisi, 2018-2020-yillarda dotsent, 2020-2021-yillari Manzarali bog‘dorchilik kafedrasi mudiri, 2021-yildan O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



Ilmiy faoliyati davomida O‘rmonlarning bioxilma xilligini saqlash, mahsuldorligini oshirish, aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish muammolarini yechishga qaratilgan bir qancha ilmiy loyihalarda ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2017-2018-yillarda “Landshaft dizayni uchun manzarali butalar ona kolleksiyasini barpo

etish”, 2020-2022-yillarda “Asal beruvchi daraxt, buta turlari va ularning plantatsiyalarini joylashtirish texnologiyasi”, 2022-2023-yillarda “O‘rmon fondining tog‘oldi maydonlarida xandon pistaning (*Pistacia* L.) xorijiy navlari plantatsiyalarini barpo etish agrotexnologiyasini ishlab chiqish”, 2023-2024-yillarda bajariladigan “Yangi yaratilgan pista navlarini rayonlashtirish” mavzusidagi loyihalarda ma’sul bajaruvchi bo‘lib ishlab kelmoqda.



Shuningdek, 2018-2020-yillar davomida Bioversity/UNEP-GEF “O‘zbekistonning qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish tizimlarida ekosistemalarni boshqarish va qo‘llab-quvvatlash funksiyalarini yaxshilash uchun qishloq xo‘jalik ekinlari bioxilma-xilligini saqlash va undan barqaror foydalanish” loyihasida konsultant sifatida ishtirok etgan.



Ilmiy-tadqiqot faoliyati davomida M.Xolmurotov xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etib 100 dan ortiq ilmiy maqolalar nashr ettirgan. 2010-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan “O‘rmon va mevali turlar bioxilma xilligini saqlash va barqaror foydalanish” mavzusidagi respublika yosh olimlar konferensiyasida “Eng yaxshi ma’ruza” nominatsiyasida birinchi o‘rinni olgan. 2013-yil Xitoyning Pekin shahrida Xalqaro bioxilma xillikni saqlash bo‘yicha o‘tkazilgan simpoziumda ma’ruza bilan ishtirok etgan.



2020-yil mart oyida Turkiyaning Karabuk universiteti bilan “Mevlana almashuv dasturi” (Mevlana exchange program) doirasida O‘rmonchilik yo‘nalishi bo‘yicha talabalar va professor-o‘qituvchilarni o‘zaro almashuv yuzasidan shartnoma imzolanishiga erishilgan.



2020-yilda Qozog‘iston milliy agrar universitetida onlayn tarzida o‘tkazilgan yozgi maktabda Agroturizm yo‘nalishi bo‘yicha ishtirok etib, ushbu yozgi maktab doirasida o‘tkazilgan Startap loyihalar tanlovida ishtirok etib 3-o‘rinni egallagan.

2022-2023-yillarda kuz-bahor mavsumidagi Respublika “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Respublika ekspert guruhi a’zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi ilmiy-texnik kengash a’zosi.



XOLNAZAROVA MATLYUBA XOLBO‘TAYEVNA

Psixologiya fanlari nomzodi,
Guliston davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya
kafedrasi professori

- “Oliy ta’lim muassasining eng yaxshi pedagogi” tanlovi Universitet bosiqichining “Eng yaxshi pedagog tadqiqotchi” nominatsiyasi g‘olibi;
- Rivojlanish psixologiyasi va umumiypsixologiya” yo‘nalishi bo‘yicha o‘z maktabini yaratgan;
- 2023-yil “Mo‘tabar ayol” davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Xolnazarova Matlyuba Xolbo‘tayevna 1963-yil 2-iyunda Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida ziyoli oilasida tavallud topgan. 1979-yilda Jizzax tumanidagi 22-son o‘rta maktabni oltin medal bilan bitirgan. 1984-yilda Toshkent Davlat Madaniyat institutini a’lo baholar bilan, 2004-yil Toshkent Davlat pedagogika universitetini, 2006-yil O‘zbekiston milliy universitetini a’lo baholarga bitirgan. Xolnazarova Matlyuba Xolbo‘taevna umumiy mehnat staji 44 yil, ushbu lavozimda 2021-yildan buyon faoliyat ko‘rsatmoqda. Psixologiya fanlari nomzodi, kafedra professori. U o‘zining mehnat faoliyatini 2003-yildan ushbu universitetda ilmiy xodim, o‘qituvchi lavozimlarida ishlashdan boshlagan. “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent, kafedra professori lavozimlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-fevraldagi 32-sonli qaroriga asosan o‘tkazilgan “Oliy ta’lim muassasining eng yaxshi pedagogi” tanlovi Universitet bosiqichining “Eng yaxshi pedagog tadqiqotchi” nominatsiyasi g‘olibi.



M.Xolnazarova 5 ta monografiya, 5 ta darslik, 8 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta risola, 4 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 5 ta patent, 30 dan ortiq o‘quv-uslubiy majmua va ko‘rsatmalarning muallifi, 150 dan ortiq ilmiy maqola va axborotlari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy jurnal va to‘plamlarda chop etilgan. 1 ta innovatsion ilmiy loyihasi hamda 10 ta korporotiv shartnomasi amalga oshirilgan.

Olib borgan tadqiqotlari natijalari va ishlanmalari asosida Respublika fanining rivoji va yutuqlariga alohida hissa qo‘shgan.



M. Xolnazarova tashabusi bilan universitetda pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi, pedagogika va psixologiya magistratura va pedagogika, psixologiya mutaxasisliklari uchun doktarantura ochildi. Ilmiy rahbarligida 5 ta doktor (PhD) doktorlik dissertasiyasi tayyorlanmoqda. 4 nafar talaba respublika miqyosida o‘tkazilgan tanlovlarda faxirli o‘rinlar olgan. Respublika miqyosida OTM va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida innovatsion hamkorliklar holatini o‘rganish bo‘yicha psixologiya yo‘nalishi ishchi guruh tarkibida faoliyat olib borib, innovatsion hamkorliklarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar beradi va seminarla rtashkil etadi.



2012-yildan buyon universitet bazasida tashkil etilgan “Psixologiya kafedrasida ilmiy-amaliy markazi”ga rahbarlik qiladi. Markazda psixologik muammolari bilan bog‘liq holda tadqiqotlarni olib borishni tashkil etish va muvofiqlashtiruvchi Kengashning umumta’lim maktablari sho‘basiga raislik qiladi.

M. Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi va umumiypsixologiya” yo‘nalishi bo‘yicha o‘z maktabini yaratgan. Uning tarbiyalagan shogirdlariO‘zR FA institutlarida, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida, oliy ta’lim muassasalarida va ishlab chiqarish korxonlari muassasalarda hamda umumta’lim maktablarida faoliyat olib bormoqdalar.M. Xolnazarovaning 44 yillik mehnat faoliyati bevosita Guliston davlat universiteti va fakultet hayoti bilan bog‘liqdir.



Kafedradagi ilmiy faoliyati davomida yosh avlodga milliy g‘oyaning mazmun mohiyatini singdirish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha aniq dastur asosida faoliyat olib boradi. Uning faoliyati asosida talabalar turar joylari, yoshlar markazi, sport maydonlari va kutubxonalarda talabalarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etishlari uchun aniq dasturga ega bo‘lgan reja va tadbirlar ishlab chiqilgan. Hafta kunlarida yo‘nalish talabalari bilan suhbatlar, taniqli olim va mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil etiladi. Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini

olish va tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi tashkilot va muassasalar bilan doimiy hamkorlikda faoliyat olib borib, psixologik maslahatlar, sudpsixologik ekspertizalar olib bormoqda. IIB va prokrotura xodimlarini ishga qabul qilishda psixologik xolatini aniqlash bo‘yicha ekspert raisi. M. Xolnazarova tomonidan tashkil etilgan psixologik markazda viloyat aholisi va talaba, o‘quvchilar faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish va qiziqishlarini uyg‘otishda, kam ta’minlangan hamda yetim, yordamga muhtoj talabalarni qo‘llab quvvatlashda o‘z natijasini bermoqda.

Xolnazarova Matlyuba Xolbo‘taevnaga ko‘p yillik ilmiy pedagogik faoliyati, jamiyat va davlat hayotidagi faolligi uchun 2023-yil “Mo‘tabar ayol” davlat mukofoti bilan taqdirlandi. M.Xolnazarova milliy dasturning barcha bosqichlarda o‘zining namunali faoliyatini namoyon qila oldi. U fidoiy, kamtarin, diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egallagan inson, jonkuyar olima, izlanuvchanlik mahorati va ilmiy ijodkorlik qobiliyati asosida Respublika va ko‘plab davlat olimlari orasida o‘z o‘rnini topgan va hurmat qozongan.



XUDOYAROVA MAVLUDA BAXRIEVNA

Arxitektura fanlari nomzodi, Samarqand arxitektura-qurilish instituti Madaniy me’ros obyektlarini asrash va loyihalash kafedrasi dotsenti

- 2 ta o‘quv qo‘llanma va 50 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan.
- Xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalari chop etilgan.
- Chuqur bilimga ega, yuqori salohiyatli va fidoiy pedagog-olim.

Xudoyarova Mavluda Baxrievna 1950-yil 29-noyabrda Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, Eski qovunchi qishlog‘ida ishchi oilasida tug‘ilgan. 1967-yilda Yangiyo‘l tumanidagi 44–o‘rta maktabni tugatgan. 1967-yilda Samarqand Davlat arxitektura- qurilish institutining arxitektura fakultetiga o‘qishga kirib ,1972-yilda tugatgan.

1972-yildan 1975-yilgacha va 1979-yillarda UzNIIP gradostroitelstva institutining Samarqand filialida arxitektor lavozimida ishlagan. 1975-1977,1979- yillarda Kiyev muhandislik-qurilish institutida aspiranturada o‘qigan. 1981-2003-yillarda Samarqand arxitektura-qurilish institutining “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasida assisent, katta o‘qituvchi, dotsent lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2000–2003-yillarda “Arxitekturaviy loyihalash“ kafedrasi mudiri lavozimida ishlagan. 2015–2021 yillarda “Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish” kafedrasi dotsenti, 2021-yildan hozirgi vaqtda “Madaniy meros obyektlarini asrash va loyihalash” kafedrasi dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.



M.B.Xudoyarova 1979-yilni Kiev muhandislik–qurilish institutida arxitektura fanlari nomzodligi uchun dissertasiya yoqlagan. SSSR Soveti tarkibidagi Oliy attestasiya komissiyasining 10-oktyabr 1984-yilgi qaroriga (bayonnoma №42s/21) asosan dotsent ilmiy unvoni tasdiqlangan.

M.B.Xudoyarova tomonidan shu kungacha 2 ta o‘quv qo‘llanma va 50 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar chop qilingan.



So‘nggi yillarda M.B.Xudoyarova tomonidan 2ta o‘quv qo‘llanma (1.Aholi punktlari jamoat markazlari. 2019. 260b. 2. Qishloq aholi punktlarining jamoat markazlarini me’moriy-loyihaviy tashkil etish. 2020. 246 b.) chop etildi va 1 darslik “Interyer va jihozlar” fanidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga 2023-yil yanvar oyida chop etishga ruxsat olish uchun topshirildi.



5 ta Scopus xalqaro ilmiy jurnallarida (1. “ Modern Problems Of Architektural and Planning Organization Of The Rural Environment In Uzbekistan”. International journal of scientific &Tehnology research volume 10, Issue 07, July 2021(28 - 31). 2. “Formation and Development of Agglomeration in Uzbekistan”. Open Access Library Journal Scintific research Publishing. December 15,2021.(1-5).Volume 8 e8134. 3. “Methods of formation of medium city community centers”. In volume 3, Issue 4 of AcademiciaGlobale: Inderscience Research (AGIR) April,2022. 4. “Modern Problems In Development Of Historik Urban Centers In Uzbekistan”. International journal of scientific &Tehnology research volume 13, Issue 11, November 2022(226 - 235). 5. Urban Development Conditions in the Formations of the Interior of the Bulding Effect“. Cehtral Asian journal of arts and Design. Volume: 4 Issue:3 | mar-2023.(36 - 40). Va bir qator ilmiy maqolalar xalqaro konferensiyalarda (2) va ilmiy jurnallarda chop etilgan.



M.B.Xudoyarova 2023-yildan Samarqand davlat universiteti huzuridagi (PhD) falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy seminar a’zosi sifatida hamda falsafa doktorlik dissertasiya ishlariga taqriz berib kelmoqda.

Mavluda Xudoyarova chuqur bilimga ega, yuqori salohiyatli va fidoiy pedagog-olim, vataniga va xalqiga sodiq, kamtarin va samimiy inson. U ma'suliyatni yuksak darajada his qiladigan pedagog, olim sifatida universitet professor-o‘qituvchilari va fakultet talabalari o‘rtasida hurmat qozongan.



YAVKACHEVA ZULXUMOR ABDURASILOVNA

Toshkent davlat transport universtiteti “Tabiiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

- Rahbarligida 40 ortiq talabalar bilan oliy o‘quv yurtlarida bo‘lib o‘tgan konferentsiyalarda o‘z maqolalari bilan faol qatnashib kelmoqda.
- 2023 yil “Best Publication” ilmiy tadqiqotlar markazining qaroriga asosan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi miqyosida tashkil etilgan xalqaro tanlovda qatnashib, “Intellektual izlanuvchi” esdalik nishoni va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Yavkacheva Zulxumor Abdurasilovna Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi 22–o‘rta maktabni tugatib, 1986-yilda ToshDUning fizika fakultetiga o‘qishga kirdi. 1991-yilda Universitetni muvaffaqiyatli tugatib, Universitet yo‘llanmasi bilan Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi 27–o‘rta maktabda fizika fani o‘qituvchisi bo‘lib ish boshladi. 1993-yildan 1998-yilgacha Paxtachi tumani xalq ta’limi bo‘limida Fizika fani uslubchisi, 21–o‘rta maktabda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, maktab direktori lavozimlarida ishladi. 1998-yilda Pedagogika Fanlari Ilmiy tadqiqot institutiga, sirtqi aspiranturaga o‘qishga kirib, uni 2002-yil tugatdi. 1999-yildan ToshTYMI “Fizika“ kafedrasida assistent, katta o‘qituvchi lavozimlarida ishlab keldi. 1999-2023-yillar mobaynida Yavkacheva Z.A. pedagog sifatida yetuk mutaxassis bo‘lib tanildi.

Z.A.Yavkacheva ish faoliyati davomida 2012-2023-yillar O‘quv - uslubiy majmua, “Fizika“ barcha texnik ta’lim yo‘nalishlari uchun tayyorlashda, laboratoriya ishlari uchun uslubiy ko‘rsatmalarni tayyorlashda faol qatnashadi, shu bilan birga Rossiya, Ukraina, O‘zbekiston davlatlarida, universitetimizda o‘tkaziladigan ilmiy–uslubiy konferentsiyalarda maqolalari va tezislari bilan qatnashib kelmoqda.

Interfaol usullardan talabalarning bilimi, malaka va ko‘nikmalarini, psixologik rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tish jarayonida interfaol usullardan foydalangan holda sinov darslarini olib bormoqda.

Olingan natijalar asosida maqolalari bilan ilmiy- uslubiy konferensiyalarga qatnashib, sertifikatlar bilan taqdirlandi. Z.A.Yavkacheva nafaqat ilmiy sohada, balki oilaviy – axloqiy jihatdan va ijtimoiy faoliyat

sohasida ham namunali inson sifatida tanilgan.



O‘ziga topshirilgan ishni halol va maromiga yetkazib bajaradi. Intizomi va printsipialligi bilan jamoada obro‘ qozongan. Universitet va fakultetda bajariladigan jamoat ishlarida faol qatnashib kelmoqda va shu bilan birga guruh murabbiyi, “Elektromexanika” fakulteti murabbiylar kengashi raisi sifatida talabalar orasida ma’naviy va ma’rifiy ishlarni olib bordi.Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish maqsadida talabalar o‘rtasida kitobxonlik bo‘yicha fakultetlararo tadbir o‘tkazilib kelinmoqda.



Z.A. Yavkacheva raxbarligida 40 ortiq talabalar Ukraina, Rossiya, Jizzax, Samarqand, Toshkent oliy o‘quv yurtlarida bo‘lib o‘tgan konferentsiyalarda o‘z maqolalari bilan faol qatnashib kelmoqdalar. 2012-2023-o‘quv yillarida guruh talabalari bilan Qariyalar Pansionatiga, Xlebushkina nomidagi Mehribonlik uyiga, 30- Mehribonlik uyiga, Olmazor tumanidagi 100- sonli ixtisoslashtirilgan maktab- internatda 1- iyun “Xalqaro bolalar kuni” ga, “Xotira va qadrlash kuni” “Navro‘z” bayramiga bag‘ishlab, xayriya tadbirlari yillar davomida o‘tkazildi.

Z.A.Yavkacheva jamoat orasida to‘g‘riso‘z, ma’naviy yetuk, o‘z hamkasblariga nisbatan do‘stona munosabatda. Kafedradagi jamoat ishlarida faol qatnashadi, kafedra kasaba uyushmasi, xotin – qizlar uyushmasi boshlig‘i sifatida ish yuritib boradi.

Z.A.Yavkacheva mehnat faoliyati davomida erishgan yutuqlari:

1. 1993-1994-yillar Samarqand viloyati Paxtachi tumanida “Yil o‘qituvchisi “ ko‘rik tanlovida qatnashib, tumanda 2–faxrli o‘rinni egalladi. Paxtachi tumani xalq ta’limi bo‘limida fizika fani uslubchisi bo‘lib ishladi. Institut va universitet “Faxriy Yorliq” lari bilan taqdirlandi;



2. 2004-yil. 28-30 aprel. May oyida chet el o‘quv yurtlarida va markazlarida malaka oshirish uchun “Iste’dod” jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan konkursda qatnashdi;

3. 2015-yil. “Oliy ta’lim muassasasining eng yaxshi pedagogi“ tanlovining Tabiiy fanlar ta’lim sohasi “Mutaxasisligi bo‘yicha eng yaxshi pedagog” nominatsiyasida institut bosqichida I o‘rin

sohibi Z.A.Yavkacheva faxriy yorliq bilan taqdirlandi;

4. 2017-yil ToshTYMI talabalarining “Zavqli, iste’dodli yoshlar” festivalining “Fizika fanining eng yaxshi tyutori” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olibi sifatida “Diplom” va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi;

5. 2019-yil. “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” II-Respublika tanlovida o‘z innovatsion loyihasi bilan faol ishtirok etganligi uchun “Faxriy Yorliq” bilan taqdirlandi;

6. 2019-yil IP-Centre, Certificate. AGENCY ON THE INTELLECTUAL PROPERTY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN “IP-CENTRE “STATE UNITARY ENTERPRISE CENTER ON RETRAINING AND ADVANCED TRAINING IN THE SPHERE OF INTELLECTUAL PROPERTY. IP-Centre, Certificate, O deponirovaniya ob’ektov avtorskogo prava;

7. 2021-yil “Oliy ta’lim muassasasining eng yaxshi pedagogi“ tanlovining Tabiiy fanlar ta’lim sohasi “Mutaxassisligi bo‘yicha eng yaxshi pedagog” nominatsiyasida Toshkent davlat transport universiteti bosqichida I o‘rin sohibi Z.A.Yavkacheva faxriy yorliq, pul mukofoti bilan taqdirlandi va respublika bosqichiga yo‘llanma oldi;

8. 2021 year International Book Edition of the countries of the Commonwealth of Independent States “Best in EDUCATION” 2021. Qozog‘iston davlatida bo‘lib o‘tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining “Eng yaxshi pedagog – 2021” xalqaro ko‘rik tanlovida qatnashib, 2 darajali “Diplom” va “Ko‘krak medali” bilan taqdirlandi.

9. 2022-yil СЕРТИФИКАТ: Некоммерческая профессиональная ассоциация “ Наука в Евразии” резидент Дубайского научного парка Г.Дубай Успешно прошла семь обучающих модулей по написанию , оформлению и публикации научных статей в рецензируемых изданиях , индексируемых в ведущих базах данных в объеме 14 академических часов;

10. 2022-yil SERTIFIKAT: “Kreativ Pedagog” onlayn kursi a’lo darajada o‘zlashtirildi;



11. 2023-yil ”Best Publication” ilmiy tadqiqotlar markazining qaroriga asosan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi miqyosida tashkil etilgan xalqaro tanlovda qatnashib, “Intellektual izlanuvchi” esdalik nishoni va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Amaliy psixologiya” yo‘nalish 4-kurs (sirtqi) 2-chi Oliy ta’lim muassasasida tahsil oladi.

Fizika fanidan o‘quv-uslubiy majmua, elektron o‘quv modul, barcha texnik ta’lim yo‘nalishlari uchun “Fizika” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlariga doir rus va o‘zbek tillarida 6 ta uslubiy ko‘rsatma, 10 ta mualliflik guvohnomalari, 7 ta uslubiy qo‘llanma 1 ta test savollari materiallari to‘plami tayyorlashda va chop etishda hammuallif sifatida, laboratoriya mashg‘ulotlaridan ishlarni modernizatsiyalashda ham faol qatnashdi.

Zamonaviy pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim – tarbiya jarayonida samarali qo‘llash natijasida tayyorlagan maqolalari bilan Xalqaro jurnallarda, konferensiyalarda, Respublika miqyosida 200 dan ortiq maqolalari va tezislari bilan qatnashib, ilmiy – uslubiy konferensiya materiallari to‘plamida maqolalari chop etilgan. Hozirgi vaqtda “Fizika fanini o‘qitishda ekologik mazmundagi laboratoriya ishlarini bajarish metodikasi“ mavzusida doktorlik ishi bilan shug‘ullanmoqda.



YULDASHEVA MUNAVVAR KADIROVNA

Samarqand davlat arxitektura - qurilish instituti “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsenti

- 50 dan ortiq ilmiy maqolalari nashr etilgan va maqolalar tanlovlarida sertifakat va diplomlar olgan;
- Respublika tanlovlari sovrindori;
- Darslik, o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan.

Respublikamizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning ijrosi ta’minlanishiga, “Kadarlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan uzluksiz ta’limni amaliyotga joriy qilishga, qurilish, geodeziya va kadastr sohalarida yosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan iqtidorli va tashabbuskor pedagog murabbiydir.

Munavvar Yuldasheva 1950-yil 13-avgustda Samarqand shahrida tavallud topgan. 1972-yili Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining “Arxitektura” fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatib, o‘sha yilning o‘zida Ta’lim vazirligi taasarrufidagi “Uzmejkolxozproekt” loyiha institutiga ishga yuborildi. Institutdagi 7 yillik mehnat faoliyati davomida arxitektordan yetakchi arxitektorgacha bo‘lgan lavozimlarda ishladi. Loyiha institutida ishlagan davrida u tomonidan 11 ta obyekt loyihalashtirilgan va qurilgan.



M.K.Yuldasheva pedagogik faoliyatini 1979-yildan Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti “Arxitekturaviy loyihalash” fakultetida boshladi. 1979-2019 yillar mobaynida Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasida assistant, o‘qituvchi, katta o‘qituvchi lavozimlarida faoliyat olib bordi. 2019-yildan esa “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasida dosentlik lavozimida ilmiy-pedagogik faoliyat olib bormoqda.

Dotsentlik lavozimida ilmiy-pedagogik faoliyat olib bormoqda.

Dotsent Yuldasheva Munavar Kadirovna ko‘p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati natijasida 50 dan ziyod ilmiy va uslubiy ishlar, shu jumaladan 1 ta darslik, 3 ta o‘quv qo‘llanma va 1 ta o‘quv metodik qo‘llanma tayyorlagan. 2018 yilda “Proektirovanie jilix I obshestvennix zdaniy” nomli o‘quv metodik qo‘llanma, 2019 yilda “Arxitekturnoe proektirovanie”, “Kinokonsertnie zali”, 2021 yil “Inter’er I oborudovanie”, “Inter’er obshestvennix zdaniy”, 2022-yil “Landshaftnaya arxitektura mnogoprofil’nix parkov I skverov Uzbekistana” nomli o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi. 2023-yilda “Rekonstruksiya I restavratsiya arxitekturnix pamyatnikov (na primere istoricheskix gorodov Uzbekistana)” darslik chop etildi.



Dotsent Yuldasheva Munavar Kadirovna kafedradagi keyingi 5 yilllik faoliyati davomida 50 dan ortiq ilmiy maqola va boshqa nufuzli xalqaro bazalardagi ilmiy jurnallar hamda xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar to‘plamlarida chop etildi.

Uning arxitektura ta’limi va fanini rivojlantirish, uning yangi qirralarini ochish sohasidagi xizmatlari xalqaro miqyosda ham e’tiborga sazovor bo‘lgan. Jumladan, M.Yuldashevaning ilmiy ishlari mamlakatimiz va chet ellarda-Rossiya, Qozog‘iston kabi davlatlarning nufuzli ilmiy nashrlarida chop etilgan.

2016-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 1-iyuldagi Farmoniga binoan tavsiya etilgan “O‘zbekiston Mustaqilligining 25 yilligi” esdalik nishoni bilan takdirlandi, shuningdek O‘zbekiston Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining “Yosh avlod tarbiyasi” faxriy yorlig‘i bilan mukofotlangan.

Ma’lumki, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini kuchaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Natijada bugungi kunda ayollar jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tobora yetakchi o‘rinlarni egallab, ta’lim, madaniyat va ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo‘shmoqda.



M.K.Yuldasheva Samarqand davlat arxitektura qurilish universitetining “Arxitektura” fakultetida 15 yil davomida fakultet xotin-qizlar kengash raisi bo‘lib ishladi. Shuningdek, u universitetning “Olima ayollar” uyushmasi a’zosi va shu uyushmada “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovasion loyihasi” I Respublika ko‘rik tanlovining Samarqand viloyati bosqichida o‘z innovasion loyihasi bilan g‘olib bo‘lganligi tahsinga sazovordir.

M.K.Yuldasheva Samarqand davlat arxitektura qurilish universitetining “Arxitektura” fakultetida 15 yil davomida fakultet xotin-qizlar kengash raisi bo‘libishladi. Shuningdek, u universitetning “Olima ayollar” uyushmasi a’zosi va shu uyushmada “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovasion loyihasi” I-Respublika ko‘rik tanlovining Samarqand viloyati bosqichida o‘z innovasion loyihasi bilan g‘olib bo‘lganligi tahsinga sazovordir.



ZARIPOVA DILFUZA BAXTIYOROVNA

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Buxoro ichki ishlar akademik litseyi "Tillarni o'rganish" kafedrasi mudiri

- "Ta'lim sohasidagi xizmatlari uchun", "Ilm-fan fidokori" ko'krak nishoni sohibasi
- 60 dan ortiq ilmiy maqolalar va o'quv, uslubiy qo'llanmalar muallifi;

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna 1981-yil 10-oktabrda Buxoro tumanida ziyoli oilada tug‘ilgan. 1988-1998 yillarda Buxoro shahar 26- umumta’lim maktabini tugatgan. 1998-2002-yillarda Buxoro davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 2003-2005-yillarda Buxoro davlat universitetini, Adabiyotshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha magistraturani tugatgan. Pedagogik staji 20 yil. Bosh toifali o‘qituvchi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD). Hozirgi vaqtda Buxoro ichki ishlar akademik litseyi "Tillarni o'rganish" kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

U ona tili va adabiyot fanidan talabalarga mukammal bilim berib, shu fan bo‘yicha ko‘plab o‘quv-uslubiy va test to‘plamlari chop etdi. Shuningdek, o‘z fani bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar, slaydlar, plakatlar, kichik dasturlar tayyorlab darslarda keng qo‘llab kelmoqda.



2003-yilda “Yilning eng yaxshi kasb-hunar ta’limi o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichida 2-o‘rinni egalladi. Shu yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti nomzodligi tanlovida faol ishtirok etdi. U bilim berayotgan guruh o‘quvchilari viloyat va respublika miqyosidagi olimpiadalarda faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, Hikmatova Nigina 2013-yilda o‘zbek tili fani bo‘yicha viloyat olimpiadasida 1-o‘rinni, Radjabova Marjona ona tili va adabiyot fanidan shahar olimpiadasida 3-o‘rinni, Ergasheva Zebi 2015-

yilda ona tili va adabiyot fanidan shahar olimpiadasida 2-o‘rinni, Istamova Sohiba 2016-yilda ona tili va adabiyot fanidan shahar olimpiadasida 1-o‘rinni egalladi.



Do‘stmurodova Shahrizoda (3-kurs) 2019-yilda o‘zbek tili fanidan viloyat olimpiadasida 1-o‘rinni egallab, Respublika bosqichiga yo‘l oldi va 2020-yilda G‘aybullayeva Laylo ona tili va adabiyot fanidan viloyat olimpiadasida 1-kurslar orasida 1-o‘rinni, 2022-2023-o‘quv yilida Rajabova Shahrizoda o‘zbek tili fanidan viloyat olimpiadasida 2-o‘rinni egalladi.

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna 2022-yilda “Didaktik asarlarning qiyosiy-tipologik tahlili” mavzusida tadqiqot olib borib, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi. D.B.Zaripova 2016-yilda filologiya yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazilgan respublika seminarida ishtirok etdi. Shu yilda o‘qituvchi tomonidan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” hamda “Ijodkorlik-fikriy tiniqlik belgisi” mavzuidagi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari yaratilib, respublika miqyosida ommalashtirildi. Shuningdek, ustozning “Ijodkorlik-fikriy tiniqlik belgisi”, “Suvrat va siyrat”, “Adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari”, “O‘qituvchi mahorati” kabi maqolalari matbuotda chop etilib, ular ona tili va adabiyot fanini o‘qitish metodikasini boyitishga hissa bo‘lib qo‘shildi.

Shu yillar davomida o‘z bilim saviyasi mahorati bilan o‘quvchilarning sevimli muallimiga aylandi.O‘quvchilaridan Nabieva Rushana 2012-yilda Respublika yoshlar tanlovida nasr yo‘nalishi bo‘yicha I o‘rinni egalladi. Salimova Gulchehra “Konstitutsiya-mening taqdirimda” mavzusidagi esselar tanlovida g‘olib bo‘ldi.

D.B.Zaripova O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan tashkil etilgan respublika o‘quv-amaliy seminarida namunali “O‘quv-metodik material” namoyishi bo‘yicha I darajali diplom bilan taqdirlangan. Shuningdek, u 2016-yilda filologiya yo‘nalishi bo‘yicha Respublika metod birlashma a’zoligiga qabul qilindi.



U o‘quvchilarning darslarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish maqsadida doimiy ravishda ochiq darslar tashkil qiladi. Uning Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy dostoni tahlili“ mavzusidagi ochiq darsi respublika miqyosida ommalashtirildi. “Barqaror birikmalar tasnifi”, “Ahmad Yassaviy hikmatlari tahlili”, “Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani tahlili” mavzusidagi ochiq darslari mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi. Uning o‘z sohasini mukammal bilishi, tashabbuskorligi bilan yosh pedagoglarga

uslubiy yordam ko‘rsatishi maqsadida 2015-yilda Buxoro viloyat o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida ona tili va adabiyot fani sho‘ba rahbari etib tayinlandi.

2019-yilda Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litseyi Xorijiy tillar yo‘nalishi 110-guruhda “Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari tahlili” mavzusini o‘zbek va ingliz tillarida ochiq dars o‘tkazdi. Bu ochiq darsi viloyat miqyosida ommaviy axborot vositalari orqali viloyat miqyosida ommalashtirildi.

D.B.Zaripova darslarda va to‘garak ishlarida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘ururni shakllantirish borasida tinimsiz izlanmoqda.

Shu bilan birga Buxoro viloyati televideniyasi tomonidan uning pedagogik faoliyati “Mustaqillik mening taqdirimda” ko‘rsatuvi orqali yoritib berildi.

D.B.Zaripova umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quv dasturlarini takomillashtirishni tashkil etish to‘g‘risida tashkil etilgan ishchi guruh a’zosi. 2022-yil 25-oktabrda Farg‘ona shahrida o‘tkazilgan “Ilm-fan fidokori” xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik-tanloviga ilmiy maqolasi bilan qatnashdi va g‘olib sifatida “Ustozlar kengashi” MChJ ilmiy tahririyati kengashi tomonidan “Ilm-fan fidokori” ko‘krak nishoni, diplom, sertifikat bilan taqdirlandi. 2022-yil 9-noyabr kuni Buxoro viloyat televideniyasi ustozni “Assalom Buxoro” ko‘rsatuviga taklif etishdi.

D.B.Zaripovaning 100 dan ortiq o‘quvchilari o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha respublikamizning turli oliygohlarida tahsil olishmoqda. D.B. Zaripova tomonidan hozirgi kunga qadar 50 dan ortiq ta ilmiy ish e’lon qilingan.

.



O‘RINBOYEV ABDUMALIK ABDUQUNDUZOVICH

“Tabobat” Akademiyasining a’zosi, “Turon” fanlar Akademiyasining Faxriy Akademigi

- Bir qator ilmiy kitob, monografiya va ilmiy maqolalari nashr ettirilgan;
- Seleksiya va boshqa sohalarda 8 ta ixtiro va yangiliklar, bir qancha seleksiya yutuqlari, ratsionalizatorlik takliflar muallifi;
- “Naynavo oqshomi” ilmiy eksperimental urug‘chilik ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligida selektsioner – patentshunos.

O‘rinboyev Abdumalik Abduqunduzovich 1955-yil 13-noyabrda Andijon viloyati, Shaxrihon tumani, Naynavo qishlog‘ida kolxozchi oilasida tug‘ilgan. 1963-yilda qishloqdagi Maksim Gorkiy nomidagi № 41- sonli o‘rta maktabini 1 - sinfga o‘qishga kirib, 1973-yilda o‘rta maktabni tugatgan.



1973-1974-yillarda Moskva paxta tozalash zavodiga qarashli Naynavo paxta tayyorlash maskanida elektrik vazifasida o‘z ish faoliyatini boshlagan. 1974-1976 yillarda sobiq sovet armiyasi safida xizmat qilgan.



1976-1982-yillarda Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati institutining kechki bo‘limida o‘qish bilan birga, kunduzi Butinittifoq markaziy paxta tozalash ilmiy - tekshirish institutida katta muhandis vazifasida ishlagan. 1982-2015-yillarda Andijon viloyati Bo‘z (Bo‘ston) tumanidagi paxta tozalash zavodida avvaliga o‘qitish bo‘yicha muhandis, keyinchalik rejalashtirish bo‘limi boshlig‘i

vazifasida ishladi.



1987 –1989-yillarda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda Butunittifoq Ratsionalizatorlik institutida “Patentshunos” mutaxasisligini olib, qishloqda ratsionalizatorlik ishlarini yaxshilashga o‘z hissasini qo‘shgan. 1996-yildan fermerlik



harakatiga qo‘shilib, 2007-yildan Shaxrihon tumanida “Naynavo oqshomi” nomidagi ilmiy eksperimental urug‘chilik fermer xo‘jaligini tashkil qilib, qishloq xo‘jaligi sohasidagi ilmiy tajribalarni keng ommaga tanishtirish ishlarida na’muna sifatida faoliyat olib borish bilan birga, 2016-yildan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tekshirish institutiga qarashli Andijon ilmiy tajriba stantsiyasida ilmiy ishlarni ishlab chiqarishga joriy qilishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Ilmiy faoliyati: 10 ta ilmiy kitob, jumladan 2ta monografiya, 8 ta ixtiro va yangiliklar, 22 ta selektsiya yutuqlari, 122 dan ortiq ratsionalizatorlik takliflarni va 80 dan ortiq ilmiy maqolalarni muallifi.



O‘rinboyeva Abdumalik Abduqundizovich hozirgi kunda – “Naynavo oqshomi” ilmiy eksperimental urug‘chilik ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligida selektsioner - patentshunos, O‘zbekiston tibbiy – ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar “TABOBAT” Akademiyasining a’zosi, Maxpirat nomidagi O‘rta Osiyo xalqlari tarixi instituti “TURON” fanlar Akademiyasining Faxriy Akademigi sifatida o‘z ilmiy ishlarini davom ettirmoqda.



SHODIYEV HAMZA RO‘ZIQULOVICH

Navoiy davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasi dotsenti

- Viloyat, shahar va institut miqyosida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib keladi;
- Ko‘plab xalqaro va mahalliy jurnallarda maqola va tezislari bilan qatnashib keladi;
- Ko‘plab shogirdlarning ilmiy ishiga rahbarlik qilgan.

Shodiyev Hamza Ro‘ziqulovich, 1982-yil 22-avgustda Navoiy viloyati, Navbahor tumanida ishchi oilasida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. 2021-yil 25-avgust oyidan buyon texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hisoblanadi.

Shodiyev Hamza Ro‘ziqulovich, texnika fanlari bo‘yicha falsafadoktori (phD) dissertatsiyasini Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Fan va taraqqiyot” davlat unitar korxonasi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/30.12.2019.K/T.03.01 raqamli ilmiy kengashda “Neft va gaz sanoatining uskunalari va mexanizmlari uchun antik orrozion kompozitsioningi birlovchi materiallar va ular asosida qoplamalar ishlab chiqish” mavzusida 02.00.07 – Kompozitsion, lok-bo‘yoq va rezina materiallari kimyosivatexnologiyasi, 05.02.01 – Mashinasozlik materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga texnik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Radiokatvik kamyob va nodir elementlar texnologiyasi (texnika fanlari) ixtisosliklari bo‘yicha himoya qilgan.



Umumiy ish staji - 18 yil. Oliy o‘quv yurtlaridagi ilmiy va pedagogik ish staji -17 yil, shu jumladan Navoiy davlat pedagogika institutidagi umumiy pedagogik ish staji 9 yil.

2011-2015-yillarda Navoiy viloyati o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmasi rahbar va pedagogik kadrlarni tanlash va ularning malakasini oshirish sho‘basi mudiri, o‘rindoshlik asosida Navoiy davlat pedagogika instituti, malaka oshirishva qayta tayyorlash fakulteti o‘qituvchisi, 2015-2017-yillarda Navoiy viloyati Karmana sanoat kasb-hunar kollejining o‘quv ishlari bo‘yicha direktor

o‘rinbosari, o‘rindoshlik asosida Navoiy davlat pedagogika instituti, malaka oshirish va qayta



tayyorlash fakulteti o‘qituvchisi, 2017-2020-yillarda Navoiy pedagogika va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi.



2021-yillar Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Fan va tarqqiyot” davlat unitar korxonasi tayanch doktaranti. 2021-yildan hozirgi kunga qadar Navoiy davlat pedagogika instituti o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i, “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

H.R Shodiyev o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishda doimiy ravishda interfaol usullardan hamda axborot texnologiyalaridan (kompyuterning dasturiy va texnik vositalaridan) unumli foydalanadi. Fanlar bo‘yicha taqdimotlar va elektron o‘quv kurslarini ishlab chiqishda kompyuterning amaliy va instrumental dasturlaridan foydalanib keladi.

2022-yil 29-mart kuni 2-juftlikda 60111000 – “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo‘nalishi sirtqi 3-bosqich talabalariga Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fanidan “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH)” mavzusida ochiq dars o‘tkazilgan. 2022-yil Navoiy viloyati, yuridik texnikumida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yilning 15-iyun kuni kengaytirilgan tartibda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 49-sonli bayoni hamda viloyat hokimligining 2022-yil 15-avgustdagi yig‘ilishi bayonida ko‘zda tutilgan professional ta’lim muassasalarining umumta’lim fan o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini attestatsiyaga tayyorlash va toifalarini ko‘tarish uchun institutning malakali professor o‘qituvchilaridan iborat “Mobil guruhlari” tashkil etishda metodik yordam ko‘rsatgan va o‘zining mahorat darsi bilan ishtirok etgan.

H.Shodiyev viloyat, shahar va institut miqyosida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Navoiy davlat pedagogika institutida tashkil etilgan “stol tennisi” sport musobaqasida faol qatnashib, faxrli 1-o‘rinni egallagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida yoshlarni o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish uchun o‘tkazilgan jamoaviy tadbirlarda faol ishtirok etib, faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

H.Shodiyev Sirdaryo viloyati Sardoba Suv omborida sodir bo‘lgan tabiiy texnogen

vaziyatlar oqibatlaridan aziyat chekkan aholiga yaqindan ko‘mak bergani hamda volontyorlik faoliyati davomida fidoyilik va jonkuyarlik namunasini ko‘rsatgani uchun O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Navoiy viloyati Kengashining tashakkurnomasi bilan taqdirlangan

H.R. Shodiyev o‘z kasbiy faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimiga oid Qaror va Farmoyishlari mazmun-mohiyatini targ‘ib etishda va ularda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida hamda sifatli ijrosini ta'minlashda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.



H.R. Shodiyev 2020-yil iyun oyida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh ilmiy metodik markazda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlari uchun tashkil etilgan 72 soatga mo‘ljallangan “Masofaviy ta’limni tashkil etish texnologiyalari” masofaviy kursini to‘liq o‘zlashtirgan.

H.R.Shodiyev 2020-yil iyun oyida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh ilmiy metodik markazda Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlari uchun tashkil etilgan 72 soatga mo‘ljallangan “English(beginner)” masofaviy kursini to‘liq o‘zlashtirgan.

H.R.Shodiyev 2020-yil iyun oyida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi bosh ilmiy metodik markazda Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlari uchun tashkil etilgan 24 soatga mo‘ljallangan “Kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa yo‘nalishlari” masofaviy kursini to‘liq o‘zlashtirgan.

H.R. Shodiyev 2021-yil 22-25-noyabr kunlari “Kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha qisqa muddatli trenerlar tayyorlash kursi” da tahsil olgan.

H.R.Shodiyev 2020-2021-o‘quv yilida 5A110501 -Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (Geografiya) ta’lim yo‘nalishi magistrantlari Xurramova Nazira Xurram qizi, Bozorqulova Roziya Abduahad qizining magistrlik dissertatsiya ishlariga rahbarlik qilgan.

H.Shodiyev Ilm-fan va innovatsiyalar akademiyasi “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnali tahririyat a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. (guvohnoma raqami № SAI-022).

U o‘z kasbini sevadigan, xizmat vazifasiga mas’uliyatli va talabchan, yuqori bilim va muomala madaniyatiga ega bo‘lgan, doimo o‘z ustida ishlaydigan va izlanuvchan rahbar xodim sifatida jamoada e’tibor qozongan.



SHARAPOVA SABOXAT DJABBAROVNA

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, GulDU dotsenti

- 50 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan;
- O‘quv qo‘llanmalari va ilmiy asoslangan monografiyalari mavjud;
- “Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanganligining ijtimoiy –psixologik jihatlari” mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Sharapova Saboxat Djabbarovna 1968-yil 29-yanvarda Buxoro viloyati Kogon shahrida tavallud topgan. Oilali 2 nafar farzandi bor. Hozirgi kunda Sirdaryo viloyati Guliston shahrida istiqomat qiladi.

Guliston davlat universitetida ilk faoliyatini – universitet psixologi lavozimidan boshlagan Sabohat Sharapova shu kungacha talabalarga psixologiya fanlaridan saboq berish bilan birga, viloyatda taniqli psixolog sifatida aholiga beminnat xizmat ko’rsatib kelmoqda.



Olima 2020-yilda “Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanganligining ijtimoiy –psixologik jihatlari” mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib 19.00.05. Ijtimoiy-psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligidan psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini qo‘lga kiritdi.

Saboxat Sharapovaning 50 dan ortiq ilmiy maqolalari, o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy asoslangan monografiyalari mavjud bo‘lib,u ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo’shib kelmoqda.

Sharapova Saboxat Djabbarovna 2020-2022-yillar davomida Guliston davlat universitetida Ilmiy bo‘lim boshlig‘i

lavozimida faoliyat olib borib, universitet ilmiy salohiyatining oshishiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi.





Hozirgi kunda Sharapova Saboxat 19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun “Talabalarda ijtimoiy makon va axborot tahdidlarisharoitida virtual madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy psixologik jihatlari” mavzusidagi dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda

MUNDARIJA

ABBAZOV ILXOM ZAPIROVICH……..……..... 5
ABDUKADIROVA RA’NO YULCHIBAYEVNA……...…… 9
ABDULLAYEVA NILUFARXON MAXAMADJANOVNA……...…… 12
ABDULLAYEVA NARGIZA NASILLAYEVNA……. 16
ABDUVALIYEVA DILSORA NODIRJON QIZI……..... 19
ADILOV ZARIFJON HIMMATOVICH…… 23
AJABOV ABDURAZZOQ QAYUMOVICH……. 26
AMANOVA NODIRA DAVLYATOVNA…….. 29
ANARKULOVA GULNOZA MIRZAXMATOVNA……..... 31
ARIPOVA NASIBA ATXAMOVNA……... 34
ESHPO‘LATOVA ZAYNAB BARATOVNA …… 42
GAIPOVA SHAXNOZAXON SAIDAZIM QIZI……... 45
DALIMOVA GO‘ZAL ABDURASHIDOVNA…… 48
ISMATULLAYEVA XOLIDA ZAKRULLAYEVNA…….. 51
IMOMOV MUSURMON PIRNAZAROVICH…….. 54
MURODOVA DURDONA RAIMJON QIZI……. 58
MULLABOYEVA NARGIZA SHAROPALIYEVNA……... 60
NASRITDINOVA MADINANURULLAYEVNA...……..... 63
NAZAROVA SEVARA MUSTAKIMOVNA…… 67
NIZAMOVA SHOIRA ISAMIDDINOVNA……... 70
PAZILOVA SHOXIDA ABDULBASITOVNA……... 72
PIRAXUNOVA FARIDA NURMAMATOVNA…… 74
RAXIMOV DILSHOD PULATOVICH…… ……. 77
RASHIDOVA MA’MURA XAYRULLAEVNA……. 79
RASULOV ILHOM MAXMUDOVICH…… 82
RAJABOV FARXAT FARMANOVICH…… 85
SALIJONOVA SHAXNOZAXON DILMURODOVNA……... 87
SARIMOVA DILDORA SOATALIYEVNA…… 91
SA’DIEV SOLI TOLIBOVICH……... 96
SAYFUDINOVA JAMILA BADRIDDINOVNA……... 99
SAYFULLAEVA GULHAYO IXTIYOR QIZI……... 103
TADJIBAYEV SALIMJON SABIRJANOVICH…….. 106
TURSUNNAZAROVA ELVIRA TAXIROVNA ……... 108
TOSHPULATOVA SHAXLO OCHILOVNA……. 111
TO‘LIBOYEV HIKMATULLA EGAMOVICH……... 114
UMAROV ERKIN MARIFJONIVICH……... 117
UMAROVA ILMIRA DJURAYEVNA…….. 120
VARDIYASHVILI AFDANDIL ASQAROVICH…….. 125
XAKIMOV ALISHER OLIMJONOVICH…… 128
XOLMUROTOV MANSURBEK ZARIPBAYEVICH……..... 131
XOLNAZAROVA MATLYUBA XOLBO‘TAYEVNA…… 134
XUDOYAROVA MAVLUDA BAXRIEVNA……. 137
YAVKACHEVA ZULXUMOABDURASILOVNA……... 139
YULDASHEVA MUNAVVAR KADIROVNA……..... 143
ZARIPOVA DILFUZA BAXTIYOROVNA……... 145
O‘RINBOYEV ABDUMALIK ABDUQUNDUZOVICH…….. 148
SHODIYEV HAMZA RO‘ZIQULOVICH……. 150
SHARAPOVA SABOXAT DJABBAROVNA…….. 153

MENING MUVAFFAQIYAT YO‘LIM biografik ensiklopediyasi 2023-yil to‘plami 1-qismi

www. successful.uz

Bosh muharrir
Rustamov B.N.

Mas’ul muharrir
Raxmatullayeva G.V.

Texnik muharirlar
U.Abduxakimova, D.Djalilova, A.Rustamov, G.Isayeva, H.Qodirov

Bosmaxonaga berildi: 14.08.2023. Bosishga ruxsat etildi: 15.08.2023.
“Times New Roman” garniturasi, Ofset bosma. Adadi: 500 dona.

“Science and innovation” MCHJ
Litsenziya №:038864 15.09.2022
Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654